

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOLDAROVA IRODAXON VALIJONOVNA**

**O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLARNING LINGVOPRAGMATIK  
TADQIQI**

**(monografiya)**

**Farg‘ona – 2021**

YŷK: 811.512.133`271

**Xoldarova Irodaxon Valijonovna**

O‘zbek tilidagi generonimlarning lingvopragmatik tadqiqi.

**Mas’ul muharrir:**

**Iskandarova Sh.M.**, filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**NabiyevaD.A.**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova B.Q.**, filologiya fanlari nomzodi, dosent

Mazkur monografiya o‘zbek tilshunosligining zamonaviy dolzarb muammolaridan biriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek tilidagi generonimlarning lingvopragmatik tadqiqi haqida so‘z yuritilgan. U shu mavzuda amalga oshiriladigan navbatdagi ishlarga ilmiy manba bo‘la olishi shubhasiz. Bundan tashkari, undan oliy ta‘limda filologiya yo‘nalishi talabalariga, magistrantlariga leksikologiya va leksikografiya sohalariga doir ixtisoslik fanlarini o‘tishda ham samarali foydalanish mumkin.

**Mazkur monografiya Farg‘ona davlat universiteti Ilmiy kengashining  
2021-yil 11-maydagi 8-yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan**

**S Xoldarova Irodaxon Valijonovna 2021**

## SO‘ZBOSHI

Jahon tilshunosligida lisoniy birliklarga onomasiologik nuqtai nazardan yondashish, turli sathga mansub nominativ birliklarning yaxlit semantik maydonlarga birlashish asoslarini belgilash, lug‘aviy birliklarning nutq uslublarida xilma-xil variantlarda namoyon bo‘lish jihatlarini aniqlash muntazam e‘tiborda bo‘lgan. Mazmuniy birliklarni leksik-semantik va pragmatik asosda puxta o‘rganish, xususan, generonimlarning o‘zaro zidlanish asoslarini ochib berish, ularning semantik va sintaktik belgilariga tayangan holda sintagmatik munosabatlarini tadqiq etish, milliy-madaniy xususiyatlarini keng yoritish ham soha rivojini ta‘minlovchi zaruriy omillardan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida lisoniy birliklarga «mazmundan shaklga» tamoyili orqali yondashish, sohaviy birliklarning umumiy leksik sistemadagi o‘rnini belgilash, har qaysi birlikning shakliy-mazmuniy tuzilishidagi o‘ziga xosliklarni aniqlash ustida keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib borilgan. Lug‘aviy birliklarning uslubiy funksiyalari, ularning assotsiativ belgilari hamda milliy-madaniy xususiyatlarini atroflicha tadqiq etish ham tilshunoslik fani oldidagi muhim muammolardan sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida mustaqillik yillarida «mazmundan shaklga» tamoyiliga asoslangan onomasiologik yondashuv asosida bir qator tadqiqotlar maydonga keldi. Bu tadqiqotlarda lisoniy birliklarning mazmuniy guruhlari, til-nutq tizimidagi o‘rni, qo‘llanilish sohalari yetarlicha tahlil etilgan. Biroq «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonda ta‘kidlanganidek, «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir»<sup>1</sup>. Mazkur Farmon soha mutaxassislari oldiga bir qator muhim vazifalarni qo‘yadi. Shunga ko‘ra,

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони / Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).

o‘zbek tilshunosligida leksik makrosistemaning bir qismi bo‘lgan generonimlarning ichki lisoniy belgilari, uslubiy imkoniyatlari, xalq madaniyatini namoyon etuvchi lingvopragmatik xususiyatlarini tadqiq etish lisoniy birliklarning ma’naviy tuzilishi, semantik-pragmatik jihatlari borasida yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tilshunoslikda lingvistik semantikaning turlicha yo‘nalishlari paydo bo‘lishi natijasida lisoniy birliklarning mazmuniy tuzilishini muayyan maydonlar asosida o‘rganishga qulay imkoniyat yaratildi.

O‘zbek tilshunosligida shu kunga qadar ayrim mazmuniy guruhlarning lisoniy tahliliga oid bir necha o‘nlab tadqiqotlar maydonga kelgan<sup>1</sup> bo‘lsa-da, «yaralish» semasi asosida birlashgan generonimlarni muayyan paradigma sifatida olgan holda, uning uzvlari o‘rtasidagi paradigmatic, sintagmatik, assotsiativ, antisemik munosabatlarni izchil o‘rganish, bu birliklarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilish, milliy-madaniy belgilarini aniqlash muammosi monografik tarzda kun tartibiga qo‘yilgan emas.

---

<sup>1</sup> Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе. Дисс... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988; Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986; Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004; Ғуломова Г. Ўзбек юридик терминологиясининг истиклол даври тараққиёти: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 1994; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2005; Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Бердиев Х.Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017; Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Пазлиддинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Фарғона, 2018; Джурабаева З.А. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фанл. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2018; Ҳақимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019; Эрматов И.Р. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2019 ва бошқалар.

# BIRINCHI BOB

## O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLAR PARADIGMASI

### 1.1. Onomasiologik tadqiqotlar va generonimlar

Lug‘aviy birliklar til sistemasida o‘ziga xos maqomga egaligi bilan alohida o‘rin tutadi, chunki har bir lug‘aviy birlik ortida tovush, vaziyat va tushunchaviy aloqalar sistemasi yotadi. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, tilni sistema sifatida tadqiq etishning asosini ham so‘z, leksemalar tashkil etadi.

Til sathlari quyidan yuqoriga qarab qat‘iy tartibda joylashadi. «Har bir yuqori sath birligi o‘zidan bir daraja quyi sath birliklarining sintagmatik munosabatidan tashkil topadi»<sup>1</sup>. Shunday ekan, leksik sathni tadqiq qilish tilning boshqa sathlari bo‘yicha olib borilgan qator tadqiqotlarga oydinlik kiritishga imkoniyat yaratadi.

Yaqin yillarga qadar o‘zbek tilshunosligida tilga muntazam aloqadorlikdagi elementlarning munosabatdoshligidan tashkil topgan yaxlit sistema sifatida qaralib, leksemaning lisoniy va nolisoniy belgilarini turli xil aspektlarda turib mukammal tadqiq etishga qaratilgan o‘nlab tadqiqotlar olib borilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология, Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 8-бет.

<sup>2</sup> Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи. - 1995; Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентности: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. — Ташкент. 1989; Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. Тошкент: Фан. - 1998; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тошкент: Маънавият. - 2004; Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Хидиров Р. Янги луғавий бирликлар ва уларнинг тил парадигматик тизимига муносабати: Филол. фанлари номз... дисс.– Тошкент, 1996; Хайруллаев Х. Тил ва нутқ бирликларининг поғонали муносабати: Филол. фан. номз... дисс. автореферати. – Тошкент, 2010; Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида). Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Алиева М.А. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Алиқулов А.Ф. “Ел-ёгин” луғавий-маъновий гуруҳи (тизими, қўлланилиши ва лексикографик талқини): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 2011; Бердиев Х.Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017; Воққосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Фарғона, 2005; Джурабаева З.А. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1988; Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз... дисс. автореф. –

O'tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab o'zbek tilshunosligida tilni sistemaviy asosda o'rganish natijasida til birliklariga sistema sifatida yondashildi. Buning natijasida tilni yaxlit bir sistema sifatida idrok qilish, til birliklarini esa sistema elementlari sifatida o'zaro shartlanganlik asosida munosabatdoshligiga alohida e'tibor qaratildi. Tilning har bir sathiga ana shu nazariy qarash asosida izchil yondashildi. Tilshunoslikdagi ayrim ishlarda paradigma til birliklarining o'zaro munosabatida aniqlanuvchi qarama-qarshi belgiga ega til birliklari qatoridan iborat deb ham izohlandi.

Bunday qarash tarafdorlari ham paradigma a'zolari umumiy va farqli belgiga ega ekanligiga urg'u berdi. Shuningdek, grammatik jihatdan o'xshash, ma'no jihatdan umumiylikka ega so'zlarni leksik paradigmalar deb yuritildi. Ayni vaqtda, paradigma atamasi ostida so'z shakllarining qatori ham tushuniladi.

Professorlar H.Ne'matov va R.Rasulovlar paradigmalar bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, ular jamiyat a'zolari ongida mavjud va aqliy-lisoniy tahlil orqali aniqlanadi. Shunga ko'ra, turli nutqiy ko'rinishlarda, jadvallarda, tasvirlarda

---

Тошкент, 2011; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986; Мирахмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 1994; Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Неъматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Нишонова Н.Р. Ўзбек тилида “хайвон” архисемали семемалар майдонининг мазмуний тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. –Тошкент. 2000; Норбаева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Пазлиддинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Фарғона, 2018; Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994; Турсунова Т. Мейморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. – Тошкент, 1987; Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008; Уракова З.С. Маскан отларининг луғавий-маъновий гуруҳи ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Элмурадова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони): Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011; Эргашова М.В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011; Эрматов И.Р. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2019; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Қурбонова Б.Қ. Локалик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2007; Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2009; Ҳақимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019; Ҳақимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Фил.фанл.номз. ...дисс.автореферати Фарғона, 2004 ва бошқалар.

berilgan paradigmalarda to'liq va mukammal emas. Balki shartli nutqiy birliklardir. Paradigmatik (o'xshashlik) munosabatlar til ziddiyatlarida (oppozitsiyalarda) voqeyalashadi, "ko'rinadi", deb izohlaydilar<sup>1</sup>.

Ilmiy manbalarda paradigmani nutqning turli ko'rinishlarida ayni bir o'rinda qo'llanuvchi elementlar yig'indisi, degan qarash ham mavjud. Paradigma u yoki bu so'z turkumiga xos shakl yasash sistemasi; aynan bir so'zning shakllar sistemasi sifatida ham talqin qilinadi. Leksik paradigmalarda xususida so'z yuritilganda, ulardagi bir narsaga – o'xshashlikka urg'u berilsa ham, ammo paradigma atamasi ostidagi tushuncha xilma-xil izohlanadi.

Tilga oid tadqiqotlarda paradigma va maydon tushunchalarining umumiy jihatlari yoritiladi. Bunday ilmiy izlanishlar natijasida ikki xil yondashuv yuzaga keldi: semasiologik va onomasiologik. Birinchisi semasiologik yondashuv bo'lib, unda "shakldan – ma'noga" tamoyili asos bo'ladi. Ikkinchisi onomasiologik yondashuv bo'lib, bu yondashuvda esa aksincha "ma'nodan – shaklga" tamoyili ustuvorlik qiladi.

O'zbek tilshunosligiga paradigma va maydonning farqlari xususidagi qarash ilk marta professor T.Mirzaqulov tomonidan o'rtaga tashlandi, olim o'zining doktorlik dissertatsiyasida paradigmaning tilning ma'lum bir sathiga tegishli birliklar yig'indisi ekanligini, maydonda esa sathlararo chegaraga chek qo'yilishini alohida ko'rsatgan edi. Uningcha: "Maydon nuqtai nazaridan yondashilganda, u tilning bir necha sath hodisalarini tutashtirib, sathlararo farqqa chek qo'yadi, paradigma esa bir sath doirasida bo'lib, sathlararo chegarani saqlaydi"<sup>2</sup>.

Maydon lingvistik lug'atlarda shunday izohlanadi: "Ma'no (mazmun) umumiyligi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan leksik birliklar) yig'indisi maydon deb nomlanadi"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи. – 1995. 17-бет

<sup>2</sup> Мирзақулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси: Филол. фанл. док. ....дисс. автореф. Тошкент, 1994. 18-19-бет.

<sup>1</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. М.: СЭ, 1990. с. 380.

O‘zbek tilshunosligida til birliklarini onomasilogik nuqtai nazardan o‘rganish Sh.Iskandarova, A.Sobirov, G.Ne‘matova, H.Hojiyeva, N.Nishonova, F.Safarov, M.Hakimova, D.Voqqosova, B.Qurbonova, M.Ergashova, L.Elmuradova singari bir qator olimlar tomonidan kuzatildi<sup>1</sup>.

Professor Sh.Iskandarova shaxs nomlarini ifodalovchi birliklar misolida o‘zbek tilshunosligida mazmuniy maydon nazariyasini monografik asosda tadqiq etdi<sup>2</sup>. Uning qayd etishicha, “Maydon tushunchasining talqini hamda unga xos xususiyatlarga ayrim holda yondashuv maydon nazariyasini tadqiq etishning turlicha muammolarini vujudga keltirdi. Bunda maydon chegaralarining aniqligi, maydonning avtonomligi, butunligi, uzluksizligi jihatidan til birligi sifatida qaralgani holda yoki maydon mustaqilligining nisbiyligi, maydonlar o‘zaro munosabatining keng xarakterga egaligi bo‘yicha til birliklaridan farqlanuvchi tomonlari asosidagi muammolar; maydonlar tuzilishi (maydonda ochiq - bo‘sh o‘rinning bo‘lmasligi) muammolari muammolari o‘rtaga tashlandi”<sup>3</sup>.

Professor A.Sobirov o‘zining “O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish” nomli doktorlik dissertasiyasida paradigma hamda maydon tushunchalarini farqlab, leksemalarning o‘zida qanday g‘oya tashiyotganiga qarab

---

<sup>1</sup> Iskandarova Sh. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайdonи): Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тошкент: Маънавият. - 2004; Вокқосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. Фарғона, 2005; Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англаувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Неъматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Нишонова Н.Р. Ўзбек тилида “хайвон” архисемали семемалар майдонининг мазмуний тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. –Тошкент. 2000; Норбаева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Пазлиддинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Фарғона, 2018; Уракова З.С. Маскан отларининг луғавий-маъновий гуруҳи ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Элмурадова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майdonи (белги даражаси микромайdonи): Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011; Эргашова М.В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011; Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Қурбонова Б.Қ. Локаллик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2007; Ҳақимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Фил.фанл.номз. ...дисс.автореферати Фарғона, 2004 ва бошқалар.

<sup>2</sup> Iskandarova Sh. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайdonи): Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

<sup>3</sup> Iskandarova Sh. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайdonи): Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 12-бет.

alohida semantik maydonlarni hosil qilishini ta'kidlaydi<sup>1</sup> va semantik maydon hosil qilishda so'z tashiyotgan g'oyaga urg'u beradi.

Shuningdek, muallif o'z tadqiqotida so'zning fizik, semantik, tarixiy, geografik xususiyatlarini ham nazardan qochirmaydi va bular leksik sathni sistema sifatida tadqiq qilish uchun e'tiborda qolishi zarur bo'lgan xususiyatlar ekanini ta'kidlaydi. Muallif ana shu nazariy qarashga asoslanib, *soch, peshona, quloq, qosh, ko'z, kiprik, burun, yonoq, ensa* so'zlari bosh; *til, tish, milk, lakluk, tanglay* so'zlari og'iz; *ichak, buyrak, yo'g'onichak, jigar* so'zlari qorin; *tirnoq, panja, bilak, tirsak, barmoq* so'zlari qo'l so'zi bilan bog'liq paradigmatic qatorlarni hosil qilgan holda o'zaro birikib turib tana semantik maydoniga birlashadi deya izohlar ekan, maydon tushunchasining paradigmadan farq qilishi, ya'ni maydon paradigmaga nisbatan kengroq tushuncha anglatishini ko'rsatib o'tadi. Olim maydon tushunchasini to'la va aniq belgilash uchun so'zning denotativ, signifikativ ma'nolarini ham nazardan qochirmaslik zarurligini ta'kidlaydi.

A.Sobirov leksik-semantik maydon haqida fikr yuritgan boshqa tilshunoslardan farqli ravishda tilning rivojlanish jarayonida ikkita semantik maydonning o'rtasida turuvchi, har ikki maydonga ham xos bo'lgan belgilarga ega, biroq ularning hych qaysisiga kirmaydigan "oraliq uchinchi"ni qayd etadi va bunday maydonni medio (oraliq) maydon deb qaraydi<sup>2</sup>.

Yuqorida maydonga berilgan ta'rifdan ko'rinadiki, birliklar maydonga faqat ma'no umumiyliklari bilan emas, balki vazifaviy (funktional) umumiyliklar bilan ham birlashishi mumkin. Shuning uchun lisoniy adabiyotlarda maydonning turli ko'rinishlari haqida so'z yuritiladi. O'zbek tilshunosligida maydonning ayrim turlari bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Собиров А. Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. - 11-бет.

<sup>2</sup> Собиров А. Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 21-бет

<sup>3</sup> Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар// Ўзбек тили ва адабиёти, 1998. -4-сон, 62-66-бет; Мирзакулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари. Филол. фан. докт. ...диссер. автореф. Тошкент, 1994; Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида «хайвон» архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили: Филол. фанл.номз. ...дисс. автореф. Тошкент, 2000; Ҳожиёва Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол.фан. номз... дисс.

M.Hakimova o'zining vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlariga bag'ishlangan nomzodlik ishida vaqt ma'noli paradigmalarni leksik-semantik guruh sifatida talqin qiladi va bunday leksik-semantik guruhlarining qo'llanilishini aniqlaydi. Ularning elementlari orasidagi mavjud bo'lgan sinonimik, antonimik, giperonimik, paronimik, iyerarxik, graduonimik, ma'noning torayishi va kengayishi kabi hodisalarni izohlaydi<sup>1</sup>.

Olima o'zining doktorlik dissertasiyasida leksik sathda abstraksiyalashish jarayonlari, abstrakt nomlarning semantik strukturasi, ma'noviy tarkibini ochib berish, ularning ma'no taraqqiyotini asoslashga doir maqsadni qo'yadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotda abstrakt nomlarni konkret nomlardan farqlash, abstrakt nomlarning semantik strukturadagi o'ziga xosliklarini aniqlash, ularning leksik-semantik guruhlarini o'rganish, ularning ma'noviy tasnifi bilan bog'liq jihatlarini tahlil etish vazifalarini ham qo'yadi<sup>2</sup>.

Muallif doktorlik dissertasiyasining uchinchi bobida abstrakt nomlarning semantik tasnifiga to'xtalar ekan, turli so'z turkumlariga xos umumlashtiruvchi va ayiruvchi abstraksiyani ochib beradi, bunda olimo ot va sifatlarni abstrakt nom sifatida tadqiq etadi. Jumladan, uning talqinicha: "Belgi ifodalovchi abstrakt so'zlar ikkita katta guruhni tashkil qiladi: abstrakt belgini sof holda ifodalovchi va abstrakt belgini substansiya sifatida ifodalovchi nomlar"<sup>3</sup>.

Mazkur dissertasiyada belgi ma'noli, holat ma'noli, harakat ma'noli abstrakt so'zlar muayyan mezonlar asosida batafsil tahlil etiladi, ularning mantiqiy asoslari belgilab beriladi.

D.Voqqosovaning ilmiy tadqiqoti anemonimlarning onomasiologik tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, bu ishda muallif anemonimlarning umumiy hamda

---

автореф. -Самарканд, 2001; Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-микдор микромайдони ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Филол. фанл. номз... дисс. автореф. -Самарканд, 2004; Воккосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. Фарғона, 2005 ва бошқ

<sup>1</sup> Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Фил.фанл.номз. ...дисс.автореферати Фарғона, 2004. – 8-бет.

<sup>2</sup> Ҳакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019 – 8-бет.

<sup>3</sup> Ҳакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019. – 21-бет.

xususiyl semalarini namoyon bo'lishini tadqiq qiladi va ularni muayyan belgilar asosida ma'lum bir semasi bilan bir guruhga tegishli bo'lsa, boshqa bir semasi bilan o'zga guruhga taalluqli bo'lishi mumkinligini asoslaydi hamda o'zbek tili leksik sistemasi tarkibiga kirgan anemonimlarni harakat usuliga ko'ra ajratish maqsadga muvofiq degan xulosaga keladi. Muallif anemonimlar haqida fikr yuritib, ma'lum bir sema asosida birlashgan leksemalar paradigma bo'lishini qayd etib o'tadi.

Bu tadqiqotda paradigma va maydon tushunchalari tenglashtiriladi. Til birliklarining muayyan belgilarini chuqur asoslash uchun lingvistik tahlil usullari "yordamida leksik birliklarni ma'lum bir leksik-semantik paradigma a'zolari sifatidagi o'rni va shakllanish xususiyatlarini belgilash kerak. Bunday tadqiqot usullaridan biri maydon usuli hisoblanadi"<sup>1</sup>.

F.Safarov esa "Tilshunoslikda maydon atamasi umumiy (invariant) ma'no asosida birlashib, o'zaro munosabatga kirishadigan lisoniy va nolisoniy vositalar sistemasiga nisbatan ishlatiladi"<sup>2</sup>, deb qayd etadi.

L.Elmuradova o'zining tadqiqotida "daraja funksional-semantik maydoni tarkibini aniqlash, daraja tushunchasini ilmiy asosda yoritish" maqsadini qo'yadi<sup>3</sup>.

Paradigma va maydon gomogenlik va geterogenlik belgisi asosida farqlanadi. *Geterogenlik* so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, *heteros* – boshqa, o'zga ma'nolarini anglatadi.<sup>4</sup>

*Geterogen* atamasi O.S.Axmanovanning "Lingvistik terminlar lug'ati"da turli jinsga (rodga) mansublik<sup>5</sup> sifatida izohlanadi.

B.Qurbonova lokallik va uning o'zbek tilida ifodalanishi borasida fikr yuritib, maydonning geterogenlik belgisi asosida farqlanishini ko'rsatib o'tadi.

---

<sup>1</sup> Воккосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. Фарғона, 2005. – 6-бет

<sup>2</sup> Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-микдор микромайdonи ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Самарқанд, 2004. – 6-бет.

<sup>3</sup> Элмурадова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майdonи (белги даражаси микромайdonи): Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011. – 6-бет.

<sup>4</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. М.: СЭ, 1990.- С.103.

<sup>5</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966.- С.97.

Olima shunday yozadi: “Lokallik maydoni tarkibiga kirgan lingvistik tushunchalar geterogenlik xususiyatiga ega, chunki lokallik tilning turli sathida ifodalanadi”<sup>1</sup>.

M.Ergashova esa o‘z tadqiqotida lokallikning yuqori sathlar orqali namoyon bo‘lishi, lokalizasiya to‘g‘risida batafsil fikr yuritadi<sup>2</sup>.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, onomasiologik yo‘nalishdagi qator tadqiqotlarda leksikaning obyektiv olam sistemasiga bo‘lgan munosabatini o‘rganishga qiziqish ortgan. O‘zbek tili leksik makrosistemasining bir qismi bo‘lgan generonimlarning semantik tadqiqi masalasi ham bugunning muhim muammolaridan biri sifatida tadqiqot obyekti qilib olinishi mumkin.

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi generonimlarni muayyan sistema sifatida tadqiq qilish, guruh doirasiga kirgan lug‘aviy birliklarning o‘zaro zidlanish asoslarini ochib berishda ularning sintagmatik munosabatlari va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish juda katta ahamiyat kasb etadi.

Professor M.Hakimov lingvistik pragmatika xususida quyidagilarni qayd etadi: “Tildan foydalanuvchi har bir shaxsning nutqida fonetik sathdan to sintaktik sathga qadar til va nutq birliklarining qo‘llanishida ularning o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘ladi.

So‘zlovchi nutqiga oid ifodaning qaysidir elementlarida uslubiy belgi va ma’lum vositalar muallifning ichki ruhiy olami yoki sosial mavqye ko‘rinishlari haqida ma’lumot berish uchun xizmat qiladi. Bularning barchasini birlashtiruvchi aspekt lingvistik pragmatika hisoblanadi”<sup>3</sup>.

O‘zbek tilshunosligida muayyan ma’no guruhini tashkil etgan generonimlar alohida tarzda monografik o‘rganilmagan. Faqat ayrim tadqiqotlarda jins tushunchasining ifodalanishiga doir qarashlar yoritilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Курбонова Б.К. Локаллик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2007. – Б.6.

<sup>2</sup> Эргашова М.В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011.

<sup>3</sup> Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент: Akadempnashr, 2013. – 60-61-бет.

<sup>4</sup> Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент. – 2019.

Xususan, F.Musayevaning falsafa doktori dissertasiyasi tilda jins tushunchasining ifodalanishi tarixini, o‘zbek tilida biologik jins tushunchasini ifodalashning lisoniy usullarini aniqlash, biologik jins ma’nosi ifodalangan so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan<sup>1</sup>.

Professor S.Muhamedova doktorlik dissertasiyasida o‘zbek tilidagi harakat fe’llarining semantik va valentlik xususiyatlari to‘g‘risida batafsil to‘xtaladi. Ushbu dissertasiyaning ikkinchi bobida “obyektni yaratish” semali harakat fe’llari sifatida *to‘qimoq, yasamoq, tiklamoq, rostlamoq, qurmoq, solmoq* singari fe’llarni keltiradi<sup>2</sup>.

Bizning tadqiqot ishimiz esa tirik mavjudotlarga xos bo‘lgan generonimlar tadqiqiga bag‘ishlangan.

Professor Sh.Safarovning “Semantika” asarida generativ semantika xususida so‘z yuritilar ekan, “Olim (N.Xomskiy – I.X.) taklif qilayotgan sintaktik tahlilning asosida har qanday murakkab tuzilishdagi gapni bir necha sodda (“yadroviy”) gaplarga ajratish mumkinligini isbotlash maqsad-g‘oyasi turadi. Natijada grammatikaning sintakisga oid qatlami ikki qismdan tarkib topishi taxmin qilinadi. Generativ, yaratuvchi nomini olgan birinchi qismi yadroviy, o‘zak tuzilmalarni yaratuvchi yoki hosil qiluvchi qoidalar tiztimidan iborat bo‘lsa, transformasiyalar grammatikasi deb atalgan ikkinchi qismda to‘planadigan qoidalarning vazifasi – kichik miqdordagi “o‘zak” gaplardan cheklanmagan miqdordagi turli tuzilishdagi (sodda va murakkab) gaplarni hosil qilishdir”<sup>3</sup>. Olim N.Xomskiyning fikrlarini tahlil qilar ekan, generativ tilshunoslikning asosiy g‘oyasi – yaratuvchanlik imkoniyati tilda tabiatan mavjudligini nazariy jihatdan dalillash ekanini ta’kidlaydi<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. дисс.автореф. Тошкент. – 2019. – 7-бет.

<sup>2</sup> Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фанл. докт.... дисс.автореф. Тошкент, 2007. – 22-бет.

<sup>3</sup> Сафаров Ш. Семантика. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2013. – Б.191-192.

<sup>4</sup> Сафаров Ш. Семантика. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2013. – Б.193.

Ma'lumki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *gen*, *genetik*, *genetika* so'zlarining izohida ularning ma'nosi umumiy tarzda tug'ilish, paydo bo'lish, kelib chiqish, irsiyat, tirik mavjudotlarga xoslik belgisi orqali beriladi<sup>1</sup>.

Zoologiyada *generasiya* termini hasharotlarning tuxumdan chiqib, tuxum qo'ya boshlaguncha rivojlanish davri deyiladi<sup>2</sup>.

Manbalarda generasiyaning davomiylik bo'lib, tug'ilish ma'nosini anglatishi, *generasiya* atamasining nasl, avlod, bo'g'in; tug'ilish, yuzaga kelish, paydo bo'lish; yuzaga keltirish ma'nolarini ifodalashi ko'rsatib o'tiladi.

Professor Sh.Rahmatullayev *urchi* so'zining etimologiyasiga to'xtalar ekan, *urchi* "ko'p nasl ber", "hosila ber" ma'nosini anglatgan **ur** fe'liga "takror" ma'nosini ifodalovchi **-chi** qo'shimchasini qo'shib hosil qilinganligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

Har qanday tug'ilish (yaralish) ma'lum taraqqiyot, o'sib-ulg'ayish, kamolot bosqichlariga ega bo'ladi hamda generasiyaning oxiri nekronim(o'lim) bilan yakunlanadi. O'lim jarayoni, ya'ni yaralish va davomiylikning oxiri *nekronim* deb yuritiladi.

Demak, "yaralish", "dunyoga kelish", "davomiylik" semalari asosida birlashgan so'zlar – ***generonimlar*** alohida bir paradigmatic qatorni tashkil etadi. *Tug'ilmoq, yaralmoq, qo'zilmoq, unmoq, bo'shanmoq* leksemalari *dunyoga kelmoq, yuzaga kelmoq, paydo bo'lmoq, vujudga kelmoq* kabi frazeologik birliklar "yaralish" semasi asosida bir paradigmatic qatorni tashkil etadi. *O'lmoq, o'chmoq, o'tmoq, uzilmoq, qurimoq, qulamoq* kabi leksik birliklar *qazo qilmoq, nobud bo'lmoq, halok bo'lmoq, uzlatga ketmoq, oyoq uzatmoq, ko'z yummoq, ado bo'lmoq, chin dunyoga ketmoq, olamdan o'tmoq* kabi frazeologik birliklar "tugash" (yo'q bo'lish) semasi asosida bir paradigmatic qator bir maydonga birlashadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 1-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 492-493-бет.

<sup>2</sup> Mavlonov O., Toshmanov N., Sanayeva L. Zoologiya. Toshkent: Voris-nashriyot, 2013. – 135-bet.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент: Университет. – 2000. – 392-бет.

Bir maydonga birlashgan birliklar “yaralish” va “yo‘q bo‘lish” arxisemalari asosida o‘zaro zidlanadi. Shunga ko‘ra, biz tadqiqotda “yaralish” semali birliklar va ular bilan doimiy zidlanishda bo‘lgan nekronimlarni uzviy aloqadorlikda tahlil etishni ko‘zda tutamiz.

«Yaralish» semasi asosida dunyoga kelish, yaralish belgilari mavjud bo‘lgan so‘zlar muayyan paradigmaga birlashadi: *tug‘moq*, *bolalamoq*, *qo‘zilamoq*, *qulunlamoq*, *tuxum qilmoq* kabi. Ayni vaqtda, bu leksemalar o‘ziga xos belgilari bilan farqlanadi. Chunki «...uyadoshlik (paradigmatik) munosabatida bo‘lgan lisoniy birliklar muayyan birlashtiruvchi semaga ega bo‘lishi bilan birga, o‘zaro farqlovchi semaga ham ega bo‘ladi. Ana shu farqlovchi semalar uya a‘zolarining o‘zaro zidlanishi uchun asos bo‘ladi»<sup>1</sup>.

«Yaralish» semasi asosida birlashgan leksemalarni «dunyoga kelish», «yaralish» kabi bir umumiy ma‘no birlashtirsa, ularni har biriga xos bo‘lgan xususiy ma‘no farqlaydi. Biroq muayyan paradigmatic qatordagi paradigma a‘zolaridan biri o‘zida umumiy ma‘noni ifodalashiga ko‘ra paradigma a‘zolarini birlashtirib turadi. Masalan:

*Men Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida 1920 yilning 10 iyun kuni tug‘ilganman* (S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim).

Ma‘lumki, *tug‘moq*, *tug‘ilmoq* leksik birliklari “yaralish”, “ko‘payish”, “boshlanish”, “vujudga kelish” umumiy semalari bilan birga, o‘zaro differensial semalari bilan farqlanadi. *Tug‘moq* leksemasi tarkibidagi “behalovatlik”, “kutish”, “sabsizlik” semalari *tug‘ilmoq* leksemasida kuzatilmaydi.

*Birga borgan Mastura hovlidagi akasiya daraxti ostida o‘tirib tug‘adigan xotindek kuta boshladi* (Sh.Xolmirzayev, Bahor o‘tdi). Bu gapda ishtirok etgan *tug‘adigan xotindek* birikmasida *tug‘moq* leksemasining “behalovatlik”, “kutish”, “sabsizlik” semalari namoyon bo‘lmoqda.

“Yaralish” semali leksemalar nutqda dunyoga kelish, yaralish ma‘nosidan tashqari paydo bo‘lmoq ma‘nosida ham qo‘llaniladi:

---

<sup>1</sup> Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология, Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 13-бет.

*U halqa orasida ekanini bilardi, shunday bo'lsa-da, qochish imkoni tug'ilishi yoki o'qlar yomg'iridan qutulish chorasi izlanishi mumkinligini ham hisobdan chiqarmagandi* (T.Malik, Shaytanat).

Bizga ma'lumki, ma'no xususiyatiga ko'ra semema tarkibidagi semalar uch xil bo'ladi:

1. Atash semalari (denotativ semalar).
2. Ifoda tasvir, qo'shimcha ma'no semalari (konnotativ semalar).
3. Vazifa semalari (funktional semalar) <sup>1</sup>.

«Yaralish» arxisemali leksemalarning denotativ semasi «tug'ilish», «dunyoga kelish» bo'lib, denotativ ma'no asosida ular bir uyaga birlashadi.

Ifoda semasi deganda turli qo'shimcha ma'nolar (uslubiy bo'yoqni, shaxsiy munosabatni, qo'llanish doirasini) anglatuvchi semalar tushuniladi<sup>2</sup>.

“Yaralish” arxisemali leksemalar asosan qo'llanish doirasi va shaxsiy munosabatni ifodalashiga ko'ra darajali ziddiyatga ega bo'ladi: *tug'moq – bolalamoq – qo'zilamoq – qulunlamoq – tuxum qilmoq*. Bu leksemalarning umumiy semasi “ko'payish” sanaladi.

*Islom tabiatning turli-tuman mavzularida maqolalar yozar edi, bir tup archaning yonbag'irda turishi, quyoning bolalashi haqidami, burgutning kaklik ovlashi haqidami yoki tog' ayiqlarining xulq-atvori haqidami, xullas, har xil mavzularda yozar edi* (Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam).

Ba'zan bu leksemalar o'rnida *ko'paymoq* leksemasining o'zi ham ishlatilishini kuzatish mumkin. Masalan:

*Men u yoqdaligimda ... baraka topgur qo'shnilarim mol-holga qarab, ancha ko'paytirib qo'yishibdi* (T.Malik, Shaytanat).

Shuni ta'kidlash zarurki, o'zbek tilidagi “yaralish” semasiga ega bo'lgan generonimlar “jonli” semali inson, hayvon, qush, hasharot nomlarini ifodalovchi birliklar bilan birga, “o'simlik” semali birliklarga nisbatan ham faol qo'llaniladi:

---

<sup>1</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи. – 1995. - 58-бет

<sup>2</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи. – 1995. - 60-бет

*nish urmoq, ko'karmoq, gullamoq, uch bermoq, kurtak chiqarmoq, bo'rtmoq, tugmoq* (meva) kabi. Masalan, *nish urmoq* birikmasi orqali:

*Ko'katlar nish urgan, yomg'ir arnalardan oqar, yerga singib ketar edi* (Sh.Xolmirzayev, Sirli milisioner).

Ushbu gapda qo'llanilgan *nish urgan* generonimi ma'nolari tarkibida "yaralish", "o'simlik", "boshlanish" semalari bilan namoyon bo'lmoqda.

*Ko'karmoq* leksemasi orqali:

*Chigit namsiz betda qoladi. Hadeganda ko'kara bermaydi, ko'karsa-da – yoppa baraka ko'karmaydi* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

*Ko'karmoq* leksemasi tarkibidagi "yaralish", "o'simlik", "boshlanish" semalari hamda "yashnamoq" semalari yuzaga chiqmoqda.

*Gullamoq* leksemasi orqali:

*Marg'ubalarning eshigi oldidagi jiyda hali gullagani yo'qmi* (S.Ahmad, Yo'qotganlarim va topganlarim).

*Kurtak chiqarmoq* birikmasi orqali:

*Bahor osmoni tiniq. Tollar kurtak chiqargan* (Sh.Xolmirzayev, Bahor).

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *bo'rtmoq* leksemasining quyidagi ma'nolari beriladi:

*Amal olmoq, ko'kara boshlamoq, unmoq.*

*Ko'tarilib chiqmoq, turtib chiqib turmoq.*

*Qizarib shishinqiramoq, andak shishmoq<sup>1</sup>.*

Ko'rinadiki, *bo'rtmoq* leksemasining ham dastlabki ma'nosi aynan tahlil etilayotgan paradigma bilan bog'liq holda bo'lib, unda "yaralish", "boshlanish", "ko'karish", "turtib chiqish" semalari mavjud bo'lib, keyingi ma'nolar leksema tarkibidagi "turtib chiqish" semasi asosida shakllangan polisemik xususiyatni namoyon qiladi.

Mazkur leksemalar paradigmatic qatorda neytral holatda bo'ladi. Vazifa semasiga ko'ra "yaralish" arxisemali leksemalar gapda turli pozitsiyada kelishi

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2006. – 419-бет.

bilan belgilanadi. “Yaralish” arxisemali leksemalar ma’no umumiylikiga ko‘ra paradigmatic qatorni tashkil etadi.

M.Hakimov lingvistik pragmatikaning semantikadan farqli xususiyatlari haqida “Ifoda tarkibidagi propozitsiyalar so‘zlovchining subyektiv munosabati bilan bog‘lanmasa, bu propozitsiya semantikaning obyekti hisoblanadi, so‘zlovchining subyektiv munosabatini aks ettiruvchi propozitsiya lingvistik pragmatikaning obyekti sanaladi”, deb ta’kidlab o‘tadi<sup>1</sup>.

«Faoliyatining tugashi» semasi asosida birlashgan *o‘lim, vafot, qazo* leksemalarini «yo‘q bo‘lish» semasi bir umumiy ma’no ostida birlashtirsa, ularning har biriga xos bo‘lgan xususiy ma’noni farqlaydi. Biroq muayyan paradigmatic qatordagi paradigma a’zolaridan biri o‘zida umumiy ma’noni ifodalashiga ko‘ra paradigma a’zolarini birlashtirib turadi. Bu leksemalarga xos bo‘lgan umumiy ma’no «faoliyatining tugashi»dir. Ana shu ma’no asosida bu leksemalar umumiylik hosil qilib, bir paradigmatic qatorni tashkil etadi. Ammo ular o‘zaro qator belgilariga ko‘ra farqlanadi. Paradigmatic qatordagi *vafot, qazo, nobud, qurbon, halok* kabi so‘zlar to‘liqsiz fe‘l yoki ko‘makchi fe‘l bilan birga qo‘llanib turlicha ma’noni ifodalaydi: *vafot etmoq, qazo qilmoq, nobud bo‘lmoq, halok bo‘lmoq* kabi. *O‘lmoq, qulamoq, uzilmoq* leksemalari alohida tarzda qo‘llanish xususiyatiga ega.

*Qazo qilmoq* oddiy so‘zlashuvda, asosan, katta yoshdagi kishilarga nisbatan va vafot etish vaqtlarida, uni boshqalarga xabar qilishda qo‘llanadi. *Nobud bo‘lmoq* oddiy so‘zlashuvda, asosan, go‘daklarga nisbatan qo‘llanadi. *Qurbon bo‘lmoq, halok bo‘lmoq* jang, kurash va shu kabi hodisalardagi o‘limni ifodalaydi. *Qulamoq* oddiy nutqda qo‘llanadi, salbiy bo‘yoqqa ega.

«Tug‘ilmoq» va «o‘lmoq» arxisemali paradigmatic qatorga oid leksemalar quyidagicha o‘zaro zidlanadi:

---

<sup>1</sup> Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент: Akademnashr, 2013. – 62-бет.

	yaralish	jonli	davomli	Yo‘q bo‘lish	faoliyati to‘xtash	jonsiz
tug‘ilish	+	+	+	–	–	–
o‘lim	–	–	–	+	+	+

Umuman olganda, bir paradigmatic qatorga xos semalar leksemalarni umumlashtirsa, ayni shu semalar ikkinchi paradigmatic qatordagi leksemalardan farqlaydi. “Tug‘ilish” semali leksemalar yaralish, jonli, davom etuvchi ma’nolariga ega bo‘lsa, «o‘lim» semasiga ega paradigmatic qatorda bunday semalar mavjud bo‘lmaydi. Ularni tugash, yo‘q bo‘lish, oxiriga yetish, jonsiz semalari umumlashtiradi.

Mazkur leksemalar paradigmatic qatorda neytral holatda bo‘ladi. Vazifa semasiga ko‘ra “yaralish” arxisemali leksemalar gapda turli pozitsiyada kelishi bilan belgilanadi. “Yaralish” arxisemali leksemalar ma’no umumiylikiga ko‘ra paradigmatic qatorni tashkil etadi.

“Yaralish” semali birliklar hayot umumiy belgisi ostida birlashganda, o‘zaro darajalanish munosabatiga ham kirishadi. O‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklarning darajalanishiga doir O.Bozorov, J.Djumabayeva, Sh.Orifjonova, L.Xudoyberdiyeva, G‘.Rahmonov kabilarning monografik ishlari mavjud<sup>1</sup>.

O.Bozorov o‘zbek tilidagi lisoniy birliklarning darajalanishi haqidagi tadqiqotlarida<sup>2</sup>, jumladan, harakat sur‘atining oshib borishi bilan graduonimik munosabat belgilanishini ta’kidlaydi. Olimning qayd etishicha, ma’lum qator birliklari: «chapdan o‘ngga borilgan sari dastlabki graduonim bilan keyingi izchil a’zolar orasidagi o‘xshashlik (sinonimlik) kamayib, farqlilik (antonimlik) tadrijiy

<sup>1</sup>Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. Тошкент, 1997; Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. Тошкент, 2016; Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 1996; Худойбердиева Л.С. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 2003; Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс. автореф. - Фарғона, 2019 ва бошқалар.

<sup>2</sup> Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент: Фан, 1995.

ravishda oshib bormoqda va eng so‘nggisi bilan keskin zidlik (kuchli antonimiya) vujudga keladi»<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, graduonimiya hodisasining qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan J.Djumabayevaning “O‘zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiya” mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida graduonimiyaning turli tizimli tillarda semantik xususiyatlarini ochib berish va o‘zbek, ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiyaning semantik kategoriyalar doirasidagi o‘rnini aniqlash maqsadi qo‘yiladi. Bu ishda graduonimiya semantik munosabatlarning bir turi sifatida keltiriladi, shuningdek, graduonimiyaning semantik kategoriyalar bilan munosabati ochiladi, gradasiyaning leksik graduonimiyadan affiksasiya, yordamchi so‘zlar orqali yasalishi va intensifikatorlar qo‘shilishi kabi struktur hamda lug‘aviy va kontekstual kabi semantik xususiyatlari bilan farqlanishi isbotlanadi<sup>2</sup>.

Mazkur monografik ish o‘zbek va ingliz tili leksik stilistikasini nazariy materiallar bilan boyitish bilan birga, stilistik graduonimiyani til korpuslariga kiritish bilan aloqador bo‘lgan katta amaliy ahamiyatga ham egadir.

Professor A.Sobirovning qayd etishicha: “Moddiy borliqdagi narsa va hodisalar uzluksiz xatti-harakatda bo‘ladi. Ular tashqi va ichki kuchlar ta’sirida muttasil ravishda o‘z shakl-shamoyilini o‘zgartirib turadi. Natijada olam qonuniyatlari asosida bitta maydonda bir narsaning turli-tuman shakllari paydo bo‘ladi. Aynan mana shu narsa avval real borliqda, so‘ngra tilda narsalarning bir-biriga nisbatan gradual (darajalanish) holatida turishini ta’minlaydi”<sup>3</sup>.

Olimning ta’kidlashicha: “Semantik maydonlardagi leksik darajalanish (graduonimiya) bir necha ko‘rinishlarda amalga oshadi. Boshqacharoq qilib

---

<sup>1</sup> Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. Тошкент, 1997. 24-бет.

<sup>2</sup> Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. Тошкент, 2016. – 9-бет

<sup>3</sup> Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 31-бет.

aytadigan bo‘lsak, u maydon iyerarxiyasining o‘zagini, qolipini tashkil qilishda asosiy vosita vazifasini o‘taydi”<sup>1</sup>.

Generonimlar ham o‘zaro darajalanish munosabatida bo‘ladi. Jumladan, generonimlar bilan o‘zaro mantiqiy bog‘lanuvchi leksemalar ham o‘zaro darajalanish qatorini tashkil etishi mumkin: *chaqaloq, go‘dak, bola, o‘smir, o‘spirin, yigit, erkak, chol* kabi.

Buyuk so‘z zargari E.Vohidov “So‘z latofati” to‘plamida shunday yozadi: “Tosh maydalab **chaqa** degan inson uchun hamma mayda narsalar **chaqa** bo‘ldi. Pul maydalab: **chaqa** dedi. Mayda bolasini **bola-chaqa** dedi. Eng maydasi **chaqaloq** bo‘ldi”<sup>2</sup>.

Ushbu leksemalar o‘rtasidagi darajalanish munosabati she’riy matnda o‘ziga xos uzviy bog‘liklik kasb etadi:

*Bir yorug‘ lahzada tug‘ilar odam.*

*Hazil-hazil bilan o‘tar Bolalik,*

*Hazil-hazil bilan o‘tar Yoshlik ham,*

*Hazil-hazil bilan kelar Keksalik (B.Iso, Hazil-hazil bilan)*

Yuqorida ta’kidlanganidek, generasiya davomiylik bo‘lib tug‘ilish ma’nosini ifodalaydi. Har qanday boshlanishning oxiri bo‘lishi dialektikaning oliy qonunidir. “Yaralish” va “o‘lim” semali leksemalar generasiya termini ostida birlashadi.

O‘zbek tilidagi “yaralish” semali paradigmaga *doya, akusherka, akusher-ginekolog, akusherlik, doyalik* (kasbi) kabi sohaviy leksik birliklar ham mansub. Bu birliklar nutqimizda deyarli teng qo‘llaniladi.

“Yaralish” semali so‘zlar qatorida *tug‘moq* leksemasi ana shunday ma’no umumiyligiga egaligi bilan boshqa paradigma a’zolarini birlashtiradi. Generonimlar bir arxisema asosida birlashsa ham, ular ma’lum semalari hamda nutqda qo‘llanish va uslubiy xoslanishiga ko‘ra zidlanadi.

---

<sup>1</sup> Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 32-бет.

<sup>2</sup> Вохидов Э. Сўз латофати. Тошкент: Ўзбекистон, 2018.- 18-бет.

## 1.2. O‘zbek tilidagi generonimlarning invariant-variant munosabatlari

Ma’lumki, har qanday umumiylik xususiyliklar orqali namoyon bo‘lganidek, har qanday invariant variantlar orqali moddiylashadi<sup>1</sup>. Invariant umumiy mohiyat bo‘lganligi uchun u ijtimoiylik belgisini saqlaydi. Ayni vaqtda u variantlar orqali moddiylashadi. Shuning uchun invariant ijtimoiy-ruhiy til egalarining hammasi uchun umumiy-majburiy bo‘lgan mohiyat imkoniyatdir. U bevosita yaratish bosqichida, nutq jarayonida variantlar orqali namoyon bo‘ladi<sup>2</sup>. Biroq invariantning reallashuvi bevosita nutqda qo‘llanishi ularning integral belgilar asosida birlashuvini ko‘rsatmaydi. Chunki har qanday variant integral va differensial belgilarga ega bo‘lib, bu belgilar ularning variant sifatida tilda yashashini belgilaydi. Invariant til birliklariga xosligi bilan umumiydir, variant – nutq birliklariga xosligi bilan xususiy-individuallik belgisiga ega bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, denotat subyektdan tashqarida bo‘lib, u moddiy yoki nomoddiy obyektiv borliq hisoblanadi. Signifikat esa subyekt, so‘zlovchi, uning maqsadi, tushunchasi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Subyekt ifoda maqsadidan kelib chiqib so‘z tanlaydi. Masalan:

*Asli bunday ayyom yoshlargadir mos,*

*Ular **ulg‘ayishdan** quvonmas nechun.*

*Keksa-chi, shukrona aytgaydir xolos,*

***O‘lmay** shu kunlarga yetgani uchun*

(A.Oripov, Tug‘ilgan kun)

Mazkur misolda **o‘lmoq** leksemasi yo‘q bo‘lmoq ma’nosini ifodalaydi, biroq bu o‘rinda **-ma** bo‘lishsizlik shakli, **-y** ravishdosh shakli bilan birga kelib, mavjudlik, tiriklik ma’nosini ifodalamoqda. Demak, so‘zning semantik strukturasi bevosida nafaqat ifodalovchi, ifoda, ifodalanmishdangina tashkil topmay, balki

<sup>1</sup> Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. - 27-б.

<sup>2</sup> Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. - 27-б.

ifodalovchining til sistemasidagi oʻrni, yaʼni leksik va morfologik sistemalarning oʻzaro munosabatdoshligiga ham bogʻliq boʻladi. Soʻzning semantik strukturasi sathlararo munosabatdoshlik mahsuli sifatida shakllanadi.

Soʻz shakl va grammatik shaklning oʻzaro munosabati soʻzning semantik strukturasi shakllantiradi: *oʻlmoq, oʻlgan, oʻldi, oʻlmay* kabi. *Oʻlmoq* leksemasida umumiy, bosh sema saqlanadi, lekin bu sema umumiy boʻlib, ifodalovchi, ifodalanmishga nisbatan ifoda umumiy – mavhum boʻladi. Biroq asosiy maʼno yoʻq boʻlish saqlanadi. *Oʻlgan, oʻldi* leksemalarida esa, aniq yoʻq boʻlganlik, tugallanganlik ifodalanadi. *Oʻlmay* leksemasida aksincha mavjudlik, yoʻq boʻlmaganlik ifodalanadi.

*Dunyoda shu taxlit yashaydi Odam*

*Goho magʻlub boʻlsa, gohida gʻolib.*

*Avlodlar izidan tashlar u qadam*

***Oʻtgan** ajdodlarni yodiga olib.*

(A.Oripov, Odam)

Keltirilgan misoldagi *oʻtmoq* leksemasining bosh maʼnosi umrning yoki maʼlum qismining shu feʼl bilan bogʻlangan soʻz anglatgan ish, holat bilan kechishini bildirsa<sup>1</sup>, kontekstda oʻlmoq, yoʻq boʻlmoq maʼnosida kelgan. Maʼnoni yuzaga kelishida *-gan* shakli (oʻtgan zamon sifatdosh shakli) oʻziga xos oʻrin tutib, yoʻq boʻlish maʼnosini qatʼiylashtirmoqda.

Bu oʻrinda *oʻtgan* leksemasi, garchi oʻlgan maʼnosida qoʻllangan boʻlsa ham, bu ikki leksemaning oʻrnini almashtirib boʻlmaydi. Chunki *oʻlmoq (oʻlgan)* leksemasida yoʻq boʻlish, unutilish maʼno tovlanishi kuchli boʻlsa, oʻtgan leksemasida, garchi yoʻq boʻlish maʼnosi saqlangan boʻlsa ham, unutilish maʼnosi ifodalanmaydi. Shuningdek, bu oʻrinda *oʻtmoq* falsafiy maʼno ifodalab, hamma ham maʼlum bir masofani (hayot yoʻlini) bosib oʻtadi degan pressupozisiyani yuzaga chiqaradi.

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008, 182-бет.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ifodalovchi leksik sistema birligi sifatida boshqa sistemalar bilan munosabatga kirishmaganda, so'zning semantik strukturasi o'zgarish kuzatilmaydi, ifodada umumiy ma'no saqlanadi.

*Asli urf degani g'oyatda zo'r kuch,*

*Ohorin yo'qotmas donolar so'zi.*

*Odamzod hamisha yangilikka o'ch,*

*Axir yangilik-ku tug'ilmoq o'zi.*

(A.Oripov, Urf)

So'zning semantik strukturasi (ifodalovchi, ifoda, ifodalanmish) leksik sistemaning elementi sifatida belgilansa ham, u aniq olingan nutqda (kontekstda) tilning boshqa sistemalari bilan munosabatdoshlikda ifodalovchi, ifoda, ifodalanmishning o'zaro munosabatini yuzaga chiqaradi. Sistemalararo munosabatdoshlik so'zning semantik strukturasi o'zgartiradi. Bu o'zgarish ifodalovchida kuzatilsa, o'z navbatida ifodada (tushunchada) ham namoyon bo'ladi. Bu esa ifodalanmishda ma'no tovlanishini yuzaga keltiradi. Ana shu munosabat natijasi esa so'zning semantik strukturasi tashkil etadi.

Invariant-variant munosabati faqatgina umumiylik-xususiylik mohiyat-hodisa munosabatidagina iborat bo'lmay, ayni vaqtda til sistemasi–nutq sistemasi-ruhiy sistema munosabatdoshligini ham ko'rsatadi. Bu hodisa, ayniqsa, leksik sathda yaqqol ifodalanadi. Chunki til birligi sifatida leksema – jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarini o'ziga biriktira oladigan morfema turi bo'lib, u sistemalararo munosabatning yuzaga chiqishida tilning boshqa sath birliklariga nisbatan yetakchilik qiladi. Chunki u “shakl va mazmunning barqaror birikuvidan”<sup>1</sup> tashkil topganligi bilan sistema elementlari ichida alohida o'rin tutadi.

---

<sup>1</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 37-б.

Invariant mohiyat sifatida o'zida imkoniyatni aks ettiradi. Variant ana shu imkoniyatning reallashuvi bo'lib, mohiyatni o'zida to'la ifodalay olmaydi. Balki mohiyatning ma'lum bir qirrasini yuzaga chiqaradi. O'zbek tilshunosligida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabatiga D.Nabiyevaning monografik tadqiqoti mavjud<sup>1</sup>.

Ma'lumki, variantda invariantning qaysi belgisi ifodalanishini invariant belgilaydi. Shuningdek, variant ham bunday imkoniyatga ega emas, variant nutqda ruhiy sistema va boshqa ekstralingvistik faktorlar asosida reallashadi. Chunki ekstralingvistik omillar ma'lum darajada so'zlarning sinonimik qatorlari strukturasi, ko'proq mavzuiy qatorlari bilan bog'liq bo'ladi<sup>2</sup>.

O.Axmanovanning lug'atida invariant quyidagicha ta'riflanadi: "Invariant: til abstrakt sistemasining uning aniq yuzaga chiqishidan ajralgan tarzda bo'lgan elementi sifatidagi ema"<sup>3</sup>.

Invariantlilik xususiyati ma'lum narsani shunga o'xshash boshqa narsada ham mavjud bo'lgan umumiy xususiyatni kuzatadi. Variantlilik esa - invariant xususiyat bilan bir sinfga birlashgan predmetlardan faqat bittasi uchun xos bo'lgan xususiyatni namoyon qiladi.<sup>4</sup>

Leksik sathda invariant leksema bo'lib, leksemalar bevosita kuzatishda leksik-semantik variantlar - LSV holida namoyon bo'ladi. Har qaysi LSV leksemaning barcha shakli, ya'ni moddiy qiyofasini va semalarini emas, balki shakli va ma'nolardan bittasini gavdalantiradi<sup>5</sup>.

Invariant sifatida bu so'z va birikmalar ana shu ma'no asosida birlashadi. Biroq har bir so'z variant sifatida invariantga xos bo'lgan bir ma'no qirrasini ifodalaydi. Qolgan ma'nolar imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi. Masalan, bu

---

<sup>1</sup> Набиева Д.А. Ўзбек тилининг турли сатҳларида инвариант-вариантlilik муносабатининг ифодаланиши. Тошкент: Шарқ, 2004.

<sup>2</sup> Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. –Тошкент: Фан. 1998. - 27-28-б.

<sup>3</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966.- С.176.

<sup>4</sup> Нурмонов А. Лингвистик birliklarda умумийлик-хусусийлик, мохият-ходиса диалектикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1995.- 1-сон.- Б. 42.

<sup>5</sup> Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан. – 2007. – 36- бет

hodisaning nutqda reallashuvini tugʻilish ifodalovchi soʻzlar misolida kuzatish mumkin.

*Homilador* lugʻaviy birligining *boʻgʻoz*, *ikkiqat* singari variantlari mavjud boʻlib, bu holat “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da asoslanishiga koʻra, *homilador* soʻzining variantlari *ikkiqat*, *boʻgʻoz* leksemalari boʻlib, *homilador* adabiy tilga mansub, *ikkiqat* soʻzi soʻzlashuv tiliga, *boʻgʻoz* soʻzi ham odamga nisbatan ishlatilganda shu maʼnoni anglatishi qayd etiladi<sup>1</sup>.

Lugʻat tarkibida esa bu soʻzlarning izohi shunday beriladi:

**IKKIQAT** s.t. (soʻzlashuv tilida – I.X.) *Homilador*. *Ikkiqat* ayol<sup>2</sup>.

**HOMILADOR**. (homilasi bor). Qornida homilasi bor, *ikkiqat*<sup>3</sup>.

**BOʻGʻOZ**. Qornida bolasi bor (hayvonlar haqida). *Boʻgʻoz* sigir, *boʻgʻoz* sovliq<sup>4</sup>.

*Bu orada esa Masturaning homilador boʻlgani maʼlum boʻldi* (Sh.Xolmirzayev, Bahor oʻtdi).

Berilgan parchada *homilador* leksik birligi insonga nisbatan oʻz maʼnosida qoʻllanilgan boʻlib, bu oʻrinda uslubiy neytral holat kuzatilmoqda. Ayrim hollarda *ikkiqat* leksemasi ham ayollarga nisbatan ishlatilishi mumkin. Bu oʻrinda leksemaning uslubiy jihatdan salbiylik kasb etishi koʻzga tashlanadi.

*Toʻgʻri, baʼzan xotinlar ikkiqat boʻlganda darmonsizlashadi, boshlari ogʻriydi... buni kasal deb boʻlmaydi. Gulnor ikkiqat boʻldi-yu, yuz ustiga noz qoʻshdi, uyatsiz oʻlgur* (Oybek, Qutlugʻ qon).

Tugʻilish ifodalovchi soʻzlar bir invariantga birlashsa ham, ular oʻzaro darajalanadi va invariant-variant hamda variantlararo zidlanadi. Invariant-variant,

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б.15.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б.187.

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2008. – Б.551.

<sup>4</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б.429.

umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, til-nutq zidlanishi ma'no darajalanishi asosida yuzaga keladi.

“Yaralish” arxisemali birliklar orasida *bo'g'oz* so'zi qo'llanish doirasi (valentligi) jihatdan maydondagi boshqa so'zlardan farq qiladi. Bu so'z aslida hayvonlarga, qushlarga nisbatan qo'llanilishi bilan farqlanadi, bu o'rinda uslubiy neytral holatda bo'ladi.

Shuningdek, *bo'g'oz* so'zi dastlab shaxsga, homilador ayolga nisbatan ishlatilib, uslubiy neytral ma'no anglatgan bo'lsa (*Bir necha bo'g'oz xotinlar Kulishib o'zidan ketdi* – “Hasanxon”), hozirda ko'proq uslubiy neytral holatdan uslubiy xoslangan variantga, aynan salbiy ottenkali variantga aylangan.

*Bo'g'oz tovushqonni ham otadi, tuxum bosib yotgan kaklikni ham otadi* (Sh.Xolmirzayev, *Bir ko'rgan tanish...*).

Berilgan parchada qo'llanilgan *bo'g'oz* leksemasi qushga nisbatan ishlatilgan bo'lib, unda generativ belgi yuzaga chiqmoqda. “Yaralish” semasiga ega bo'lgan mazkur generonim “jonli”, “qush”, “urg'ochi” semalari bilan qush nomlarini ifodalovchi birliklarga nisbatan berilgan. Ushbu gapda *tuxum bosib yotgan* sintaktik qurilmasi ham qo'llanilgan, bu ifoda ham generativ ma'no ifodalashga xizmat qilgan.

Aslida *bo'g'oz* so'zi qadimda homilador ayollarga nisbatan qo'llanilgan. Bu fikrni “O'zbek tilining etimologik lug'ati”da professor Sh.Rahmatullayev ham ta'kidlagan:

BO'G'OZ “qornida bolasi bor” (hayvon haqida). Bu ot eski o'zbek tilidagi “bog'la-” ma'nosini anglatgan **bog'**- fe'lidan –(a)z qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik **a** unlisi **õ** unlisiga almashgan: **bog'**- +az = **bog'az** – **bog'az**. Bu so'z dastlab homilador ayolga nisbatan ishlatilgan; keyinchalik hayvonga ko'chirilib, insonga nisbatan ishlatilmay qo'ygan<sup>1</sup>.

*Og'iroyoq* variantida totemik ma'no qirrasining mavjudligi boshqa variantdoshlaridan farqlab turadi:

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати(туркий сўзлар). Тошкент: Университет. – 2000. – 82-б.

*Ikrom indamadi. Xotiniga sovib qolgan choydan quyib tutdi.*

*Esing joyidami, og‘iroyoq odam o‘tin yoradimi? O‘g‘lingga aytsang bo‘lmasmidi (S.Ahmad, Ufq).*

*Niso buvining endigi qayg‘usi Mehrining bo‘yida bo‘lib qolishi, chunki Faxriddindan uning bo‘yida bo‘lishini sira xohlamas edi (A.Qahhor, Boshsiz odam).*

*Tumorlar, qaytarma suvlar Niso buviga faqat tasalligina berdi, xolos. Mehri ikkiqat (A.Qahhor, Boshsiz odam).*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *homilador* so‘zining ayrim shevalarda qo‘llaniladigan *dujon* varianti ham mavjud<sup>1</sup>:

**DUJON.** (forscha *ikki jonli*) shevada. Homilador, ikkiqat.

Mazkur leksemaning sheva varianti qo‘llanilishi borasida, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, tadqiqotchi F.Musayeva ham ko‘rsatib o‘tadi<sup>2</sup>.

Shuningdek, *homila* leksemasi esa o‘zbek tili izohli lug‘atida shunday beriladi:

**HOMILA.** Ona qornida ikkinchi oyning oxiridan (9-hafta) boshlab tug‘ilish vaqtigacha (40-hafta) rivojlanayotgan pusht (embrion)<sup>3</sup>.

*Gumona* leksemasi esa shunday izohlanadi:

**GUMONA** (fors tilidan *shubha*, *taxmin*). Ona qornidagi bola, *homila*<sup>4</sup>.

Ko‘rinadiki, mazkur qatordagi *gumonasi bor* birikmasining *gumona* leksemasi ma’nolari tarkibida “*shubha*”, “*taxmin*” semalari mavjud. Agar har ikki *homila* va *gumona* leksemalarining ma’nolaridagi mantiqiylikka nazar tashlansa, homiladorlikning dastlabki va keyingi davrlari hisobga olinadi. Shunga ko‘ra, bizning fikrimizcha, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi *gumona* leksemasining

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б.657.

<sup>2</sup> Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. дисс.автореф. – Тошкент. – 2019. – 19-бет.

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2008. – Б.551.

<sup>4</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б.524.

izohiga homiladorlikning dastlabki davriga xos belgini anglatishini ham kiritish mumkin. Ya'ni: *bo'yida bo'ldi* – boshlanish nuqta; *gumonasi bor, bo'yida bor* – oraliq daraja ega; *bo'yida bor* – aniqlik darajasi yuqori; *homilador* – aniq. *Ikkiqat* va *homilador* so'zlari darajalanish jihatidan teng kelsa-da, salbiylik ottenkasining ham mavjudligi bilan farqlanadi.

Tahlillardan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, invariant-variant munosabatlari umumiylik va xususiylik tarzida ifodalansa, variantlararo munosabatda sinonimik aloqalar mavjud bo'ladi. Bu so'zlar bir sinonimik qatorni tashkil etsa-da, ular o'zaro zidlanish belgilarini ham o'z ichiga oladi.

### **1.3. O'zbek tilidagi generonimlarning semantik valentligi**

Generonimlarni struktur-semantik asosda tadqiq etishda mazkur paradigma doirasiga kirgan leksemalarni muayyan asoslar orqali ichki guruhlariga ajratish, ular o'rtasidagi sintagmatik munosabatlarni tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Bilamizki, lingvistik maydon tushunchasi turli til sathlariga oid birliklarni ma'lum bir umumiy belgi asosida birlashtirib, bir necha paradigmatic qatorlarni o'z ichiga oladi. Bu hol generonimlarning semantik munosabatida ham aniq namoyon bo'ladi: *homilador, bo'g'oz, ikkiqat, bo'yida bor, og'iroyoq, og'irbo'y, yukli* kabi leksemalar «qornida bolasi bor» semasi asosida bir paradigmatic qatorni tashkil etadi. Bu o'rinda mazkur leksemalarning bir uyaga birlashishi uchun ularning umumiy ma'nosi xizmat qiladi. Garchi bu leksemalar bir sema asosida uyadoshlik hosil qilsa ham, ular o'zaro farqlovchi semalarga egaligi bilan har biri alohida ravishda ajralib turadi.

Yuqorida qayd etilganidek, leksemalarning farqlovchi semalari ularning valentlik imkoniyatini belgilaydi. O'zbek tilshunosligida yaqin yillarga qadar valentlik, uning tiplari borasida qator izlanishlar maydonga kelgan. Jumladan, I.Qo'chqortoyev o'tgan asrning 70-yillarida o'zining nutq fe'llari valentligiga bag'ishlangan monografik tadqiqoti orqali o'zbek tilshunosligida ilk izlanishni

boshlab berdi<sup>1</sup>. Olim valentlikka bag‘ishlangan dastlabki maqolasida unga ta’rif berar ekan, so‘z ma’nosining ideal hodisa, valentlikning esa material hodisa ekanligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>.

*Valentlik* (lotincha *Valentia* - kuch) so‘zni boshqa elementlar bilan sintaktik aloqaga kira olishi. Bu tushunchani tilshunoslikka birinchi bo‘lib S.D.Kasnelson (1948) kiritgan edi. L.Tenyer esa *valentlik* atamasini g‘arbiy Yevropa tilshunosligiga o‘ziga xos tarzda olib kirdi. U valentlik tushunchasi uchun bog‘lana olish xususiyati muhim deb hisoblaydi va uni faqat fe’llarga mansub deb ko‘rsatadi. L.Tenyer valentlikni fe’l o‘ziga bog‘lay oladigan aktantlar soni sifatida ta’riflaydi va fe’llarni valentsiz (shaxssiz), bir valentli, ikki va uch valentli tiplarga ajratadi<sup>3</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligida valentlik keng ma’noda tushuniladi, unda so‘zlar va yuqori sath birliklarining o‘zaro birika olish imkoniyati e’tiborga olinadi va har qaysi til uchun xos bo‘lgan so‘z turkumining bog‘lana olish qonuniyatlari hamda so‘z semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan leksik valentlik farqlanadi.

Mavjud ilmiy manbalarda valentlikni yuzaga chiqaruvchi xususiyatlar tarzida quyidagilar ko‘rsatilgan:

valentlikning umumiy turi: faol valentlik (so‘zning tobe elementni biriktira olish imkoniyati); passiv valentlik (birikmaning hokim elementga bog‘lana olish imkoniyati);

valentlikning imkoniyat darajasi: obligator valentlik – majburiy (fakultativ) valentlik (kuchli va kuchsiz boshqaruv bilan muvofiq bo‘lgan tushuncha). So‘z gapda bir necha pozitsiyalarni egallaydi, ularning ayrimlari to‘ldirilishi zarur bo‘lsa, ayrimlari to‘ldirilishi shart emas;

valentlik soni: masalan, bir, ikki, uch valentli fe’llar;

---

<sup>1</sup> Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ): Автореф. дисс.... д-ра филол. наук. Ташкент, 1978.

<sup>2</sup> Кўчқортоев И. Сўз валентлиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. – 3-сон, 38-бет.

<sup>3</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: СЭ, 1990. - стр. 79.

to'ldirilayotgan bo'lakning sintaktik vazifasi: bunda fe'ldagi majburiy valentliklar sifatida subyekt, obyekt, hol va predikativ valentlik nazarda tutiladi: *u kitobni o'qidi* gapida *u o'qidi* - subyekt valentligi, *kitobni o'qidi* obyekt valentligi;

to'ldirayotgan bo'lakning shakli: so'z turkumi, so'z yoki gaplar aloqa vositasi bo'ladi: *uni uchratdim; u qizni uchratdim; shoshib kelayotgan qizni uchratdim;*

valentlikni yuzaga chiqaruvchi semantik xususiyatlar: masalan, *o'qimoq, yig'lamoq, uxlamok* fe'llari shaxs bilan; *yemoq, ichmoq* fe'llari shaxs, hayvon bilan munosabatni talab etadi.

O'zbek tilshunosligida valentlikka bag'ishlangan maxsus ishlarda asosan fe'llarning faol majburiy valentligi haqida fikr yuritilgan<sup>1</sup>.

Professor R.Rasulov valentlik tushunchasiga falsafiy asosda yondashish zarurligini ko'rsatib o'tadi va valentlikning potensial imkoniyati sintaktik aloqaga yo'l ochishini asoslaydi. Uning fikricha: "Valentlik – mohiyat bo'lsa, sintaktik aloqa hodisadir. Valentlik – umumiylik bo'lsa, sintaktik aloqa xususiylikdir. Valentlik – sabab bo'lsa, sintaktik aloqa natijadir"<sup>1</sup>.

Professorlar M.Mirtojiyev va S.Muhamedovalar o'zbek tilidagi valentlik ko'rinishlariga to'xtalib shunday ta'kidlaydilar: «valentlik so'zining qanday ma'nosiga asoslanishga qarab ko'rinishlarga bo'linadi. U leksik birlikning semantikasiga asoslangan bo'lsa, *semantik valentlik* deb ataladi. Lekin mohiyatni to'la ifodalash uchun uni *leksik-semantik valentlik* deb atash ma'qul hisoblanadi»<sup>2</sup>.

Mazkur mualliflar "O'zbek tilida so'z valentliklari" nomli kitoblarida so'z va valentliklari namoyon bo'lgan aktantlari bilan qanday semantik aloqada ekanining to'rt asosini ko'rsatadilar:

#### 1) leksik-semantik valentlik;

<sup>1</sup> Rasulov P. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989; Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол.фанл.докт.... дисс.автореф. Тошкент, 2007 ва бошқалар.

<sup>1</sup> Rasulov P. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989. – 23-бет.

<sup>2</sup> Миртожиев М., Муҳамедова С. Ўзбек тилида валентлик кўринишлари // Ўзбек тили ва адабиёти. -2001, 3-сон. 42-46-бет.

- 2) vositali semantik valentlik;
- 3) mantiqiy-semantik valentlik;
- 4) shakl semantikasi valentligi.

Mualliflar leksik-semantik valentlikni soʻzning leksik maʼnosi tarkibidagi uzvlar bilan, vositali semantik valentlikni oʻzi boshqarayotgan soʻz bilan oʻrin yoki obyekt valentligi bilan, mantiqiy-semantik valentlikni soʻz leksik maʼnosining denotati bilan, shakl semantikasi valentligini esa soʻzning morfologik shakli semantikasi bilan bevosita bogʻliq ekanini alohida taʼkidlaydilar<sup>1</sup>.

Professor S.Muhamedova oʻzining doktorlik dissertasiyasida esa valentlikning quyidagi tiplarini koʻrsatib oʻtadi: leksik-semantik valentlik; grammatik shaklning semantikasi valentligi; vositali semantik valentlik<sup>2</sup>.

Professor M.Mirtojiev semantik valentlik va unda sintaktik aloqalarning mutanosib boʻlishi borasida toʻxtaladi. Olim soʻzlarning oʻzaro birikuvini ularning uzvlari, maʼno tarkibidagi semalarning mantiqiy mosligiga tegishli ekanini koʻrsatadi: “Sintaktik valentlik soʻz semantikasining mantiqiy uzvlariga asoslanadi. Shu uzv boshqa bir soʻz maʼnosining mantiqiy uzvi bilan mos boʻladi. Shuning uchun mazkur soʻzda uzvlari mos boʻlgan soʻz bilan birikish imkoniyatiga yuzaga chiqadi. Bu uning semantik valentligi hisoblanadi”<sup>3</sup>.

Shuningdek, sezgi feʼllari<sup>4</sup>, yumush feʼllari<sup>5</sup>, feʼllarga bogʻlangan oʻrin kelishikli birikmalar semantikasi<sup>6</sup> borasidagi feʼl valentligiga bagʻishlangan qator ishlarda ham asosan feʼl turkumining semantik valentligi, ularni toʻldiruvchi vositalar xususida atroflicha fikr yuritiladi.

---

<sup>1</sup> Миртожиев М.М., Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида сўз валентликлари. Тошкент: 2011. – 160-бет.

<sup>2</sup> Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол.фанл.докт.... дисс.автореф. Тошкент, 2007. – 28-бет.

<sup>3</sup> Миртожиев М.М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. Тошкент: Университет, 2007. – 6-бет.

<sup>4</sup> Мусаев Т.Т. Глаголы ощущения в узбекском языке: Автореф.дисс.... канд. филол.наук. Ташкент,1992.

<sup>5</sup> Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмш феълларининг маъно валентликлари: Филол.фанл.номз.... дисс.автореф. Тошкент, 1996.

<sup>6</sup> Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишликли бирикмалар семантикаси: Филол.фанл.номз.... дисс.автореф. Тошкент, 1994.

Yuqoridagi izlanishlardan ko‘rinib turibdiki, valentlik imkoniyatlari ko‘proq harakat va holat ifodalovchi fe‘l leksemalarda mavjud bo‘lib, mazkur leksemalarga birikish imkoniyati ularga bog‘lanayotgan aktant(argument)larda kuzatiladi.

S.Muhamedova doktorlik dissertasiyasida harakat fe‘llarining obyekt valentligi to‘g‘risida so‘z yuritib, “obyektni yaratish” semasi bilan birlashgan leksemalar guruhiga alohida to‘xtaladi. Olima “obyektni yaratish” farqlovchi semali *to‘qimoq, yasamoq, qurmoq, tiklamoq, solmoq* singari fe‘llarga bog‘lanuvchi kiyim-kechak, hunarmandchilik buyumlari, qurilish obyektlari orqali obyektli birikmalar hosil bo‘lishini ta’kidlaydi<sup>1</sup>.

A.Sobirov maydonning yadro va periferiyasi to‘g‘risida fikr yuritar ekan, *akillamoq, irillamoq* (it), *qulunlamoq, kishnamoq* (ot), *qo‘zilamoq, ma’ramoq* (qo‘y), *cho‘qimoq* (tovuq) singari harakat ifodalovchi so‘zlarning alohida guruhlarga tegishli bo‘lishini va shu orqali semantik maydonning yadrosini tashkil etishi, ayni vaqtda, *boqmoq, parvarishlamoq, yugurmoq* kabi so‘zlar ularning hammasiga nisbatan qo‘llanilib, periferiyadan joy olishini ko‘rsatadi<sup>2</sup>.

O‘zbek tilidagi «yaralish» semasi asosida muayyan paradigmaga birlashgan *tug‘moq, bolalamoq, qo‘zilamoq, qulunlamoq, tuxum qilmoq* kabi generonimlar ham o‘z ma’nolari tarkibidagi semalar orqali “shaxs”, “hayvon” arxisemali aktantlarni bog‘laydi. Chunki “harakat” umumiy semasi ostida birlashgan yuqoridagi leksemalarning ma’nolari tarkibida mazkur markaziy semalar bilan birga, “jonli” chegara semasi ham mavjud bo‘lib, bu integral sema ularning birikuvini ta’minlaydi. Bunday leksemalarning birikish imkoniyatlari klassemada deb ham yuritiladi.

Xususan, V.Karimjonova o‘rin kelishikli birikmalar semantikasiga bag‘ishlangan tadqiqotida o‘rin kelishikli fe‘l boshqaruvidagi birikmalar semantik

---

<sup>1</sup> Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фанл. докт.... дисс. автореф. Тошкент, 2007. – 30-бет.

<sup>2</sup> Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 25-бет.

xususiyatlari to'g'risida so'z yuritib, birikma bo'laklari ma'nosining ma'lum semalari mosligi bilan klassemaning hosil bo'lishini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Tilimizdagi yaralish belgisiga ega bo'lgan generonimlar o'z ichki semalari bilan birga asosida boshqa birliklarga bog'lanish imkoniyatiga ega. Lug'aviy birliklarning birikish imkoniyatlari generonimlar doirasida ham sintaktik aloqalar orqali yuzaga chiqadi. Sanalgan leksemalar faqat jonivorlarni ifodalovchi leksemalar bilan birikish imkoniyatiga egaligi bilan ularning valentlik imkoniyati cheklanadi. Ularning bog'lanish imkoniyati «jonli» semasiga ega har qanday leksik birliklarning hammasi bilan ham yuzaga chiqmaydi. Bu lesik birliklarning valentlik imkoniyati asosan “odam” va “hayvon” semasiga ega leksemalar bilangina cheklanadi.

«Qornida bolasi bor» semasiga ega generonimlar o'zida “jins” semasini ham ifodalaydi. Shuning uchun er va ayol, erkak va urg'ochi, nar va moda singari jinslarni umumlashtiruvchi semaga ega leksemalar bilan bog'lanish darajasi cheklangan bo'ladi. Masalan, *bo'g'oz odam* tarzida ishlatilsa, grammatik aloqa va grammatik munosabat yuzaga chiqadi, ammo mantiqiy aloqa va mantiqiy munosabatda nomuvofiqlik yuzaga keladi. Chunki *odam* leksemasida erkak va ayolni birlashtiruvchi sema mavjud, *homilador ayol*, *homilador juvon* birikmalarida grammatik, semantik va mantiqiy muvofiqlik yuzaga keladi.

Demak, «qornida bolasi bor» arxisemali leksemalar valent imkoniyatiga ko'ra boshqa leksemalardan farqlanadi. Chunki bunday leksemalar o'zida mavjud arxisemadan tashqari «yosh», «jins» semalarini ifodalaydi. Bu esa ularning valentlik imkoniyatini belgilaydi.

Masalan:

*Meni-da ayolim bor – u bir etak farzand tug'ib berdi* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Berilgan parchada *tug'ib berdi* predikatining subyekt va obyekt valentliklari *ayolim* (subyekt) va *farzand* (bu o'rinda obyekt) argumentlari orqali to'ldirilyapti.

<sup>1</sup> Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишликли бирикмалар семантикаси: Филол.фанл.номз.... дисс.автореф. Тошкент, 1994. – 7-бет.

Ko‘rinib turibdiki, *tug‘ib berdi* predikatining subyekt valentligini to‘ldiruvchi *ayolim* predikati ma‘nolari tarkibida “shaxs”, “jins”(ayol) semalari ham namoyon bo‘lmoqda.

Yuqorida *tug‘moq* leksemasining sinonimlari qatorida *bolalamoq* leksik birligini ham keltirib, ular o‘rtasidagi farq “miqdor” semasi orqali kuzatilishini ta‘kidlagan edik. Jumladan, *it* leksemasi bilan *tug‘moq* leksemasining birikuvi ular o‘rtasidagi miqdorning ko‘pligi belgisi bilan ham ko‘rinadi va *bolalamoq* fe‘li orqali ifodalanadi. Ularning uslubiy bo‘yog‘i ham qo‘llanilish doirasi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi: *it bolaladi* (neytral), *itdek bolaladi* (salbiy).

Masalan:

*Sen baranlar mazaxo‘rak bo‘lib qolding, mazaxo‘rak! Sen baranlar qorning to‘yib qoldi! Shunday keta bersalaring – qanjiq itday bolalab boraverasanlar! Ana, ko‘z ochib-yumguncha yigirma million bo‘ldilaring!* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar)

Ushbu parchada *bolalab bormoq* predikati *qanjiq itday* birikmasi bilan berilgan bo‘lib, *bolalab bormoq* “harakat”, “miqdor”, “ko‘payish” semalarini, unga bog‘lanayotgan *qanjiq itday* birikmasi “hayvon”, “jins” semasini bildirib, salbiy ma‘no ifodasi uchun xizmat qilmoqda.

Mazkur leksemalar ayni vaqtda “odam”, “hayvon”, “parranda” umumiy semali birliklar bilan birga, hasharot nomlarini ifodalovchi leksemalar bilan ham birikadi:

*Hasharotlar ana shu g‘o‘zauchlarda bolalaydi! Masalan ko‘sakqurt ana shu g‘o‘zauchlarda moyak qo‘yadi. Moyak g‘o‘zauchda bola ochadi. Qurt bo‘lib o‘rmaydi* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Keltirilgan parchada *bolalaydi, moyak qo‘yadi, bola ochadi* generonimlari ishtirok etgan bo‘lib, ular *hasharotlar* argumenti bilan bog‘lanmoqda. Bu o‘rinda *bolalaydi, moyak qo‘yadi, bola ochadi* generonimlarining “tug‘moq”, “miqdor”, “ko‘paymoq”, “davomiylik” semalari namoyon bo‘lmoqda. *Hasharot* leksemasi bilan mutanosib klassema ularning birikuviga yo‘l ochmoqda.

*Tug‘ilmoq*, *bo‘shanmoq* leksemalari jonli mavjudotlarga nisbatan qo‘llanilishi bilan umumiylikni tashkil etsa, *bo‘shanmoq* leksemasi asosan insonlargagina nisbatan ishlatilishi bilan *tug‘ilmoq* leksemasidan farqlanadi. *Yaralmoq* leksemasi o‘zining qamrovi kengligi bilan ajralib turadi va uning arxisemasida “ibtido” tushunchasi mavjudligi bilan paradigmatic qatordagi boshqa birliklardan farqlanadi.

“Yaralish” semali so‘zlar qatorida *tug‘moq* leksemasi odam va hayvonlarga nisbatan qo‘llanilishi bilan birga, ko‘p hollarda ko‘payish jarayonidagi o‘ziga xoslikni farqlash maqsadida boshqa leksemalar bilan almashadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi “yaralish” semali leksemalar tarkibidagi markaziy (yadro) “tug‘moq”, “ko‘paymoq” semasi bilan birga har qaysi jonzotga nisbatan qo‘llaniluvchi chegara sema uchun asos belgilarga e’tibor qaratamiz:

<b>birikuvchi leksema</b>	<b>“tug‘moq” semali (yadro sema)</b>	<b>qo‘llaniluvchi leksema</b>	<b>farqlovchi chegara sema</b>
odam	+	tug‘moq	kam
sigir	+	tug‘moq	kam
echki	+	tug‘moq	kam
eshak	+	tug‘moq	kam
bo‘ri	+	tug‘moq	kam
ayiq	+	tug‘moq	kam
tulki	+	tug‘moq	kam
qo‘y	+	qo‘zilamoq	kam
tuya	+	qulunlamoq	kam
it	+	bolalamoq	ko‘p
quyon	+	bolalamoq	ko‘p
mushuk	+	bolalamoq	ko‘p
sichqon	+	bolalamoq	ko‘p
tovuq	+	tuxum ochmoq	ko‘p

Jadvaldan ko‘rinadiki, bu birliklarni dunyoga kelish, yaralish belgilari asosida umumlashgan “tug‘moq” semasi birlashtiradi. Bu o‘rinda *tug‘moq* leksemasi va uning o‘rnida qo‘llaniluvchi mazkur semaga ega bo‘lgan birliklar ma‘lum ottenkalari bilan o‘zaro farqlanadi. Odam, sigir, echki, eshak, bo‘ri, tulki, ayiq singari jonzotlarning ko‘payish, tug‘ilish shakli it, quyon, mushuk, sichqonga nisbatan miqdor asosida farqlanadi. Chunki odam, sigir, echki, eshak, bo‘ri, tulki, ayiq singarilar son jihatdan yakka yoki ikkita, kam hollarda uchta bola tug‘adi, it, quyon, mushuk, sichqon kabilar esa ko‘p bola tug‘adi. Shu sababli odam, sigir, echki, eshak, bo‘ri, tulki, ayiqqa nisbatan *tug‘moq*, it, quyon, mushuk, sichqonga nisbatan *bolalamoq* leksemalari qo‘llaniladi. Shuningdek, ayrim hollarda qo‘yning tug‘ish jarayoni *qo‘zilamoq*, tuyaning tug‘ish jarayoni *qulunlamoq* shaklida ham ishlatilishi kuzatiladi.

Masalan:

*Qo‘ylar qo‘zilaganda, tashqari sovuq bo‘lsa, ichkariga kiritardik* (Sh.Xolmirzayev, Bahor).

Parrandalarga nisbatan *ochib chiqmoq* iborasining ishlatilishi yaralish jarayonining ikki bosqichli ekanligi bilan xarakterlanadi. Birinchi bosqichda *tug‘moq* (tuxum tug‘moq) ikkinchi bosqichida *ochib chiqmoq* leksemasi bilan ishlatiladi.

F.Musayevaning ta’kidlashicha: “Erkak va ayolning biologik imkoniyatlari yoki anatomik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar: tug‘ish, homilador bo‘lish faqat ayollarga xos bo‘lganligi tufayli bu biologik imkoniyatlar bilan bog‘liq so‘zlar ham faqat ayollarni bildiradi: *tumsa, homilador, bo‘g‘oz, emizikli, yukli, og‘iroyoq, dujon* (shevada)”<sup>1</sup>.

Shuni ham ta’kidlash zarurki, odam va hayvonlardagi generasiya jarayoni jins nuqtai nazaridan hisobga olinadi. Umumiy holda “urg‘ochi” semali leksemalar orasida *sigir(g‘o‘najin), sovliq, echki, biya, makiyon, moda*

---

<sup>1</sup> Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. дисс.автореф. – Тошкент. – 2019. – 19-бет.

leksemalarigina yuqoridagi fe'l-leksemalar bilan mantiqan birikish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbek tilidagi "yaralish" semali leksik birliklarning valentligi va shu birikish imkoniyati asosida ularning sintagmatik xususiyatlarini aniqlash muhim.

Yuqoridagi fe'l leksemalarning muayyan valentligi turlicha biologik obyektlar nomlari orqali to'ldirilishi mumkin.

### **1. "Shaxs", "inson" semali leksemalar orqali:**

*Abdulla aka Tojikistonning Asht qishlog'ida, rafiqasi Kibriyoxonim Samarqandda tug'ilgan* (S.Ahmad, Yo'qotganlarim va topganlarim).

Berilgan gapda ishtirok etgan "yaralish" semali *tug'ilgan* fe'lining o'rin valentligi *Tojikistonning Asht qishlog'ida, Samarqandda* bo'laklari bilan, subyekt valentligi esa *Abdulla aka, Kibriyoxonim* vositalari orqali to'ldirilyapti. Bu o'rinda *tug'ilgan* fe'lining "shaxs", "inson" semali leksemalar bilan bog'lanishi kuzatilmoqda.

- *Ay, peshonam qursin-a, dunyoga kelmay men o'layin-a!* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar)

Ushbu gapdagi *dunyoga kelmay* birikmasining subyekt valentligi "shaxs" semali *men* olmoshi bilan to'ldirilmoqda.

### **2. "Hayvon" semali leksemalar orqali:**

*Barcha sut emizuvchilar kabi quyonlar ham tirik bola tug'adi, embrioni ona qornida rivojlanadi* (S.Dadayev, O.Mavlonov, Zoologiya).

Yuqoridagi gapda *tug'adi* fe'lining subyekt valentligi "hayvon" semali *quyonlar* so'zi bilan to'ldirilyapti. Garchi bu yerda *quyon* leksemasi "shaxs" semasiga ega bo'lmasa-da, bu o'rinda harakatning bajaruvchisi sifatida olinadi.

### **3. "Qush", "parranda" semali leksemalar orqali:**

*Qushlar odatda bir yilda bir marta ko'payadi, ba'zi qushlar esa ikki-uch marta tuxum bosadi* (S.Dadayev, O.Mavlonov, Zoologiya).

Bu gapda "yaralish" semali *ko'payadi* va *tuxum bosadi* fe'llari "qush" semali so'z bilan bog'langan va uning (subyekt) valentligini to'ldirgan. Keltirilgan

gapda qushlarning ko‘payishiga xos ikki bosqichlilik jarayoni bilan bog‘liq *tuxum bosmoq* birikmasi ham ishtirok etmoqda.

Shuningdek:

*Bahorda qushlar in qo‘yib, bola ochsin deb o‘quvchilarga yashik yasashni o‘rgatamiz* (Sh.Xolmirzayev, Kulgan bilan kuldirgan).

Bu gapda qushlarga nisbatan *bola ochmoq* birikmasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu aynan *tuxum ochmoq, jo‘ja ochmoq* birikmalariga to‘g‘ri keladi. *Bola* so‘zi shaxsga nisbatan qo‘llanilmay, qushga nisbatan ham ma’no ifodalayapti.

#### **4. “Hasharot” semali leksemalar orqali:**

*Kapalak qora tunda bo‘ydor-bo‘ydor g‘ozalar aro uchdi. Gullarga moyak qo‘yib-qo‘yib uchdi* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Bu o‘rinda *moyak qo‘ymoq* fe‘lining subyekt valentligi “hasharot” semali *kapalak* leksemasi, o‘rin valentligi *gullarga* so‘zi, payt valentligi *qora tunda* birikmasi orqali to‘ldirilgan.

#### **5. “O‘simlik” semali leksemalar orqali:**

*Shunda pushtalar bo‘rtib-bo‘rtib qoldi. Shunda maysalar uch berib-uch berib qoldi* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

O‘simliklarning ko‘payish jarayoniga nisbatan *uch bermoq* ifodasi qo‘llanilgan bo‘lib, undagi “yaralish”, “paydo bo‘lish” semasiga ega bo‘lgan fe‘lning valentligi *maysalar* so‘zi bilan to‘ldirilgan.

Professor Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da *urg‘ochi* so‘zini shunday izohlaydi:

“URG‘OCHI – nasl beruvchi hayvon”. Bu sifat qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, hosil qil ma’nosini anglatgan **ur-** fe‘liga kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi **–g‘a** qo‘shimchasini va shaxs ma’nosini bildiruvchi **–chy** qo‘shimchasini ko‘shib hosil qilingan; qo‘shimcha qo‘shilgandan keyin **a** unlisi **ã** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: (**ur+g‘a=urg‘a-**) + **chy**= **urg‘achy** – **urg‘achi**. Bu so‘z tarkibini urug‘ otiga **–a** qo‘shimchasini qo‘shib fe‘l yasalgan,

soʻngra –**чы** qoʻshimchasini qoʻshib sifat yasalgan deb talqin qilish ham mumkin<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, paradigmatic qatordagi *tugʻmoq* leksemasi oʻzining ishlatilish chastotasining yuqoriligi bilan paradigma aʼzolariga zidlanadi (*mushuk tugʻdi, it tugʻdi, sigir tugʻdi, tovuq tugʻdi* va h.k.) Ammo *farzand dunyoga keldi* ifodasi tovuqqa nisbatan qoʻllanmaydi, yaʼni *tovuq joʻja ochdi* qabilida ishlatiladi. Soʻzlar bilan bogʻlanish imkoniyatiga koʻra (valentlik) ham *tugʻmoq* leksemasi paradigmatic qatordagi boshqa leksemalardan farqlanadi.

*Nima, tugʻilmasdan oldin erga tekkan ekanmi? Toʻrt bolani qachon tuqqan...* (S.Ahmad, Yoʻqotganlarim va topganlarim).

*Bunday sharoitda yashash, tez harakat qilish, uzoq homilador boʻlish va tugʻilgandan soʻng onasi orqasidan ergasha oladigan bola tugʻish singari moslanishlarni hosil qilgan* (S.P.Naumov, Umurtqali hayvonlar zoologiyasi).

*Tuxumdan uzunligi 2,5 sm boʻlgan, pat bilan qoplangan joʻja chiqadi* (S.P.Naumov, Umurtqali hayvonlar zoologiyasi).

Bu paradigmatic qatordagi boshqa soʻzlar har biri oʻzining xususiy maʼnosi, ishlatilish chastotasi yoki ishlatilish doirasi hamda valentlik imkoniyati bilan *tugʻilmoq* soʻzidan farqlanadi.

Masalan:

*Uzoq kutilgan «mehmon» tugʻilishiga bir necha kun qolganda Mehrini, dalaga, xolasinikiga ketdi, degan bahona bilan otasining koʻzidan bir ovloqqa yashirdik.*

*U yerda bola tugʻildi.*

(Gʻ.Gʻulom, Yodgor)

*Har yili egiz tugʻadigan tusoq sovliq bor edi.*

*Lekin bunaqa kech tugʻmas edi.*

(P.Qodirov, Qora koʻzlar).

---

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати(туркий сўзлар). Тошкент: Университет. – 2000. – 393-б.

*Kemiruvchilar har yili bir necha marta va ko'p bola tug'adi* (S.Dadayev, Zoologiya).

Ayrim hollarda parranda va qushlarga nisbatan jins belgisini anglatuvchi leksemalar *tug'moq* ma'nosidagi so'zlar bilan birikish imkonini ko'rsatadi. Masalan:

*Anavi makiyonni uyga oborib, tuxum bostiraman, jo'jalari katta bo'lgandan keyin keltirib qafasga solib qo'yaman, xo'pmi?* (Sh.Xolmirzayev, Jo'raboshi)

Ushbu gapda *makiyon*, *tuxum bostirish*, *jo'ja* singari birliklar gapda o'zaro mutanosib holda ishlatilgan. *Tuxum bostirmoq* birikmasi ma'nolari orasida "jonli", "parranda" hamda "jins" semasi yetakchilik qilib, ularning sintagmatik munosabati uchun aynan jins (*makiyon*) ma'nosi asos bo'lmoqda.

Bu o'rinda mazkur leksemalarni bir uyaga birlashtirish uchun ularning ma'nosi xizmat qiladi. Garchi bu leksemalar bir sema asosida uyadoshlik hosil qilsa ham, ular o'zaro farqlovchi semalarga egaligi bilan har biri alohida ajralib turadi.

Sanalgan leksemalar faqat jonivorlarni ifodalovchi leksemalar bilan birikish imkoniyatiga egaligi bilan ularning valentlik imkoniyati cheklanadi. Ularning bog'lanish imkoniyati «joni bor» semasiga ega har qanday lug'aviy birliklarning barchasi bilan ham yuzaga chiqmaydi. Bu ifodalarning valentlik imkoniyati asosan "odam" va "hayvon" semasiga ega leksemalar bilangina cheklanadi.

Generonimlarning xarakterli xususiyati shundaki, ularning valentlik darajasi jins nuqtai nazaridan, yosh nuqtai nazaridan chegaralanish xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, *homilador yigit yoki ikkiqat go'dak, bo'g'oz qo'zichoq, bo'g'oz qo'chqor* sifatida qo'llab bo'lmaydi. Chunki generonim «yaralish», «yaratish» semasiga ega bo'lib, bunday imkoniyat tabiiy-biologik-fiziologik jarayon sifatida har qanday jonzotga mansub emas.

*O'lmoq* – jonli mavjudotlarga nisbatan, *qurimoq* – o'simliklarga nisbatan; *qazo qilmoq* - katta yoshdagi yoki taniqli, el orasida hurmat e'tiborga ega bo'lgan

kishilarga; *nobud bo'lmoq* go'daklarga nisbatan ishlatilsa, *qurbon bo'lmoq*, *halok bo'lmoq* biror hodisa tufayli sodir bo'lgan o'limni ifodalaydi.

*Oybekning "Navoiy" romani sotilayotgan ekan. Navbatda turib bittasini sotib oldim. Varaqlab ko'rdim. Besh yuz yigirma besh sahifa. Unga marhum Hamid Olimjon muharrirlik qilgan ekan. Nomi qora ramkaga olingan. Demak u o'zi muharrirlik qilgan kitobni ko'rolmagan. Hamid Olimjon shu yili bahorda halok bo'lgan edi* (S.Ahmad, Yo'qotganlarim va topganlarim).

*U qo'lida ushlab turgan "Dunyoning ishlari" kitobini ko'rsatdi. Insonning boshi toshdan bo'lar ekan, bir o'g'lim Afg'on urushida nobud bo'ldi, chidadim, chidamay ilojim qancha, kel bolam, o'g'lim o'rniga o'g'il bo'l. Yozuvchi o'g'lim bor, deb yupanib yuray...* (S.Ahmad, Yo'qotganlarim va topganlarim).

Ikkinchi parchada berilgan *nobud bo'ldi* iborasi ota tilidan farzandga nisbatan aytilgani sababli bu yerda "yosh" semasi ham berilgan.

Amaliy nutqimizda ko'p hollarda tibbiy atamalar doirasidagi *abort* so'zi ishlatiladi. Bu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da shunday izohlanadi:

**ABORT** (*lot.* bola tashlash, muddatidan oldin tug'ilish). Homilaning hayotga layoqatsiz davrida, ya'ni dastlabki 28 hafta mobaynida tushishi yoki tushirilishi (oldirilishi).

**Sun'iy abort.** Ayolning istagiga ko'ra yoki kasalligi sababli homilani oldirish. G'ayriixtiyoriy (tabiiy) abort. Homilaning turli sabablarga (masalan, kasallik tufayli) tushishi<sup>1</sup>.

Ko'rinadiki, bu yerda berilgan izohlarda *abort* leksemasi odatda ham tabiiy, ham sun'iy ravishda bola tashlash, homilaning tushishiga nisbatan qo'llanilishi kerak. Biroq nutqiy jarayonda *abort* so'zi faqat sun'iy abort tushunchasiga nisbatan qo'llaniladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б.27.

Demak, mazkur soʻzning asl maʼnosidan biroz chetlash kuzatiladi. Aytish mumkinki, *abort* yoki *homilasi tushmoq* ifodalarning maʼnolari deyarli bir xil boʻlgani holda, nutqda ular ancha farq qiladi.

Yuqoridagi holat asosida *abort*, *bola (homila) tushishi*, *bola tashlash* singarilar ham garchand meʼyoriy fiziologik jarayondan uzoq boʻlsa-da, nekronimlar doirasiga kiritilishi mumkin.

Nekronim «motam», «aza», «oʻlim», «tugash» semasi asosida har qanday tirik mavjudotga koʻchma maʼnoda jonsiz mavjudotga ham taalluqli: *sovuqda koʻchatlar oʻlib ketdi*. Bu oʻrinda «qurimoq» soʻzini qoʻllab boʻlmaydi. Chunki *qurimoq* leksemasi «nomi yoʻqolish» semasiga teng boʻlib, asta-sekin yuz beradigan jarayonni ifodalaydi. *Nihollar oʻldi sovuqda* bu qurigani yoʻq, ammo koʻklamaydi maʼnosini ifodalaydi.

Generonimlar jins, yosh nuqtai nazardangina emas, balki jonzotlarning turiga qarab ham bogʻlanish imkoniyati cheklanadi. Bunday arxisemali leksemalar valent imkoniyatiga koʻra boshqa leksemalardan farqlanadi. Chunki bunday leksemalar oʻzida mavjud arxisemadan tashqari «yosh», «jins» semalarini ifodalaydi. Bu esa ularning valentlik imkoniyatini belgilaydi. Oʻzbek tilidagi yaralish belgisiga ega boʻlgan generonimlar oʻz ichki semalari bilan asosida boshqa birliklarga bogʻlanish imkoniyatiga ega.

Qisqasi, generonimlarni maʼlum paradigma ostida bir umumiy sema ostida birlashtirgan holda, paradigma tarkibiga kirgan har qaysi leksemaning oʻziga yondosh boshqa leksemalardan farqini ochish, shu orqali ularning mazkur paradigmadagi oʻrnini aniqlash juda katta ahamiyatga ega.

Ayni paytda, ularning boshqa birliklar bilan sintagmatik munosabati asosida valentligiga xos belgilarni yoritish, barqaror birliklar tarkibida esa har bir xalq bilan bogʻliq lingvokulturologik belgilarini koʻrsatishga yoʻl ochiladi.

## **Bob bo'yicha qisqa xulosa**

1. O'zbek tilining leksik sistemasi tarkibida «yaralish» arxisemasi asosida birlashgan mikrosistema alohida o'rin egallaydi. Bu mikromaydon "shaxs", "hayvon", "o'simlik" singari maydonlar bilan uzviy munosabatda bo'ladi.

2. O'zbek tilidagi generonimlar "yaralish" arxisemasi orqali umumlashib, leksik sistemaning bir bo'lagi bo'lishi bilan birgalikda, o'z tarkibida ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Bu esa leksik sistemaning butundan bo'lakka bo'linish xususiyatini ko'rsatadi. Mikromaydon doirasidagi har qaysi leksema semik tuzilishidagi birlashtiruvchi semasiga ko'ra bir necha guruhlarning tarkibiy qismlari bo'lishi mumkin.

3. O'zbek tili leksik sistemasida generonimlar katta miqdorni tashkil etmasada, mazkur paradigma a'zosi sanalgan lug'aviy birliklarning har qaysisi qator farqlovchi semalari orqali yuzaga chiqishi kuzatiladi.

4. "Yaralish" semali birliklarning paradigmatic munosabatini aniqlashda paradigma a'zolari ular ifoda etayotgan tushunchalarning qator asoslariga ko'ra guruhlanadi.

5. Tug'ilish ifodalovchi so'zlar bir invariantga birlashib, o'zaro darajalanish munosabatiga kirishadi. Ularning darajalanishi asosida zidlanish munosabatlari ham yuzaga chiqadi.

6. O'zbek tilidagi generonimlarni struktur-semantik asosda tadqiq etishda ushbu paradigma doirasiga kirgan leksemalarni muayyan asoslar orqali ichki guruhlarga ajratishdan tashqari, ular o'rtasidagi sintagmatik munosabatlarni tahlil etish ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli "yaralish" semali birliklarning valentligini e'tiborga olish muhim.

## IKKINCHI BOB

### O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLARNING ASSOTSIATIV VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

#### 2.1. O‘zbek tilidagi generonimlarning assotsiativligi

Yaqin yillarga qadar o‘zbek tilshunosligida sistemaviy yondashuvlarga alohida e‘tibor qaratilishi natijasida belgi bilan belgi o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘proq urg‘u berildi. Belgi bilan til egasi o‘rtasidagi munosabat muammosi esa hozirda ko‘plab izlanishlarning markaziga aylandi<sup>1</sup>.

XX asrning ikkinchi choragida tilni shaxs tasavvuri, idroki bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish masalasi tilshunoslikda kun tartibiga qo‘yildi. Buning natijasida tilshunoslar e‘tiborini til va til egasi munosabatlari o‘ziga tortdi. Bu esa, o‘z navbatida, nutq va uning yaratilishi, idrok qilinishi kabi muammolarga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keldi. Ayni vaqtda, belgi bilan undan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishning yangi tahlil usullari maydonga keldi.

Professor S.Mo‘minovning ko‘rsatishicha, “muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog‘liqdir”<sup>2</sup>.

Bu tadqiqotlarda so‘zlovchi shaxs masalasi alohida e‘tiborga olinadi. Ana shunday antroposentrik tadqiqotlar negizida ayrim assotsiativ yondashuvga aloqador izlanishlar ham maydonga kelmoqda. Hozirga qadar o‘zbek

---

<sup>1</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008; Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фанл.д-ри.... дисс.автореф. Тошкент, 2001; Худайберганаева Д.С. Ўзбек тилида бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини: : Филол.фанл.д-ри.... дисс.автореф. Тошкент, 2015; Рустамов Д. Лексемалар миллий-маданий хосланган семемасининг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фанл. бўй. фалс. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Рустамова Д.А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: Филол. фанл. бўй. фалс. докт.дисс.автореф. – Фарғона, 2018; Насруллаева Г.С. Антропоцентриқ метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти: Филол. фанл. бўй. фалс. доктори.... дисс. автореф. Фарғона, 2019 ва бошқалар.

<sup>2</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мuloқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент. - 2000. – 19-бет.

tilshunosligida assotsiativ nazariya, assotsiativ munosabatlar borasida bir qancha tadqiqotlar yaratildi<sup>1</sup>.

Bu boradagi talqinni professor A.Nurmonovning “Paradigma va uning olamning lisoniy manzarasi (OLM)ga munosabati” nomli maqolasida uchratamiz<sup>2</sup>. “Bunday (assotsiativ – I.X.) munosabatning sintagmatik munosabatdan tamomila boshqacha xususiyatga egaligini ko‘rish qiyin emas. Keyingi munosabat cho‘ziqlikka ega emas, u miyada lokallashadi va har bir shaxsning xotirasida saqlanuvchi xazinaga mansub bo‘ladi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat hisoblanadi”<sup>3</sup>.

Bu o‘rinda A.Nurmonov F.Sossyurning lingvistik munosabatlar haqidagi qarashlariga izoh berar ekan, F.Sossyur tomonidan qo‘llanilgan assotsiativ munosabat tushunchasining psixologizm ta‘sirida maydonga kelganligini, lisoniy birliklarning nutq jarayonidan tashqari o‘zaro qandaydir umumiylik orqali inson xotirasida ma‘lum guruhlariga birlashishini ta‘kidlaydi.

Bizga ma‘lumki, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da signifikat shunday ta‘riflanadi: “Til birligi ifodalaydigan tushuncha *signifikat* deyiladi”<sup>4</sup>.

Ana shunga asoslangan holda, professor A.Sobirov assotsiativ talqinlar xususida so‘z yuritar ekan, uni bevosita signifikat tushunchasiga bog‘laydi. Uning ko‘rsatishicha: “Leksema bilan tushuncha o‘rtasidagi aloqaga signifikativ aloqa deb ataladi. Shu aloqa natijasida yuzaga chiqadigan ma‘no *konseptual ma‘no* yoki *designat* deb yuritiladi. Inson ongi moddiy olamni idrok qilar ekan, miyada birdaniga narsa va hodisalarning tugal obrazi paydo bo‘lmaydi. Sezgi a‘zolari yordamida tashqaridan olingan signallar tasavvurni uyg‘otadi, u tushunchaga, tushuncha esa fikrga turtki berib, insonning ongida bilim, malaka tarzida yashirinib

---

<sup>1</sup> Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: MERIYUS, 2017; Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: : Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. Фарғона, 2018 ва бошқалар.

<sup>2</sup> Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. 3 жилдлик. III жилд. Тошкент: Akadernashr, 2012. – Б. 96-107.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. 3 жилдлик. III жилд. Тошкент: Akadernashr, 2012. – 98-бет.

<sup>4</sup> Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – 87-бет.

yotgan soʻzlarni turtib chiqaradi. Masalan, *dala, poliz, bogʻ* soʻzlarini olaylik. *Dala* deyilishi bilan tasavvurimizda *paxta, bugʻdoy, makkajoʻxori, beda* kabi ekinlar ekiladigan katta keng maydon – yer gavdalanadi. U *dehqon, chopmoq, egat, pushta, ekmoq, gʻoʻza, tup, paxta, sugʻormoq, hosil, termoq, traktor* kabi yuzlab leksemalarni oʻzida jamlovchi, umumlashtiruvchi leksema (giperonim) sifatida ongimizda gavdalanadi”<sup>1</sup>.

Professor D.Lutfullayevaning “Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi” nomli monografiyasi bu yoʻnalishdagi yaxlit tarzda yaratilgan dastlabki izlanish hisoblanadi. Oʻzbek tilidagi assotsiativ munosabatlar yuzasidan olib borilgan mazkur tadqiqotda “tilning siru sinoatlari bilan qiziqqan kitobxonlarni oʻzbek tilshunosligiga endigina kirib kelayotgan assotsiativ tilshunoslikning tayanch tushunchalari bilan tanishtirish, assotsiativ tahlil usullarining tilni oʻrganishdagi ustuvorligini ilmiy asoslash, tilshunoslikda assotsiativ munosabat masalasining oʻrganilishi, oʻzbek tilida verbal assotsiatsiyalarning hosil boʻlishi, assotsiativ birliklarning xususiyatlari, tasnifi, assotsiativ tajriba metodining mohiyati, assotsiativ lugʻatlarning tuzilishi haqida” batafsil fikr yuritiladi<sup>2</sup>. N.Xoshimovaning falsafa doktori dissertasiyasi esa oʻzbek tilidagi “sanʼat” arxisemali leksemalar misolida assotsiativ munosabatlar tadqiqiga bagʻishlangan<sup>3</sup>.

D.Lutfullayevaning fikriga koʻra, tashqi olamning verbal ifodasi va bunda **voqelik-ong-til** uchligi munosabatida eng muhim jihatlarga toʻxtalar ekan, shunday yozadi:

“Tashqi olamdagi voqeliklar inson ongida ular bilan bevosita aloqador boʻlgan makon, zamon, sabab, maqsad kabi omillardan ajralgan holda aks etmaydi. Muayyan voqelikning obyektiv mavjud boʻlish sharti sifatida yonma-yon yuruvchi

---

<sup>1</sup> Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 15-бет.

<sup>2</sup> Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: MERIYUS, 2017. – 4-бет

<sup>3</sup> Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: :Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. Фарғона, 2018.

bunday omillar inson ongida voqelik obrazining hamrohlari sifatida birga gavdalanib, u bilan assotsiativ bog‘langan “zanjir”ni hosil qiladi”<sup>1</sup>.

Bizga ma’lumki, paradigmatic qatordagi so‘zlarni bir umumiy ma’no asosida birlashtirib turgan so‘z assotsiativ bog‘lanish hosil qiladi. Qolgan so‘zlar ana shu bir umumiy ma’no asosida birlashsa ham, har biri o‘ziga xos ma’no nozikligi bilan farqlanadi. Chunki birlashtiruvchi sema har bir a’zoni ma’lum mazmuniy uyaga birlashishini, farqlovchi sema esa uya tarkibidagi har bir a’zoning o‘ziga xosligini, alohidaligini ko‘rsatib turadi.

Haqiqatan ham, assotsiativ aloqalar ma’lum jihatlari bilan paradigmatic qatorlarga ham tutashadi. Masalan, bir-biriga yondosh bo‘lgan paradigmatic qatordagi ayrim leksemalar ikkinchisini xayolan gavdalantirishi mumkin: *chaqaloq* leksemasi kishi ongida birinchi bo‘lib *ona* siymosini ko‘z oldimizga keltiradi, ayni paytda, bu ikki leksemani “shaxs”, “oila” semalari asosida bitta mazmuniy uyaga birlashtirish ham mumkin.

Keyingi yillarda yaratilgan ayrim manbalarda sintagmatik va assotsiativ munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari alohida ahamiyat berilmoqda<sup>2</sup>.

A.Nurmonov to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganidek, so‘z sintagmatik munosabatga kirishishi bilan birga, nutq jarayonidan tashqarida boshqa so‘zlar bilan umumiylik belgisiga ko‘ra so‘zlovchi til xotirasida assosiasiyalashadi va assosiasiyalashgan birliklar xotirada muayyan guruh hosil qiladi<sup>1</sup>.

Generonimlar ham boshqa leksik birliklar kabi umumiy mazmuniy belgi asosida assotsiasiyalashadi va bunday assotsiativ bog‘lanish bir paradigmatic qatorni tashkil etadi.

Masalan:

*Xudo seni berganda quvonib, otamning ismini qo‘ymoqchi bo‘luvdim...  
Onang tug‘ruqxonadan chiqqanida qulog‘ingga azon aytirmoqchi bo‘luvdim,  
dadang aytirmadi* (T.Malik, Shaytanat).

---

<sup>1</sup> Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: MERIYUS, 2017. – 21-бет

<sup>2</sup> Синтагматические отношения и ассоциативные отношения // <https://studopedie.org/4-65730/html>

<sup>1</sup> Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдишлари ва йўналишлари, Андижон, 2006. – 58-бет

Ushbu matnda “yaralish” semasiga aloqador bo‘lgan *xudo bergan, ism qo‘yish, tug‘ruqxona, azon aytish* singari birliklar qatnashgan. Shu bilan birga, o‘zbek xalqi urf-odatlariga bog‘liq holda otasining ismini qo‘yishga ishora qiluvchi “naslni davom ettirish” semasi ham berilgan.

Tadqiqotchi N.Xoshimova assotsiativ maydonni jamoaviy va individual turlarga ajratadi va shunday ta’kidlab o‘tadi: “Individual assotsiativ maydon har qaysi shaxsda turlicha bo‘lishi bilan jamoaviy maydondan ajralib turadi. Shu bilan birga, individual assotsiativ maydonni ta’riflashda assotsiativ lug‘at yoki assotsiativ me’yor shakllanishi mumkin emas”<sup>1</sup>.

Bu yerda tadqiqotchi ma’lum jamiyat a’zolari ongida shakllanadigan umumiy holatlar bilan, ijtimoiylik asosida farqlanuvchi individual jihatlarni farqlashga harakat qiladi.

Assotsiatsiya tushunchasi zamirida til egasining xotirasidagi predmet tasavvuri tushuniladi<sup>2</sup>.

Tadqiqotchi U.Yigitaliyev ham “odam” va “jins” konseptining verballashuviga bag‘ishlangan izlanishlarida assotsiativ munosabat, assotsiativ maydon borasida alohida fikr yuritadi<sup>3</sup>.

U.Yigitaliyevning izlanishi bevosita o‘zbek tilida “odam” va “jins” konseptining namoyon bo‘lishi va unga assotsiativ bog‘langan lisoniy birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu tadqiqot nazariy-falsafiy tilshunoslikning qiziqarli va murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan assotsiativ talqinga qaratilgan.

U.Yigitaliyevning fikricha, assotsiatsiyaning asosiy funksiyalari psixologiyadan o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning psixofiziologik asosini bosh miyaning yarim pallasi qobig‘i qismlari orasidagi yo‘lning ochilishi va inson psixik harakatining murakkab shakllari negizi hisoblangan vaqtincha nerv aloqasining

---

<sup>1</sup> Xoshimova N.A. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. Фарғона, 2018. – 17-бет.

<sup>2</sup> <https://docplayer.ru/27467248-Russkiy-associativnyy-slovar.html>

<sup>3</sup> Йигиталиев У. Стилистик воситаларда “жинс” концептининг ассоциатив-вербал ифодаланиши// Илм сарчашмалари.– Урганч,2019.–№5. –Б.61-66; Йигиталиев У.С. Ўзбек тилида “одам” ва “жинс” концептлари билан боғлиқ ассоциатив –вербал бирликлар: Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. Тошкент, 2020.

shakllanishi tashkil etadi. Assotsiativ aloqalar shartli ravishda reflektiv va dinamik ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Assotsiatsiya tushunchasiga insonning ixtiyoriy, ongli va beixtiyor, ongsiz qatlamlarining to‘qnashuvi, bir jarayondan ikkinchisiga o‘tish doirasida izoh berish mumkin<sup>1</sup>.

Professor D.Lutfullayeva esa assotsiativ munosabatlar tizimida ularning leksik-semantik, grammatik, intonasion-akustik, derivasion, pragmatik xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiylik, milliy-madaniylik, gender belgilarini ham alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi<sup>2</sup>.

O‘zbek tilidagi generonimlar paradigmasiga mansub bo‘lgan “yaralish” semali harakat, shaxs, predmet, belgi ma’nosini anglatuvchi leksemalar asosida assotsiativ tajriba o‘tkazilganda, bu birliklar bilan “zanjirli” aloqaga kirgan turlicha leksemalar namoyon bo‘ldi.

Bizning tajribalar asosan 20-25 yoshdagi ayol jinsiga mansub respondentlarda o‘tkazildi. Stimul so‘z sifatida “harakat” semali *yaralish, tug‘moq, tug‘ilmoq, ko‘paymoq*, “shaxs” semali *chaqaloq, go‘dak, ona, bola*, “predmet” semali *sut, yo‘rgak*, “jarayon” semali *hayot, o‘lim* leksemalari olindi. Tajriba natijalaridan quyidagi holat kuzatildi:


*Tug‘moq, tug‘ilmoq* leksemalari bilan “zanjirli” aloqaga kirishgan *chaqaloq, ona, dard, to‘lg‘oq* leksemalari eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Shuningdek, *yangi hayot, ilk qadam, baxt, og‘riq* singari birliklar ham uchradi (1-rasm)<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Йигиталиев У.С. Ўзбек тилида “одам” ва “жинс” концептлари билан боғлиқ ассоциатив –вербал бирликлар: Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. Тошкент, 2020.


<sup>2</sup> Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: MERIYUS, 2017. – 104-105-бет

<sup>3</sup> Расмлар диссертация охирида илова қилинади.



1-расм

*Chaqaloq* soʻzi bilan assotsiativ aloqa sifatida *moʻjiza, baxt, begunoh murgʻak* tarzidagi soʻz va birikmalar koʻp miqdorni koʻrsatgan boʻlsa, *kasha(boʻtqa), alla, soʻrgʻich, beshik, ona baxti, individ, farishta, begʻuborlik, yigʻi* kabilar ham berildi (2-rasm).



2-расм

Misollarga e'tibor beramiz:

*Qadim Oltin beshik avlodi maskanisan,*

*Alisherlar, Ulug'beklar vatanisan* (M.Yusuf, Inshaalloh).

Keltirilgan parchada *beshik* leksemasi ko'chma ma'noda qo'llanilgan, bu yerda leksema tarkibidagi "boshlanish", "milliy", "joy" semalari konnotativ ma'no uchun asos bo'lgan.

*Alla aytsang ayvoningda uxlar quyosh,*

*Senga mudom iymon yo'ldosh, islom yo'ldosh* (M.Yusuf, Inshaalloh).

Bu o'rinda qo'llanilgan *alla* leksemasi ham shoirning subyektiv maqsadidan kelib chiqib, misralarga allaning ijobiy ta'siri xususidagi mazmun yuklatilgan.

*Ona* leksemasi bilan o‘tkazilgan tajribalarda *mehribon, mushtipar, buyuk zot* ifodalari yuqori darajani tashkil etgan bo‘lsa, *Vatan, uy, shirin so‘z, buyuk mehr egasi, yaratish, qahramon* singari birliklar kamroq uchradi.

*Sut* leksemasi bilan *ichimlik, sigir* leksemalarining aloqasi eng ko‘p miqdorni tashkil etgan bo‘lsa, *ozuqa, totli ne‘mat, suyuqlik, oqlik, kofe (qahva), bola* tarzidagi vositalar kamroq miqdorda ko‘zga tashlandi .

Tajribalar davomida *ona suti* birikmasining tahliliga ham e‘tibor qaratdik. Natijada *sut* va *ona suti* ifodalarining assotsiativligi o‘rtasida keskin farqlar kuzatildi.

Bizga ma‘lumki, *ona suti* birikmasi orqali *sut* leksemasi “yaralish” arxisemali paradigmaga mansub bo‘ladi. Masalan:

*Ayiqchalar odamlardan hayiqishmadi, ular tamshanib, o‘lik onalarining sut to‘la emchagini cho‘zib-cho‘zib emishar edi* (Sh.Xolmirzayev, Jarga uchgan odam).

Berilgan gapda *sut* leksemasi *ona suti*, aynan *ona ayiq* bilan bog‘liq holda qo‘llanilgan bo‘lib, bu yerda *sut* leksemasi biz tahlil qilayotgan “yaralish” arxisemali guruhga tegishli.

Umumiy tarzda *sut* leksemasi bilan “yaralish” semali birliklar bilan bir qatorda, *suyuqlik, qahva* singarilarning aloqasi kuzatilgan bo‘lsa, *ona suti* tarzidagi konkret ma‘no aksariyat holda *chaqaloq, bola, go‘dak* singari “yaralish” semali birliklarga tutashishi kuzatildi. Shu bilan birga, *poklik, halollik, mas‘uliyat* ma‘nolari bilan bog‘lanuvchi *ona sutidek oq, oq qilmoq, rozilik, burch* tushunchalari ham namoyon bo‘lishi kuzatildi (3-rasm).



3-расм

Masalan:

*Bolalik, men seni bir umr qalbda*

*Ona suti kabi saqlay muqaddas* (E.Vohidov, Bolalik).

*Bir Onaning ko'ragidan oq sut emib,*

*Bir Otaning etagidan taralgansan.*

(M.Yusuf, Turkiston madhiyasi)

*Hayot leksemasi bilan aniqlangan holat quyidagicha kuzatildi: eng ko'p aloqa yashash, oila, imkoniyat, baxt, sinov singarilar bilan, kam hollarda tug' ilmoq, tabiat, borliq, maydon, qaynash, savob va gunoh tarzidagi so'z va birikmalar bilan ko'zga tashlandi.*

Ayrim hollarda she'riy matnda shoir ifoda etilayotgan vaziyatni yorqinroq, ta'sirliroq ko'rsatish maqsadida bir necha o'zaro bog'liq tushunchani bildiruvchi so'zlarni birgalikda qo'llaydi. Masalan:

*Mana, qanday ekan otalik baxti,  
Turibman gullarim bilan panada.  
Bir mahalla bo'lg'usi faylasuflar,  
Olimlar chinqirar tug'ruqxonada.*

(M.Yusuf, Tug'ruqxonada).

Bu o'rinda qo'llanilgan *otalik*, *baxt*, *chinqirmoq*, *tug'ruqxona* so'zlari ma'nolari tarkibidagi "yaralish", "tug'ilish", "ko'payish", "farzand" semalari matndagi o'zaro birikishni ta'minlovchi, ularning mantiqiy aloqasini ko'rsatuvchi vositalar sanaladi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, generonimlarning assotsiativ bog'lanishi faqatgina bir umumiy ma'no asosidagina ro'y bermay, o'zaro zidlanish asosida ham yuzaga chiqadi.

"Tug'ilish" semali leksemalar o'z o'rnida o'lim, ya'ni "yo'q bo'lish" semali leksemalar bilan ham assotsiativ bog'lanish hosil qiladi. Shuningdek, har bir leksik birlik o'zaro alohida assotsiativ bog'lanish hosil qiladiki, ular boshqa juftlik bilan almashtirilganda, uslubiy yoki mantiqiy nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi: *tug'ilmoq-o'lmoq, dunyoga kelmoq-qazo qilmoq, ko'karmoq-qurimoq*.

Demak, bunday assotsiativ bog'lanishni e'tiborga olmay turib, generonimlar paradigmasidagi so'zlarni semantik jihatdan atroflicha tadqiq etib bo'lmaydi. Bu, albatta, "yaralish" semali generonimlar va "o'lim" semali nekronimlarni uzviy bog'liqlik asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligida nekronimlarga bag'ishlangan Sh.Qahhorovning ayrim maqolalari mavjud<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Қаҳҳоров Ш. Онимлар тизимида некронимларнинг ўрни хусусида// Филологиянинг долзарб муаммолари. Фарғона, 2008. – 200-204-бет; Қаҳҳоров Ш. Некроним ва некротопоним атамаларининг фарқлинишига доир // Филологиянинг долзарб муаммолари. Фарғона, 2008. – 204-207-бет.

Yuqoridagilarga asosan, ishimizda “yaralish” semali generonimlar bilan antisemik munosabatga kiruvchi nekronimlarni ham uzviy bog‘liqlikda tahlil etishga harakat qilamiz.

## 2.2. Generonimlar o‘rtasidagi antisemik munosabat

O‘zbek tilining leksik tizimida generonimlar ham muhim o‘rin tutadi. Generonimlarni struktur-semantik asosda tadqiq etishda mazkur paradigma doirasiga kirgan leksemalarni muayyan asoslar orqali ichki guruhlariga ajratish, ular o‘rtasidagi munosabatlarni mukammal tahlil etish katta ahamiyatga ega.

Sh.Iskandarovaning ko‘rsatishicha, “Antonimik guruhlar, ikki qismdan tashkil topib, ularning a’zolari, dominantolari bir-biriga ma’noning ma’lum komponentlari bilan qarama-qarshi qo‘yiladi: *katta-kichik*”<sup>1</sup>.

Olima ilmiy adabiyotlarda antonimik birliklar qarama-qarshiligining uch xil xususiyati mavjudligi ko‘rsatib o‘tadi:

a) eng chetdagi birliklar qarama-qarshi qo‘yiladi: to‘plamdagi boshqa birliklar ular orasiga tushishi mumkin, ular kontrar antonimlar deyiladi. Masalan: *yosh (o‘rta yosh) keksa*;

b) unda tur tushunchasini belgilovchi so‘zlar bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi: *birga - alohida*. Ular komplementar antonimlar deyiladi;

v) turli yo‘nalishdagi faoliyat, harakat, holatlar ifodalanadi: *kelmoq - ketmoq*, ular vektor antonimlar hisoblanadi<sup>2</sup>.

Yu.D.Karaulov esa Sinonim va antonimlar orasida o‘zaro bog‘liqlik bo‘lib, ular mazmuniy ma’no orqali umumiy belgiga ham ega bo‘lishini, ularni sinonimlarning antonimik, antonimlarning sinonimik qo‘llanishi sifatida izohlash mumkinligini ko‘rsatadi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Iskandarova Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007. – 34-бет.

<sup>2</sup> Iskandarova Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Тошкент: Фан, 2007. - 36-бет

<sup>3</sup> Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. М.: Наука, 1976.- С.86.

Olima M.Hakimovaning qayd etishicha, antonimik “munosabatga xalqimizning ko‘p asrlik madaniyati, ma’naviyati, dunyoni anglashi kabi qadriyatlar asos bo‘lgan. Zero, insoniyat o‘zini anglagan davrdan hozirgacha yaxshilik va yomonlik, hayot va o‘lim, haqiqat va haqsizlik kabi aksiologik juftliklar hayotni belgilovchi omil bo‘lib kelmoqda”<sup>1</sup>.

Xususan, generonimlar paradigmasidagi lug‘aviy birliklar o‘zaro antisemik munosabatga kirishadi. Generonimlarni mazmun jihatdan qanday paradigmalardan tashkil topganligi, bu maydonlarning ichki tuzilishi va tuzilish birliklarining o‘zaro munosabati, uzviy bog‘liqliklarini aniqlash ularning zidlanish munosabatlariga chambarchas bog‘lanadi.

O‘zbek tilshunosligida antisemiya hodisasi bo‘yicha monografik izlanish olib borgan D.Abdullayevaning ta’kidlashicha: “leksik birliklarning semantik tarkibida qarama-qarshilik munosabatiga asos bo‘la oladigan semalarning mavjud bo‘lishi antisemiya hodisasini belgilaydi. Lingvistik hodisa sifatida antisemiya antonimiyaga nisbatan keng qamrovga egaligi bilan xarakterlanadi. Har bir antonimik juftlik markazida antisemiya yotadi, biroq har qanday antisemik munosabat antonimiya bo‘la olmasligi mumkin. Antonimiya – antisemiyaning yuqori cho‘qqisidir”<sup>2</sup>.

“Leksikada ziddiyat enantiosemik birliklarda benihoya yorqin aks etadi, chunki bunday birliklarning semantik strukturasi bevosita ikki qarama-qarshi, zid ma’no joylashgan bo‘ladi”<sup>3</sup>.

Xususan, generonimlarning asosini “hayot” va “o‘lim” arxisemasi tashkil etadi. Paradigma tarkibidagi qolgan barcha lug‘aviy birliklar u yoki bu asosda mana shu sema atrofida birlashadi.

Generonimlarning antisemik munosabatlari haqida so‘z yuritganda, Y.Odilovning doktorlik dissertasiyasiga ham to‘xtalish o‘rinli. Ishda so‘z semantik

---

<sup>1</sup> Ҳақимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019. – 32-бет.

<sup>2</sup> Абдуллаева Д.А. Ўзбек тилида антисемия: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011. - 21-22-бет.

<sup>3</sup> Маҳмудов Н., Одиллов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият: (Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 17-б.

strukturasiidagi sinkretiklikka tayangan holda, o‘zbek tilshunosligida ilk bora shakl va mazmun nomutanosibligiga asoslangan murakkab hodisalardan biri sanalgan enantiosemiyaning maqomini belgilash masalasi o‘rtaga tashlanadi<sup>1</sup>.

Olim ushbu tadqiqoti orqali enantiosemiyaning lingvistik asimmetriyaga bo‘lgan munosabatini aniqlaydi. Y. Odilovning qayd etishicha, ichki qarama-qarshilik bilan bog‘liq enantiosemiyani antisemiya bilan “bir shaklga ikki qarama-qarshi ma’noning to‘g‘ri kelishi”<sup>2</sup> bog‘laydi.

Ma’lumki, so‘zning semantik strukturasi (ifodalovchi, ifoda, ifodalanmish) leksik sistemaning elementi sifatida belgilanadi. Sistemalararo munosabatdoshlik so‘zning semantik strukturasi o‘zgartiradi. Bu o‘zgarish ifodalovchida kuzatilsa, o‘z navbatida, ifodada (tushunchada) ham namoyon bo‘ladi. Generonimlar semalari tarkibidagi ayrim semalar o‘zaro differensial, ayni vaqtda, oppozitiv munosabatda bo‘ladi. Ana shu semalar birliklar o‘rtasidagi antisemik munosabatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Quyida o‘zbek tilidagi predmet, shaxs, belgi, jarayon anglatuvchi generonimlarning antisemik munosabatlariga to‘xtalib o‘tamiz. O‘zaro antisemik munosabatga kirishgan generonimlar quyidagicha ichki mazmuniy guruhlariga ajratilishi mumkin:

- “voqelik” semali generonimlarning antisemik munosabatlari: *hayot – o‘lim*;
- “shaxs” semali generonimlarning antisemik munosabatlari: *doya – g‘assol*;
- “belgi” semali generonimlarning antisemik munosabatlari: *bo‘g‘oz – qisir; tirik – o‘lik; sog‘ – xasta; bardam – zaif*;
- “jarayon” semali generonimlarning antisemik munosabatlari: *yaralish – yo‘qolish; kelish – ketish; ulg‘ayish – keksayish; qizarish – sarg‘ayish; yashnash – so‘nish(qurish)*.

---

<sup>1</sup> Одилов Ё.Р. Ўзбек тилида энантиосемия: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2016.

<sup>2</sup> Одилов Ё.Р. Ўзбек тилида энантиосемия: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2016. 12-бет

Birinchi guruhga kiruvchi “voqelik” semali *hayot* va *o‘lim* leksemalari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday beriladi:

**HAYOT** – yashash, mavjud bo‘lish, tiriklik; inson, hayvon, o‘simliklarning tug‘ilganidan (yuzaga kelganidan) o‘lgunga (yo‘q bo‘lgunga) qadar bo‘lgan fiziologik holati, tirik, mavjud, yashayotgan holati; yashash muddati umr<sup>1</sup>.

**O‘LIM** – inson yoki hayvon hayotining to‘xtashi; vafot, qazo; jon taslim qilish, jon berish jarayoni, vaqti<sup>2</sup>.

Masalan:

*Hayot va o‘lim oralig‘idagi juda ham qisqa masofani qanchalik mashaqqat bilan bosib o‘tganingni qandoq qilib unutay?! (S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim)*

Berilgan parchada *hayot* va *o‘lim* leksemalari ishtirok etgan bo‘lib, *hayot* lug‘aviy birligi tarkibidagi “yashash”, “tiriklik”, “umr”, “o‘tkinchi” semalari *o‘lim* leksemasidagi “yo‘q bo‘lish”, “tugash”, “boqiy” semalari o‘zaro zidlik uchun xizmat qiladi va ikki leksema o‘rtasidagi antisemiyaning yuqori darajasi bo‘lgan antonimik munosabatni shakllantiradi.

Shaxs umumiy belgisi bilan birlashgan *doya*, *g‘assol*, *go‘rkov* singari leksemalar ham bir-biri bilan antisemik munosabatga kirishadi. Mazkur birliklar “shaxs” arxisemasi bilan “kasb-kor” semasi ostida birlashadi. Bu leksemalarning zidlanishi uchun ular o‘rtasidagi assotsiativ munosabatlar hisobga olinishi zarur.

*Doya*, *g‘assol*, *go‘rkov* kabi leksik birliklarning assosiatlari sifatida olinadigan *chaqaloq*, *tug‘dirish*; *murda*, *yuvish*, *ko‘mish* leksemalari o‘zaro antisemik munosabat uchun asos bo‘ladi. Ya’ni: *chaqaloq* – *murda*; *tug‘dirish* – *yuvish*, *ko‘mish* tarzida zidlanadi.

Ba’zan she’riy matnlarda bir-biriga zid bo‘lgan antisemik birliklar o‘ziga xos falsafiy mazmun uchun xizmat qiladi:

*Beshik keltirilgan uyga qachondir*

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 475-бет

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 149-бет

*Yutoqqan qop-qora tobut keladi* (B. Iso, Fano dunyosi).

Bu yerda *beshtik* va *tobut* leksemalari qoʻllanilgan boʻlib, *beshtik* leksemasidagi “boshlanish”, “ibtido” semasi, *tobut* leksemasi tarkibidagi “oxir”, “intiho” semalari bir-biriga antisemik munosabatda qoʻllanilgan.

*Bir kelmakning bir ketmagi bor degan gapga qandoq koʻnikay!*(S.Ahmad, Yoʻqotganlarim va topganlarim)

Berilgan gapda *kelmak*(*kelmoq*, *kelish*) hamda *ketmak* (*ketmoq*, *ketish*) leksik vositalari ishtirok etgan boʻlib, *kelmak* leksemasi hayotga kelish, yashash maʼnosini bildirib, leksema tarkibidagi “tugʻilish”, “boshlanish”, “yashash”, “mavjudlik” semalari oʻlmoq maʼnosini anglatuvchi *ketmak* leksemasining “oʻlish”, “tugash”, “yoʻqlik” semalariga zidlanadi va bu birliklarning antisemik munosabatlari namoyon boʻladi.

Y. Odilov enantiosemik birliklar tahlili doirasida *bitmoq* soʻzi haqida fikr yuritar ekan, shunday taʼkidlaydi: “Mazkur soʻzning “paydo boʻlmoq, yuzaga kelmoq” va “tugamoq, yakun topmoq” maʼnolari oʻrtasidagi qarshilanish nominativ enantiosemiyani yuzaga keltiradi. Qiyoslang: - *Faqat hali boʻyida boʻlmay turib, oʻzining peshonasiga ham kundosh bitdi* (Choʻlpon, “Kecha va kunduz”), *Ular urush muvaffaqiyatsiz bitsa, oʻsha yurtlarning parcha-parcha boʻlib ketishidan qoʻrqadilar* (Choʻlpon, “Kecha va kunduz”)”<sup>1</sup>.

*Shu paytlarda Shayxzodaning “Oʻlganda yuz soat yigʻlab turgandan, uni tirigida bir soat yoʻqlang” degan satrlari yodga tushadi* (S.Ahmad, Yoʻqotganlarim va topganlarim).

Berilgan gapdagi *oʻlganda* va *tirigida* generonimlari *yigʻlab turmoq* va *yoʻqlamoq* ifodalari bilan sintagmatik munosabatga kirishib, ularning semalari orasidagi “hayot” va “oʻlim”, “afsus” va “taskin” semalari antisemik munosabatga kirishmoqda. Garchi *tirik* va *oʻlik* leksemalari oʻzaro antonimik munosabatga kirishsa-da, *oʻlganda* va *tirigida* soʻzlari antonimik munosabatda emas. Ammo

---

<sup>1</sup> Одилов Ё.Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 113-бет.

antisemiya antonimiyaga nisbatan keng hodisa bo‘lib, yuqoridagi ikki birlik “hayot” va “o‘lim” semalari bilan antisemik munosabatda kelyapti.

*Butun dunyo matbuoti sahifalaridan tushmaydigan, kinolentalariga rangli-rangsiz tasvirda tushirilgan, shimoliy qutbdan to Afrikagacha aylanib chiqqan, hatto okean ortida necha martalab namoyish qilingan bu manzaralardan endi qurib qolgan chinoru, bo‘shab, huvillab yotgan laylak uyasigina qolgandi* (S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim).

Ko‘rinib turibdiki, generonimlar insoniyat va hayvonot olamidan tashqari o‘simliklar doirasida ham kuzatiladi. Keltirilgan parchada *qurib qolgan* birikmasi daraxtga, chinorga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, uning ziddi sifatida *ko‘karmoq* leksik birligini keltirish mumkin. Ular o‘rtasidagi antisemik munosabat “unish”, “o‘shish”, “yashnash” hamda “suvsizlanish”, “yo‘qolish” semalari yordamida reallashadi.

Yuqoridagi ichki guruhlar doirasida “jarayon” semali generonimlarning tarkibidagi *qizarish – sarg‘ayish* juftligidagi antisemik munosabat ta’kidlab o‘tildi. Chunki o‘zbek tilidagi qator rang-tus anglatuvchi leksemalar ko‘p hollarda generonimlar bilan bir maqomga ega bo‘ladi. Masalan, *yuziga qizil yugurmoq, yuzi oqarmoq, sarg‘aymoq, ko‘karmoq* birliklari insonga xos biologik holatni anglatadi. Ayni vaqtda ular o‘rtasida ham antisemik munosabat kuzatiladi: *yuziga qizil yugurmoq – sarg‘aymoq, yuzi oqarmoq* tarzida. *Yuzi oqarmoq* birikmasi tarkibida “qo‘rqish” semasi ham mavjud. Ammo keyingi zidlikka asos sifatida birikma tarkibidagi “rangsizlanish”, “holsizlanish” semalari vosita bo‘lyapti: *yuziga qizil yugurmoq (sog‘ayish) – yuzi oqarmoq (xastalanish)*. Masalan:

*Soy keng bo‘lib, unda o‘shib yotgan yulg‘unlar sarg‘ayib, guldari qaytgan edi* (Sh.Xolmirzayev, Biz kech qolib yuramiz).

Keltirilgan parchada *sarg‘aymoq* leksemasi o‘simlikka nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, uning tarkibidagi “nihoyalash”, “xazon bo‘lish” semalari *qizarmoq* leksemasi bilan antisemik munosabatga kirishmoqda.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, *ko'karmoq* generonimi dastlabki denotativ ma'nosi bilan o'simliklarga oid leksemalarga taalluqli bo'lsa, qurshov doirasida konnotativ ma'no ham kasb etadi va insonga nisbatan ham qo'llaniladi.

Masalan:

*Yo parvardigor ne gunohim bor ediki, o'z pushti kamarimdan to'ragan farzand ta'nayu malomat chilviri bilan mani bo'g'sa!.. Iloyo ko'karmagaysan, iloyo tirnoqqa zor bo'lgaysan, - deganda tanish mirshablar ham yig'lab yubordilar, turmaning toshlari ham bu faryoddan erib ketgandek bo'ldi...*  
(S.Ahmad, Yo'qotganlarim va topganlarim)

*Ko'karmoq* leksemasining “o'simlik”, “harakat”, “yashnash”, “o'sish” singari semalaridan “harakat”, “yashnash”, “o'sish” semalari ko'chma ma'no uchun asos bo'lgan. Bu o'rinda *ko'karmagaysan* inkor fe'li orqali qarg'ash ma'nosi berilyapti va uning “qurish”, “so'lish”, “so'nish”, “nobud bo'lish” semalari ifodalanmoqda.

*Dalalarim... bolaladi! To'qqiz kunu, to'qqiz soatda bolaladi.*

(T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Berilgan parchada *bolalamoq* leksemasi *dalalarim* so'ziga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, ijodkor bu o'rinda chigit ekilishidan boshlab, dalalar hosil bergunga qadar bo'lgan davri haqida (to'qqiz) majoziy xarakterda fikr ifoda etyapti.

Xullas, generonimlar paradigmasida bir-biri bilan o'zaro oppozitiv munosabatda bo'lgan birliklarning o'zni juda muhim bo'lgani sababli, tabiiy ravishda, ularning antisemik munosabatlari ham bu birliklarning lingvistik xususiyatlarini yoritishda katta rol o'ynaydi.

### 2.3. Generonimlarning badiiy nutqdagi o‘rni

Bizga ma’lumki, leksema til birligi bo‘lib, abstrakt mohiyat (invariant) sifatida o‘zida minglab variantlarni saqlaydi. Nutqda uning variantlaridan biri namoyon bo‘ladi va o‘zida boshqa variantlarda kuzatilmaydigan nominativ va emotiv semani ifodalaydi.

M.Hakimov matnning pragmasemantik xususiyatlari borasida so‘z yuritar ekan, keyingi yillarda lingvosemantik, lingvosemiotik va lingvopragmatik yo‘nalishdagi tadqiqotlarning aktuallashayotganligini ko‘rsatar ekan: “Ma’lumki, predikativ shakllar gapning mazmuniy strukturasi shakllantiradi. Ifodaning mazmuniy struktur sathida so‘zlovchi yoki tinglovchining ichki maqsadi o‘z aksini topadi. Ana shu mazmuniy sathga xos so‘zlovchining kommunikativ niyati sathning semantik, pragmatik va semiotik birliklari sifatida ushbu tadqiqot mohiyatini tashkil qiladi”<sup>1</sup>, – deb ta’kidlaydi.

Har bir til birligi nutqda boshqalardan ifoda usuli, talaffuzi, vaqti, o‘zining qurshovi, funksiyasi bilan farq qiladi. Bu hol, ayniqsa, poetik nutqda yorqin ko‘rinadi.

“Tilning ijtimoiy funksiyasi umumtil munosabatlaridan kelib chiqadigan fikrlar, xulosalar majmuasi bilan shakllangan holda aniq, to‘laqonli ma’no kasb etadi, umuman, ijtimoiy funktsiya talablariga javob beradi. Tilning vazifaviy funksiyasi, uning boshqa funksiyalaridan farqli ravishda, insoniyatning ijtimoiy hayot munosabatlariga xizmat qilishini til faktorlari orqali aks ettirishidir. Chunki tilning vazifaviy jihatlari ekspressivlik, estetik xususiyatga ega”<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, til aloqa vositasi sifatida muayan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasi bo‘lib qolmay, balki tinglovchiga ta’sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an’anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning

---

<sup>1</sup> Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент: Akadempnashr, 2013. – 73-бет.

<sup>2</sup> Алпанова Ш. Ўзбек тилида рухий ҳолатнинг акс этиши. Тошкент: Akadempnashr. – 2019. – 109-бет.

o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o'rganish obyektidir<sup>1</sup>.

Leksik, morfemik kategoriyalarni, so'z yasaliş va sintaktik strukturalar va poetik til kategoriyalarini ham semantik tahlil qilishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda<sup>2</sup>. Chunki har qanday so'z o'z va ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Bunday xususiyat faqatgina terminlar va tilga yangi kirib kelgan so'zlargagina xos bo'lmaydi. Negaki, termin fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga oid tushunchani aniq ifodalovchi so'z bo'lib, unda so'zning ko'p ma'noli xususiyati cheklanadi. Tilga yangi kirib kelgan so'zlarda esa ma'no ko'chish hodisasi ro'y bermagan bo'ladi. Tildagi boshqa so'zlar nutqda o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llanadi.

Bilamizki, so'zning o'z ma'nosida keng qo'llanilishi ilmiy nutqqa xos bo'lsa, ko'chma ma'noda qo'llanilishi so'zlashuv va badiiy nutqda ko'p uchraydi. Har qanday so'zni umumiy ma'nosi birlashtirib turadi. "Har bir leksemaning mazmuniy mundariyasi birlashtiruvchi va farqlovchi semalar munosabatidan tashkil topadi. Birlashtiruvchi sema bu leksemaning muayyan leksik-semantik guruhga mansubligini, farqlovchi sema esa ma'lum leksik-semantik guruh tarkibidagi ushbu leksemaning o'ziga xosligini ifodalaydi"<sup>3</sup>. Bu xususiyat generonimlar uchun ham xos bo'lib, ularning qaysi semasi bilan nutqda qo'llanishidan qat'iy nazar, birlashtiruvchi semasi ularni umumlashtirib turadi.

O'zbek tilshunosligida lingvopragmatik yo'nalishdagi tadqiqotlarning kengayishi orqali "til birliklarining semantik strukturasi tekshirish va pragmatik-konnotativ ma'nolarni chegaralash, bu ma'nolarning nutqda reallashuvida til vositalarining o'rnini belgilash kabi qator muammolar yuzasidan qimmatli asarlar maydonga keldi. Albatta, tilshunosligimiz qo'lga kiritayotgan bu kabi yutuqlar

---

<sup>1</sup> Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати. Танланган асарлар. 3 жилдлик. I жилд. Тошкент: Akadempnashr, 2012. – 163-бет

<sup>2</sup> Новиков Л.А. Семантика русского языка. М.: Высшего школа, 1982. – С.5.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Лексеманинг мазмуний мундарижаси. Танланган асарлар. 3 жилдлик. III жилд. Тошкент: Akadempnashr, 2012. – 149-бет

nafaqat fanimiz, milliy qadriyatlarimiz rivojiga ham munosib hissa bo‘lib qo‘shildi”<sup>1</sup>.

Har qaysi nutq uslubining o‘ziga xos jihatlari ma’lum matnlar orqali namoyon bo‘ladi. Sinonimik birliklarning ayrimlari rasmiy yoki ilmiy uslubga, ayrimlari badiiy yoki so‘zlashuv uslubiga tegishli bo‘ladi.

G‘.Rahmonovning ta’kidlashicha, “Sinonimiya hodisasi tadqiqiga bag‘ishlangan keyingi tadqiqotlarda “ma’nosi aynan bir” ta’rifidan voz kechildi, sinonimiyada kuzatiluvchi ma’noviy farqlarga, uslubiy xoslanish belgisi, konnotasiyaning ifodalanishi kabi jihatlarga ham e’tibor qaratila boshlandi”<sup>2</sup>.

G.Muhammadjonova esa sinonimlarning badiiy nutqdagi o‘rnini izohlar ekan, “sinonimlar nutqning ta’sirchanligini oshirishdan tashqari, uslubni suyuqlashtiradigan qaytariqlardan forig‘ bo‘lish rolini ham o‘ynaydi”<sup>3</sup>.

Mustaqillik davri dostonlarining lingvopoetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotida M.Qurbonova sinonimlarning dostondagi o‘rni xususida so‘z yuritar ekan, “Sinonimlar mustaqillik davri dostonlari tilida ham muhim omil bo‘la olganligi kuzatildi. Ular:

a) dostonlar tilining rang-barang ma’no qirralarini kashf etadi, boy va jozibador qiladi;

b) qaytariq va takrorning oldini olib, musiqiylik va ohangdorlikni ta’minlaydi;

v) poetik vazn va qofiya hosil qilishda asosiy omillardan biri sanaladi”<sup>4</sup>.

Professor D.Xudoyberganovanning ta’kidlashicha, matnda “til egasining salohiyati, voqelikni til vositasida ifodalash imkoniyatlari boshqa til birliklariga qaraganda yaqqol namoyon bo‘ladi”. Bular orasida “badiiy matnda tilning boshqa

---

<sup>1</sup> Максумова С.С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф.Тошкент, 2012. – 3-бет

<sup>2</sup> Раҳмонов Ф.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. – Фарғона, 2019. – 11-бет.

<sup>3</sup> Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф.. – Тошкент, 2004.- 10-бет

<sup>4</sup> Қурбонова М.О. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикаси: Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. – Фарғона, 2019. – 16-бет.

tillardan o‘zgacha xususiyatlari, til sohiblarining obrazli tafakkur tarzi va o‘sha tilning ifoda imkoniyatlari aniq ko‘zga tashlanadi”<sup>1</sup>.

Odatda rasmiy va ilmiy uslubga tegishli leksemalar uslubiy neytral, betaraf, so‘zlashuv va badiiy uslubga tegishli birliklar esa uslubiy xoslangan bo‘ladi. Uslubiy xoslangan leksemalar ham, o‘z navbatida, uslubiy ijobiy yoki salbiy ottenkaga ega bo‘lishi mumkin. Bu holat, tabiiy ravishda, generonimlarda ham kuzatiladi.

M.Qahhorova o‘zbek tilidagi *farzand*, *bola*, *zurriyod* singari birliklar haqida so‘z yuritib, bu lug‘aviy birliklar o‘rtasidagi zidlanish uslubiy xoslanish asosida bo‘lib, bulardan birinchisi uslubiy betaraf (*farzand*, *bola*), ikkinchi (*zurriyod*) va uchinchi (*nonxo‘r*) a‘zolar esa uslubiy xoslangan bo‘ladi. O‘z navbatida, *zurriyod* va *nonxo‘r* lug‘aviy birliklari ham qaysi uslubga taalluqliligi asosida zidlanadi, ya‘ni *zurriyod* leksemasi kitobiy uslubga xosligi bilan, *nonxo‘r* lug‘aviy birligi so‘zlashuv uslubiga xosligi bilan farq qiladi, deb ko‘rsatadi<sup>2</sup>.

Shoir E.Vohidov ijodida *farzand* so‘zining *jujuq* varianti qo‘llanilgan:

*Uyginamda jujuqlarni bag‘rimga bosib,*

*Televizor ko‘rib yotsam bo‘lmasmidi-ya!* (E.Vohidov, Istanbul fojiasi)

O‘zbek tilidagi “yaralish” arxisemali leksemalar badiiy nutqda o‘zining denotativ va konnotativ ma‘nolari orqali namoyon bo‘ladi. Masalan:

*Tug‘ib bersin tozang, ilohang,*

*Tug‘ib bersin mayliga, mingta,*

*Bu dunyodan bir kuni o‘tsang,*

*Butun bir xalq qolsin ortingda*

(B.Iso, Bolang bo‘lsin).

Berilgan satrlarda *tug‘moq* va uning ziddi bo‘lgan *o‘tmoq* leksemalari ishtirok etgan bo‘lib, bu yerda *tug‘moq* leksemasi o‘zining “ko‘payish”, “nasl

<sup>1</sup> Худойберганава Д. Тил. Тафаккур. Маданият. Тошкент: Nodirabegim. – 2020. – 109-бет.

<sup>2</sup> Каххарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.авторреф. Тошкент, 2009. – 17-бет.

qoldirish”, “davomiylik” singari, *o‘tmoq* leksemasi esa “ketish”, “vafot etish” semalari orqali yuzaga chiqmoqda.

*Yana birlari qo‘sha-qo‘sha o‘g‘illar ko‘rishni Yaratgandan so‘raydi* (T.Malik, Shaytanat).

Bu yerda qo‘llanilgan *o‘g‘il ko‘rmoq* birikmasi tarkibidagi “paydo bo‘lish”, “ko‘payish”, “nasl qoldirish” semalari *qo‘sha-qo‘sha* takroriy so‘zi bilan miqdorning ko‘pligiga ishora qiladi va mazkur semani yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

*Mulki borliq ichra bir mahal*

*Ko‘rksizgina olam yaralgan.*

*Bermoq uchun dunyoga sayqal*

*Olam aro odam yaralgan* (E.Vohidov, Go‘zallik).

Generonimlarning konnotativ xususiyatlari ko‘proq badiiy nutqda kuzatiladi. Ayniqsa, she‘riy nutqning ifoda imkoniyatlari keng bo‘lganligi uchun generonimlar va ularning ma‘no tovlanishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. She‘riy nutqda generonimlar badiiylikni ta‘minlovchi poetik vosita funksiyasini bajaradi. Chunki generonimlarda ibtido va intihoning o‘zaro ziddiyati, shuningdek, ular o‘rtasidagi davomiylik semalari mavjud bo‘ladi. Ana shu semalardan biri namoyon bo‘lishi bilan assotsiativ tarzda uning ziddi xayolga keladi va ta‘sir etish funksiyasini kuchaytiradi. Bunda so‘zning til birligi sifatidagi va, ayni vaqtda, belgi sifatida boshqa predmetlar bilan munosabati kabilarni ifodalovchi semantik strukturasi mavjud bo‘lgan yashirin semalari yuzaga chiqadi. Chunki poetik nutqda so‘z o‘zining barcha semalarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Poetik nutqning bu qudratini har bir ijodkor nazardan chetda qoldirmaydi.

She‘riy matnlarda qo‘llanilgan generonimlarning sinonimik variantlari badiiy uslub talabi bilan butun matnga alohida jozibadorlik bag‘ishlaydi:

*Senda bo‘lmasaydi sehru qodirlik,*

*Jon ato etmasding oddiy kesakka* (B.Iso, Hayrat mevasi).

Ushbu parchada *jon ato etmoq* birikmasining ma'nolari tarkibida "yaralish", "davomiylik" semalari mavjud bo'lib, bu o'rinda shoir kulolning mehnati, iste'dodiga yuksak baho berar ekan, majoziy ma'noda kesakka jon bag'ishlash tushunchasini ifoda etgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "yaralish" semali generonimlar odatda "jonli" semasiga ega bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi birliklar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. She'riy matnlarda qo'llanilgan generonimlarda esa bunday farqlanish kuzatilmaydi.

Masalan:

*Ustoz yuragida she'r tug'ilmogda,  
Dunyoga kelmogda bir munis g'azal.*

(E.Vohidov, Fuzuliy haykali qoshida).

Shoir E.Vohidovning ayni shu she'rida generonimlarning ziddi bo'lgan nekronimlarni qo'llashda ham o'ziga xoslik kuzatiladi:

*Karbalo dashtida yayov kezishdan  
Charchab tin olmogda Fuzuliy ustoz.*

Shuningdek, *tug'mog* leksemasi ko'chma ma'no ifodasi uchun xizmat qiladi:

*Vahshat vodiysida kechdi asrlar  
Aljabr ustodin tuqquncha yering.*

(E.Vohidov, O'zbekiston).

Generonimlarda ma'no jilolarining namoyon bo'lishi ko'proq poetik nutqqa xos. She'riy nutqda generonimlar badiiylikni ta'minlovchi poetik unsur (detal) darajasiga ko'tariladi.

*Yashash aziz hissi dilda kezganda,  
Umr ko'pi kechib, armon dilni ezganda,  
Hatto o'zni xasta, zaif sezganda,  
Og'ir, benaf o'ydan yurak bezganda,  
Seni kuylayman, hayot!*

(Zulfiya, Seni kuylayman, hayot)

She’rdagi *yashamoq, umr, hayot* leksemalarini mavjudlik, borlik, “tiriklik” semasi umumlashtirib turadi. Bu semalar mazkur leksemalarni “tiriklik” semasi asosida bir leksik-semantik guruhga birlashtiradi.

She’rda generonimlar *yashash, umr, hayot, xasta, zaif* kabi boshqa leksik-semantik guruhga mansub leksemalar bilan ham bir mazmuniy maydon hosil qiladi. Garchi *xasta, zaif* so‘zlarida generativ sema yaqqol namoyon bo‘lmasa ham, bu leksemalarning arxisemasida bu semalar mavjudligi uchun poetik nutqqa kirganda, ularning ana shu semasi poetik figura darajasiga ko‘tariladi, bu esa she’rning badiiyligini ta’minlaydi. Chunki *xastalik, zaiflik* ham tiriklikka xos xususiyat bo‘lib, bu xususiyat mazkur leksemalarni *yashamoq, umr, hayot* leksemalari bilan bir mazmuniy maydonga, generonimlar maydoniga birlashtiradi.

Ijodkor generonimlarni she’riy satrlarning ma’lum o‘rnida qo‘llashi bilan poetik xulosa chiqaradi, ya’ni birinchi misra boshida *yashamoq*, ikkinchi misra avvalida *umr* leksemalarining kelishi, misralar o‘rtasida *kechmoq, xasta, zaif*; misra so‘ngida qofiya sifatida *kezganda, ezganda, sezganda* so‘zlarining qo‘llanilishi va she’rning mazkur bandi *hayot* so‘zi bilan tugallanishi she’rda optimizm – kelajakka umid, hayotga muhabbat g‘oyalarini ifodalaydi. She’rning ikkinchi bandida generasiyaning ibtidosi *tug‘ilmoq* leksemasining qo‘llanilishi she’rning optimistik ruhini bir pog‘ona yuqoriga ko‘taradi:

*Har sahifang o‘qilgan yangi bir kitob,*

*O‘tmishmi, ertami tug‘ilar har bob.*

*Yashash va yozishga qilganda xitob.*

*Sukut hijolatin bitmoq azmida*

*Seni kuylayman, hayot!*

(Zulfiya, *Seni kuylayman, hayot*)

*O‘qimoq* leksemasi asli so‘z, jumla, gap, matn va sh.k ning yozma shaklini ichda yoki og‘zaki ifodalamoq<sup>1</sup> ma’nosini bildiradi. Ammo she’rda bu leksema generativ ma’no ifodalaydi. Uning bu ma’nosi *tug‘ilmoq* leksemasi semasi asosida

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 190-бет

oydinlashadi, ya'ni o'tgan umr ma'nosini ifodalaydi. Keyingi bandlardagi *farzand*, *umr* leksemalari esa generativlik ma'nosini bo'rttirish bilan birga, hayotga muhabbat falsafasini poetik tafakkur darajasiga olib chiqadi.

Matndagi *tug'ilmoq*, *yashamoq*, *o'qilmoq*, *kechmoq*, *hayot*, *umr*, *xasta*, *zaiif* kabi so'zlar kontekstda bir semantik paradigmani tashkil etadi. Chunki bu so'zlarni bir umumiy ma'no asosida birlashtirib turgan so'z (*tug'ilmoq*) assotsiativ bog'lanish hosil qiladi. Qolgan so'zlar ana shu bir umumiy ma'no asosida birlashsa ham, har biri o'ziga xos ma'no nozikligi bilan farqlanadi. Chunki birlashtiruvchi sema har bir a'zoni ma'lum mazmuniy uyaga birlashishini, farqlovchi sema esa uya tarkibidagi har bir a'zoning o'ziga xosligini, alohidaligini ko'rsatib turadi <sup>1</sup>.

She'riy matnlarda *yaralish* so'zining o'zi ham badiiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadida qo'llaniladi:

*Men yaralgan makon emasdir jannat,*

*Men tug'ilgan zamon emas pursafo.*

(E.Vohidov, Iltijo).

“Yaralish” arxisemali generonimlar badiiy matnlarda nasrda ham yozuvchining ijodiy niyatiga ko'ra badiiy ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Masalan:

*Shunaqangi erkaklar borki, qirqta urg'ochi shaytonni bolalatib tashlaydi*  
(O'.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar).

Bu o'rinda *bolalatmoq* leksemasi tarkibidagi “*tug'dirmoq*”, “*ko'paytirmoq*” singari semalar yuzaga chiqqan bo'lib, yozuvchi parchada ayrim kishilarga xos bo'lgan ustamonlik, munofiqlik, axloqsizlik xislatlarini qoralash, kuchaytirish uchun bu so'zni *qirqta urg'ochi shayton* birikmasi bilan birga qo'llagan.

Sh.Toshxujayevaning ta'kidlashicha, “lingvopoetik strukturada muallifning kommunikativ niyati va maqsadi, hozirjavoblighi, qahramonlar ruhiyati hamda xarakteriga xos bo'lgan jihatlar aks etadi. Shuning uchun ham badiiy asarning har

---

<sup>1</sup> Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология, Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 10-бет.

qanday shakli shoir yoki yozuvchining poetik mahorati asosida lisoniy birliklarning mazmuniy strukturasi joylanadi”<sup>1</sup>.

Yuqorida generonimlar bilan o‘zaro assotsiativ munosabatga kirishgan birliklar orasida *bola, yo‘rgak, doya, oq sut, beshik* singari birliklarga alohida e’tibor qaratilganligi qayd etilgan. Bu leksemalar she’riy nutqda konnotativ ma’no ifodasi uchun xizmat qiladi. Masalan:

*Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni,*

*Oq yuvib oq taragansan o‘zing bizni.*

(M.Yusuf).

Berilgan parchada *yo‘rgak* leksemasining “o‘ramoq”, “himoyalamoq”, “o‘stirmoq” singari semalari ko‘chma ma’noga asos sifatida xizmat qilgan. Bu she’riy parchada shoir Vatanni onaga qiyoslar ekan, xuddi ona farzandini asrab-avaylab o‘stirgani kabi Vatan ham onadek farzandni avaylab voyaga yetkazadi deb ifodalagan.

Shuningdek, *doya* leksemasi ham badiiy matnda ijodkorning o‘ziga xos subyektiv maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

*Nodonlik razolatning onasi emas-ku, doyasi bo‘lishi mumkin* (O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar).

Bu o‘rinda qo‘llanilgan *doya* leksemasining “parvarishlovchi”, “enaga” semalari uslubiy maqsad uchun vosita vazifasini bajargan.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, generonimlarning assotsiativ bog‘lanishi faqatgina bir umumiy ma’no asosidagina ro‘y bermay, o‘zaro zidlanish asosida ham yuzaga chiqadi. Bunday birlashish avval idrok qilingan qarama-qarshi sifatlarga ega bo‘lgan narsa va hodisalarning birortasini takror idrok qilish yoki tasavvur qilish munosabati bilan boshqalari obrazlarining ixtiyorsiz ravishda ongimizda gavdalanishidan iborat qonuniyat<sup>2</sup> asosida ro‘y beradi.

<sup>1</sup> Тошхужаева Ш.Ф. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фанл. бўй. фалс. доктори... дисс.автореф. – Фарғона, 2017. – 12-бет.

<sup>2</sup> Турғунов Қ Психология терминларининг русча-ўзбекча луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1975, 20-бет

“*Tug‘ilish*” semali leksemalar o‘z o‘rnida *kechmoq* (o‘tgan umr), ya’ni “*yo‘qolish*” semali leksema bilan ham assotsiativ bog‘lanish hosil qiladi.

Shuningdek, she’riy matnda har bir leksik birlik o‘zaro alohida assotsiativ bog‘lanish hosil qiladiki, ularni boshqa juftlik bilan almashtirilganda, uslubiy yoki mantiqiy nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi: *tug‘ilmoq-o‘lmoq, yashamoq-o‘lmoq, o‘qilgan-yashamoq, yashamoq-kechmoq (o‘tgan), hayot-o‘lim, umr-o‘lim, xasta-sog‘, zaif-bardam* kabi. Ana shu o‘zaro zidlanishni e’tiborga olmay turib, badiiy matnda semantik paradigma hosil qilgan so‘zlarni poetik unsur sifatida atroflicha tadqiq etib bo‘lmaydi.

Lirik asarlarda “yaralish” semali *tug‘ilmoq* leksemasining turli variantlari qo‘llaniladi:

*Ey, meni olamga keltirgan qismat,  
Jonlar volidasi – ey, oliy momo!*

(E.Vohidov, Iltijo)

Badiiy matnda, ayniqsa, she’riyatda generonimlar turli konnotativ ma’nolarni anglatib, o‘ziga xos ta’sirchanlikni beradi:

*G‘unchadek chehrangga Erkin  
Jon fido etgay, sanam.  
Qatra qonidan gul unsin  
To muhabbat bog‘ida.*

(E.Vohidov, Tun bilan yig‘labdi bulbul)

Ayrim matnlarda shoir o‘ziga xos majoziy obrazlar yaratishi ham mumkin:

*Xushomad –  
Odamning o‘zi suymagan,  
Boshqalarga esa  
Suyumli bo‘lgan bolasi...  
Riyokor otaning  
Boshqalar uchun  
O‘zi tug‘ib olgan*

*Bolasi...* (B.Iso, Xushomad)

Bu o‘rinda *tug‘ib olgan* ifodasi xushomadga berilgan she‘riy ta‘rif bo‘lib, ko‘chma ma‘no anglatyapti. Bu yerda *bola* leksemasi bilan xushomad tushunchasining “yaralish” semasi yetakchilik qilmoqda.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ayrim hollarda she‘riy matnlarda generonimlarning o‘zigina emas, balki ular bilan sintagmatik munosabatga kirishuvchi leksemalar ham uslubiy xoslangan bo‘lishi kuzatiladi.

Masalan:

*Gavhar undi ona tuproqdan*

*Qutlug‘ bo‘ldi muazzam bu yer.*

(E.Vohidov, Ona tuproq).

Keltirilgan she‘riy parchada *unmoq* generonimi ishtirok etgan. She‘rning badiiy ta‘sirchanligini oshirish maqsadida shoir tuproqdan unib chiqayotgan o‘simlikni gavharga tenglashtiryapti. Bu yerda *gavhar* leksemasiga xos “noyoblik” belgisi berilgan, aynan ona tuproqdan unib chiqayotgan o‘simlikning qimmati gavhar orqali yoritilgan.

Generonimlar, ta‘kidlab o‘tilganidek, “o‘simlik” semali birliklar bilan bog‘lanib, “yaralish”, “davomiylilik” semalariga ham ega bo‘lishi mumkin. She‘riy matnlarda bu holat konnotativ ma‘no uchun xizmat qiladi:

*Muhabbat nogahon dilda*

*Yozib kurtak, ochibdir gul,*

*Umidvor Erkining, jono,*

*Bu guldan bir samar bo‘lg‘ay* (E.Vohidov, Samar bo‘lg‘ay).

Keltirilgan parchada *kurtak yozmoq, gul ochmoq* birikmalari abstrakt tushuncha – muhabbatga nisbatan qo‘llanilgan, ularni birlashtiruvchi sema “paydo bo‘lish”, “davomiylilik” singarilar she‘riy ta‘sirchanlik, so‘zning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

*Sevgiga she‘r bitding, Erkin,*

*Besabab ermaski, ishq –*

*Aylagach ko'ngulni ishg'ol,  
She'r ila mashg'ul qilur.*

(E.Vohidov, Sevgi).

Berilgan satrlarda *bitmoq* leksemasining “yaralish”, “paydo bo‘lish” semalari namoyon bo‘lmoqda.

*Bu nom mening jonlarimga esh-egiz,  
Ko'zlarimga ekilgandir suvrati.*

(B.Iso, Rishton).

Berilgan gapda qatnashgan *ekilmoq* fe'li aslida “o‘simlik” semali birliklar bilan bog‘lanadi, bu yerda *ko'zlarimga* so‘zi bilan bog‘lanib, “yaqinlik”, “qadrdonlik” semalari aks etmoqda. Shoir o‘zi tug‘ilgan makonni ardoqlab, uni doimiy ko‘z o‘ngida gavdalanishini *ko'zlarimga ekilgan* birikmasi orqali ifodalayapti.

Ma'lumki, *o'smoq* leksemasi tarkibidagi “davomiylik” semasi uni generonimlar paradigmasiga kirishi uchun asos bo‘ladi. Bu leksema “shaxs”, “hayvon”, “o‘simlik” semali leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Bu so‘z she’riy matnda o‘ziga xos majoziy xarakter kasb etadi:

*Hali ming-ming yuraklarda lola bo'lib o'saman –  
Tuhmatlarni buzaman!*

(B.Iso, Cho‘lpon)

Bu o‘rinda lola kabi o‘smoq belgisi shoir (Cho‘lpon) tilidan berilmoqda, biroq bu yerda o‘sish harakatining *yuraklarda* so‘zi bilan bog‘lanishi she’rning ta’sirchanligini oshirishda katta rol o‘ynagan.

### **Bob bo‘yicha qisqa xulosa**

1. Lingvistikada assotsiativ munosabat tushunchasi psixologizm ta’sirida maydonga kelgan bo‘lib, lisoniy birliklar nutq jarayonidan tashqari o‘zaro ma’lum umumiylik orqali inson xotirasida guruhlariga birlashadi.

2. “Yaralish” semali har qaysi leksik birlik o‘zaro alohida assotsiativ bog‘lanish hosil qiladi. Bunday assotsiativ bog‘lanishni e‘tiborga olmay turib, generonimlar paradigmasidagi so‘zlarni semantik jihatdan yetarlicha tadqiq etib bo‘lmaydi.

3. Generonimlar semalari tarkibidagi ayrim semalar o‘zaro differensial, ayni vaqtda, oppozitiv munosabatda bo‘ladi. Ana shu semalar birliklar o‘rtasidagi antisemik munosabatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

4. “Yaralish” semali generonimlarning konnotativ xususiyatlari ko‘proq badiiy nutqda kuzatiladi. She‘riy nutqning ifoda imkoniyatlari keng bo‘lganligi uchun generonimlar va ularning ma‘no tovlanishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi va badiiylikni ta‘minlovchi poetik vosita funksiyasini bajaradi.

## **UCHINCHI BOB**

### **O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLARNING MILLIY-MADANIY TALQINI**

#### **3.1. Generonimlarning evfemik ifodalanishi**

Har qaysi xalqning o‘ziga xos urf-odatlarini, xarakter-xususiyatlari xalq tomonidan ishlatiladigan nutqiy ifodalarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Professor N.Mahmudov til, uning milliy-madaniy belgilari xususida fikr yuritarkan, “xalqning tamomila o‘ziga xos sa‘jijasi, milliy mentaliteti, madaniyati, ma‘naviyati, ruhiyati, tafakkur tarzi va taxayyul tamoyili, idrok intizomi kabi favqulodda muhim xususiyatlari bevosita ana shu xilqatda rost tajassumini topadi. Shugina emas, odam bolasi ana shu xilqatdan turib, uning temir nizomiga mutlaqo muvofiq holda tashqi dunyoni ko‘radi, eshitadi va idrok etadi”, – deb ta‘kidlaydi<sup>1</sup>.

M.Hakimovning ko‘rsatishicha “Inson tafakkurida ilmiy bilishning turli bosqichga ega idrok qilish va mulohaza asosida qayta shakllantirishga asoslangan

---

<sup>1</sup> Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. Тошкент: Mumtoz so‘z. – 2017. – 167-б.

shakllari lingvistik muloqot uchun zarurdir. Shuning uchun inson tafakkuriga xos va idrok asosiga jamlangan dunyoqarash, ma'naviy tasavvur, tarbiya, xarakter kabi shaxsga xos barcha belgilar uning nutqida o'z ifodasini va bor bo'yi bilan ko'zga tashlanadi"<sup>1</sup>.

Professor Sh.Safarov til va madaniyat munosabatiga to'xtalib, "Til – tafakkur – madaniyat – olam" zanjiri mustahkam, har bir xalqning zanjir umumiy tugunidagi o'zni alohida, lekin bu o'zining maqomi, tabiati xalqlarning o'zaro munosabati, aloqalari ko'lamida namoyon bo'ladi. So'zsiz, bu zanjirda til va madaniyat halqalarining munosabati o'ziga xos mazmun va mavqyega ega"<sup>2</sup>, – ta'kidlaydi.

Xalqimiz milliy o'ziga xosligi, madaniyati bilan boshqa turli millat vakillaridan, xususan, Yevropa xalqlaridan tubdan farq qiladi. Bu holat xalqning nutqiy muloqotida<sup>3</sup>, xususan, nutqiy odatlari<sup>4</sup>, murojaat shakllari<sup>5</sup>, etnografik leksikasida<sup>6</sup> ma'lum ma'noda namoyon bo'ladi.

Professor S.Mo'minov o'zining doktorlik dissertasiyasida insonga xos milliy xarakter, millat aholisi, xalqning ma'lum urf-odatlari, o'ziga xos an'alarining muloqot xulqi bilan chambarchas bog'lanishini alohida ta'kidlab o'tadi<sup>7</sup>.

"Lisoniy birlikning semantik strukturasi murakkab, ayni paytda, dinamiklik tamoyilidan tashqarida bo'lmagan, jamiyat va til egasining aqliy-ijtimoiy dinamikasi bilan uyg'un tarzda takomil topib borasidan hodisaning nihoyatda muhimligi ayon haqiqatlardan biridir. Shuning uchun semantik

---

<sup>1</sup> Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент: Akadernashr, 2013. – 70–бет.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. Тошкент: ВАҲОЗ, 2015. – 334-бет.

<sup>3</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент.- 2000.

<sup>4</sup> Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ оdatининг мулоқот шакллари: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Самарқанд, 1993.

<sup>5</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент.- 2000; Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида муружаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2008.

<sup>6</sup> Кахарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2009.

<sup>7</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент.- 2000. – 12-бет.

yo‘nalishdagi tadqiqotlarda ham antropologik yondashuv ustuvor bo‘lmog‘i lozim”<sup>1</sup>.

“Tilimizning o‘ziga xos betakror xususiyatlari” deganda, - deb alohida qayd etadi professor D.Xudoyberganova, - birinchi navbatda, o‘zbek so‘zlari va jumllarida in’ikos topuvchi milliy qadriyatlarimiz, tafakkurimiz, ruhiyatimiz, dunyoqarashimizni anglayman. Zero, til ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va rivojlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan noyob hodisadir”<sup>2</sup>.

“Dunyoning lisoniy manzarasi kishida u yashayotgan jamiyat va uning qonun-qoidalari, milliy mentalitet, unga xos turli etik-estetik talablar qarashlar va boshqa omillar asosida shakllanadi. Demak, til kishining borliqni bir butun, yaxlit idrok etish vositasi bo‘lib, uning yashash tarzi o‘zidagina kechmay, balki inson va u hayot kechiradigan jamiyat urf-odatlarini, qonun-qoidalari, muayyan xalqning ijtimoiy-madaniy hayot tarzi bilan birgalikda kechadi”<sup>3</sup>.

Tilimizdagi evfemik vositalar aynan xalq ruhiyati, milliy-madaniy psixologiyasi bilan aloqador tarzda yuzaga kelgan. Evfemizmlar nutqiy muloqot jarayonidagi til va madaniyat uzviylikini ta’minlovchi muhim omillardan sanaladi.

“Tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning birliklarining evfemik qo‘llanishlaridir. Evfemik hodisalar o‘zida til va madaniyat mushtarakligini aks ettiradi. Ular xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlarining paydo bo‘lishi va o‘sishi bilan uzviy bog‘liqdir”<sup>4</sup>.

O‘zbek tilshunosligida evfemizmlar, ularning nutqiy qo‘llanilishi borasida ayrim tadqiqotlar maydonga kelgan<sup>5</sup>.

Evfemizm so‘zi qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib, “mayin gapirish” ma’nosini anglatadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Махмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият: (Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 7-б.

<sup>2</sup> Худойберганова Д. Тил. Тафаккур. Маданият. Тошкент: Nodirabegim. – 2020. – 3-бет.

<sup>3</sup> Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 59-бет.

<sup>4</sup> Рустамова Д.А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: Филол.фанл.бўй.фалс.докт.дисс.автореф. – Фарғона, 2018. – 5-б.

<sup>5</sup> Кахарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 2009.

Shuningdek, evfemizmlar disfemizmlar bilan umumiy tarzda olinib tahlil etilgan ayrim izlanishlar ham mavjud<sup>2</sup>. Evfemizm tilning ifoda imkoniyatlari kengligini ko'rsatuvchi vosita sanaladi. Shunday ekan, uni alohida o'rganish til ifoda imkoniyatlarini atroflicha yoritish uchun katta ahamiyatga ega. Ana shuni hisobga olgan holda, bu mavzu bir qator nomzodlik dissertasiyalarining tekshirish obyektiga aylandi<sup>3</sup>. Bu tadqiqotlarda evfemizmlarning ta'rif-tavsifi, talqini xilma-xil. Jumladan, A.Omonturdiyevning "Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasi o'zbek tili evfemik vositalarining til va nutq dixotomiyasida tutgan o'rnini, evfemiyaning semantik tasnifi va ifoda usullarini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, muallifning fikricha: "ochiq aytilishi noo'rin, noqulay, madaniyatsizlik, odobsizlik, axloqsizlik hisoblangan voqeliklarning xotirada salbiy ta'sirini yumshatish, kamaytirish, yopish, yashirish mumkin qadar beozorroq tusga kiritish, tasviriy-evfonik uslubda bayon etish, tinglovchiga hissiy ta'sir etish – hayajon uyg'otish va shu bilan nutqiy mukammallikka – go'zallikka – til madaniyatiga erishish uchun qo'llanadigan vositalar"<sup>4</sup> evfemik vositalar sanaladi.

A.Omonturdiyevning doktorlik dissertasiyasi ham professional nutq evfemikasi masalasiga bag'ishlangan<sup>5</sup>. Muallifning ta'kidlashicha, "Evfemik nutq tafakkurning, inson aql-zakovatining oliy formasi, "qaymog'i", voqelikning pardozi, "parda ichiga olingan", beozorlashtirilgan, yumshatilgan, obrazli ifodasidir"<sup>6</sup>.

Professor M.Mirtojievning ko'rsatib o'tishicha: "evfemizm bir narsani o'z nomi bilan atashda noqulaylik tug'ilganda, unga ijobiy his uyg'otuvchi belgi berish

---

<sup>1</sup> Эвфемизм: прикрываем неприличное – Справочник писателя / <https://www.avtoram.com/evfemizm>

<sup>2</sup> Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 2011.

<sup>3</sup> Исмагуллаев И. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. Ташкент, 1963; Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фанлари номзоди .... дисс.автореф. Тошкент, 1997. Каххарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2009.

<sup>4</sup> Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фанлари номзоди .... дисс.автореф. Тошкент, 1997. -8-бет.

<sup>5</sup> Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент. – 2009.

<sup>6</sup> Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. Тошкент: Фан. – 2006. – 3-б.

maqsadida xuddi shunday belgiga yaqin narsaning nomi bilan atash yoki o'sha noqulaylikni yopib yuboruvchi so'z – lug'aviy birlik bilan nomlash"<sup>1</sup> demakdir.

M.Mirtojiyev o'z fikrini davom ettirib "Evfemizm mavjud so'zga yuklangan hosila ma'no deb tushunish kerak. Mavjud adabiyotlarda ham unga shu nuqtai nazar bilan yondashilgan. Evfemizm shunga ko'ra, semantik hodisa deb tushuniladi va u semasiologiya obyekti deb qaraladi"<sup>2</sup>.

Tadqiqotchi Sh.Qalandarov falsafa doktori dissertasiyasida shunday qayd etadi: "Evfemik mazmun – muloqot madaniyatini, nutq saviyasini ko'rsatuvchi nutq hodisasi. Evfemik mazmunning nutqiy voqyelanishida tilning imkoniyatlari bilan birgalikda, shaxsning dunyoqarashi, mental tabiati, xarakteri, voqelikka munosabati, sosial shakllanganlik darajasi, gender maqomi, mavqeyi, yoshi va boshqa qator omillar qorishgan holda yuzaga chiqadi"<sup>3</sup>.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'riflar turlicha bo'lishiga qaramay, ularning barchasida evfemizm mayin, yumshoq gapirish belgisi bilan xoslangani ta'kidlanadi.

O'zbek tili leksik sistemasida faol qatlamni tashkil etgan generonimlar ham muayyan urf-odatlar, an'analar ta'sirida yuzaga kelgan evfemik ifodalar orqali namoyon bo'lishi kuzatiladi. O'zbek tilidagi mavjud generonimlar ham ma'lum nutqiy vaziyatlarga uslubiy xoslangan evfemik tarzda qo'llanilishi kuzatiladi.

Mazkur paradigma doirasida "yaralish" semasi orqali birlashgan *tug'ilmoq, yaralmoq, qo'zilamoq, unmoq, bo'shanmoq* leksemalari; *dunyoga kelmoq, yuzaga kelmoq, paydo bo'lmoq, vujudga kelmoq* kabi frazeologik birliklar nutqni mayinlashtirish, "pardalash" maqsadida evfemizmlar bilan almashadi. Y.Odilovning ko'rsatishicha, "*tug'moq* so'zining madaniy muloqot talabi bilan *ko'zi yorimoq* tarzidagi yumshatilgan ifodasini evfemiyaga misol tariqasida ko'rsatish mumkin"<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: Mumtoz so'z. – 2010. – 120-б.

<sup>2</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: Mumtoz so'z. – 2010. – 120-б.

<sup>3</sup> Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий мухитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Фарғона, 2019. - 13-бет.

<sup>4</sup> Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 61-бет.

Jumladan, *o'lmoq* leksemasi o'rnida *vafot etmoq, o'tib qolmoq, olamdan o'tmoq, olamdan ko'z yummoq, u dunyoga ketmoq, boqiy dunyoga rixlat qilmoq* tarzidagi evfemalar qo'llaniladi.

M.Qahhorova etnografik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan dissertasiyasida generonimlarning evfemikasiga ham to'xtalib o'tadi: "homilador ayollarga nisbatan nutqda *og'iroyoq*, yangi tuqqan ayollarga nisbatan *ko'zi yorimoq, yengillamoq*, balog'atga yetgan yigit-qizlarga nisbatan *bo'yi cho'zilmoq*, o'spirin yigitlarga *mo'ylovi chiqmoq*, oila qurish, nikoh uchun *boshini ikki qilmoq*, serfarzand bo'lish, uzoq umr tilagi *uvali-juvali bo'lmoq*, kishining vafoti *bandalik qilmoq, dunyodan o'tmoq, vaqti-soati yetmoq, omonatini topshirmoq, qazo qilmoq* singari ifodalar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu generonimlar o'ziga xos urf-odatlariga tegishli bo'lgan evfemik vositalar sanaladi"<sup>1</sup>.

"Yaralish" semali generonimlarning muqobili sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

*Homilador* generonimi o'rnida *og'iroyoq, gumonasi bor, boshqorong'i bo'lmoq, bo'yida bo'lmoq, oy-kuni yaqin, ikki yo'lning orasida* singari ifodalar ishlatiladi. Masalan:

*Kumushning oy-kuni yaqin edi* (A.Qodiriy, O'tgan kunlar).

Ma'lumki, *homiladorlik* jarayoni turli bosqichlardan iborat bo'lib, o'zbeklar nutqida homiladorlikning ilk davrida *boshqorong'i bo'lmoq, gumonasi bor, bo'yida bor*; keyingi bosqichida *ikkiqat, yukli, og'iroyoq*; so'nggi davrida esa *oy-kuni yaqin, ikki yo'lning orasida* evfemizmlari qo'llaniladi.

Masalan:

*Ziyodning xotini boshqorong'i, tag'in bolasi tushib baloga qolib yurmang!* (Sh.Xolmirzayev, Ukki sayrayapti).

Bu gapda *boshqorong'i* so'zi *homilador* leksemasi bilan sinonimik holatda bo'lib, "yaralish" semasi ustunlik qilsa, *bolasi tushmoq* birikmasi uning ziddi bo'lib kelgan.

---

<sup>1</sup> Каххарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2009. – 18-б.

Ma'lumki, tilimizdagi lug'aviy birliklar uslubiy jihatdan dastlab uslubiy neytral va uslubiy xoslangan birliklarga ajratiladi. Shu bilan birga, uslubiy xoslangan lug'aviy birliklar o'z ichida uslubiy jihatdan ijobiy va salbiy ottenkaga egaligi asosida evfemik va disfemik birliklarga bo'linadi.

Y.Odilov evfemizmga zidlanuvchi disfemizm va kakofemizm tushunchalari xususida turlicha bahslarga munosabat bildirar ekan: "Aslida disfemizm deb atalayotgan birlik ham, kakofemizm deb atalayotgan birlik ham muayyan tushunchani qo'pol, dag'al va madaniy muloqot doirasidan tashqarida ifodalovchi birliklardir. Disfemizm ham, kakofemizm ham mohiyatan bir narsadir, ya'ni evfemik ifodaning ziddini yuzaga keltiradigan birlikdir. Shundan kelib chiqib, evfemizmlarning kategorial belgisi u yoki bu qo'pol tushunchaning yumshatilganligi, madaniy muloqot talabiga xoslanganligi, disfemizmlarning kategorial belgisi esa u yoki bu tushunchaning qo'pol, dag'al va madaniy muloqot talabiga xoslanmaganligi deb aytish mumkin. Shunday ekan, biror til birligining evfemizm yoki disfemizm ekanligini belgilashda faqat so'zning hosila ma'nolari bo'lishi shart degan mezon asosida yondashish mazkur hodisalarning cheku chegarasini aniq belgilab berolmaydi"<sup>1</sup>, deb xulosa qiladi.

Uslubiy xoslangan birliklarda baholash funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu xususda Sh.Alpanova shunday yozadi: "Tilning funksiyalaridan biri baholash funksiyasidir. Yaxshi-yomon, chiroyli-xunuk, iymonli-iymonsiz, vijdonli-vijdonsiz, erkli-erksiz, foydali-foydasiz kabi mezonlar yordamida predmetlar, shaxslar, holatlar, qarashlarga ijobiy yoki salbiy baho beriladi. "Baholash ongli faoliyatdir" (G.Klaus). Bu jarayon baholovchining baholanayotgan predmetga, hodisaga, holatga, qarashlarga ijobiy yoki salbiy nuqtai nazar bilan yondashuviga bog'liq"<sup>2</sup>.

A.Omonturdiyev o'zining "O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati"da bo'g'oz leksemasini uslubiy neytral leksemalar qatorida berilgan holda, uning evfemik a'zolari tarkibida *homilador* so'zini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha,

<sup>1</sup> Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 70-бет.

<sup>2</sup> Алпанова Ш. Ўзбек тилида рухий ҳолатнинг акс этиши. Тошкент: Akademnashr. – 2019. – 91-бет.

*bo'g'oz* leksemasi *homilador* lug'aviy birligining disfemik a'zosi sanalishi ma'qulroq. Chunki *bo'g'oz* leksemasi ko'proq hayvonlarga nisbatan ishlatiladi, shaxsga nisbatan qo'llanilishi esa o'ta qo'pol variant bo'lib, disfemik birlik hisoblanishi kerak. Bu so'zning neytral qo'llanilishi qadimga borib taqaladi. Yuqorida generonimlarning invariant-variant munosabatlari xususida fikr yuritganimizda, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga tayangan holda, *bo'g'oz* leksemasining etimologiyasiga ham murojaat qilgan edik. Bu so'z hozirgi kunda insonga nisbatan qo'llanilganda, so'zning disfemik a'zosi namoyon bo'ladi.

Y.Odilov nutqimizda qo'llaniluvchi *og'iroyoq* so'zi xususida fikr yuritar ekan, uning yuzaga chiqishini *homilador* ayolning xatti-harakatiga bog'lash mumkin, deb hisoblaydi: "Antroposentrik yo'nalishdagi ishlarda evfemizmlar milliy-madaniy konnotasiyaning qabariq ifodasi ekanligi ta'kidlanmoqda. Masalan: *Hadicha og'iroyoq emasmi, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib bilolmay qolibdi* (O'.Hoshimov, "Urushning so'nggi qurboni") jumlasidagi *og'iroyoq* so'zi ana shunday evfemik so'zdir. "Homiladorlik" tushunchasining *og'iroyoq* so'ziga yuklanishiga shunday ayol kundalik xatti-harakatining avvalgiday jadal emas, balki *og'irroq bo'lib qolishi asos bo'lgan deyish mumkin*"<sup>1</sup>.

Yuqorida "yaralish" arxisemali birliklar bilan antisemik munosabatga kirishuvchi leksemalar xususida fikr yuritganda, *homilador* so'zining disfemik a'zosi bo'lgan *bo'g'oz* leksemasi bilan *qisir* leksemasi o'rtasidagi munosabatga ham to'xtalgan edik. *Qisir* so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday beriladi:

**QISIR.** 1. Bo'g'oz bo'lmay qolgan, qochmagan yoki qochib bo'g'oz bo'lmagan. *Qisir sigir, qisir qo'y*.

2. *bot.* Changlanmagan, urug'lanmagan, hosil bermaydigan. *Qisir gul*<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Одиллов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 59-бет.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 305-бет.

Izohdan ko‘rinib turibdiki, bu leksema neytral holda tug‘mas hayvonlar, ko‘payish imkoniyati bo‘lmagan o‘simliklarga nisbatan ishlatiladi. Ayrim hollarda bu so‘z shaxslarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Bunda *qisir* leksemasi xuddi *homilador* so‘zining disfemik a‘zosi *bo‘g‘oz* so‘zi bo‘lgani singari, *tug‘mas* so‘zining disfemik a‘zosi sifatida qo‘llaniladi.

Shuni ham ta’kidlash zarurki, bu leksema qadimda homilador bo‘lmagan ayolga nisbatan ishlatilgan. *Qisir* so‘zi professor Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da shunday qayd etiladi:

QISIR “Bo‘g‘oz bo‘lmay qolgan”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu sifat **qys-** fe‘lining “siqilgan holatda saqla-” ma’nosidan – **(ы)г** qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik o‘zbek tilida **ы** unlilarining qattqlik belgisi yo‘qolgan. Mahmud Koshg‘ariy bu sifatning qadimgi turkiy tilda homilador bo‘lmagan ayolga nisbatan ishlatilishini ta’kidlagan (Devon, I, 344). O‘zbek tilida ma’no o‘zgarishi sodir bo‘lib, **qisir** so‘zi hayvonga nisbatan ishlatiladigan bo‘lgan<sup>1</sup>.

*Tug‘moq* leksemasi o‘rnida *dunyoga kelmoq*, *yengillamoq*, *bo‘shanmoq*, *qutulmoq*, *ko‘z(i) yormoq*, *farzand ko‘rmoq*, *ko‘paymoq* evfemizmlari qo‘llaniladi:

*Gogolning “Shinel”idagi Akakiy Akakiyevich dunyoga keladi, hyech kim bilmaydi* (S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim).

Bu gapda *tug‘moq* leksemasining evfemik varianti *dunyoga kelmoq* birikmasi qo‘llanilgan.

Y.Odilov ham “*tug‘moq* so‘zining madaniy muloqot talabi bilan *ko‘zi yorimoq* tarzidagi yumshatilgan ifodasini evfemiyaga misol tariqasida keltirish mumkin”<sup>2</sup>ligini qayd etadi.

*Haftasiga uch marta qatnaydigan bo‘lsam, o‘lib bo‘laman... E, erta-indin ko‘zi yorisa! Qiziq bo‘ldi-ku?* (Sh.Xolmirzayev, Bahor o‘tdi).

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент: Университет. – 2000. – 553-бет.

<sup>2</sup> Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 61-бет.

Berilgan parchada *ko'zi yorimoq* birikmasi insonga nisbatan qo'llanilgan *tug'moq* leksemasining yumshoq ifodalangan varianti sanaladi.

*Tug'moq* leksemasi o'rnida qo'llaniladigan *ko'z(i) yor(i)moq* evfemizmi ayrim hollarda hayvonlarga nisbatan ham ishlatiladi. Bu haqda A.Omonturdiyev ham ko'rsatib o'tadi: "Ba'zan, uslubiy talab bilan hayvonga nisbatan ham *tug'moq* o'rnida *ko'z yormoq* evfemasi qo'llaniladi: "*Oradan besh kun o'tib kampir o'sha kiyikni o't chimdib yurganida ko'radi. Endi u yolg'iz emasdi. Ha, jonivor, ko'z yoribsan-ku, deydi pichirlab*"<sup>1</sup>.

Ayrim hollarda mazkur evfemik birliklar konnotativ ma'no ifodalashi ham kuzatiladi. Masalan:

*G'afur aka kechasi bilan urinib ko'zi yoriganga o'xshardi, uning ko'zlarida ham quvonch, ham charchoq bor edi. U o'zini tetik tutishga urinardi. Yangi tug'ilgan she'r uni tutib turardi* (S.Ahmad, *Yo'qotganlarim va topganlarim*).

Bu o'rinda she'r yaratilishi ma'nosi berilgan bo'lib, *tug'moq* leksemasining "yaralish" semasi konnotativ ma'no uchun asos vazifasini bajarmoqda.

Ta'kidlash zarurki, mazkur evfemizmlar ko'pincha insonlarga nisbatan qo'llanilishi bilan farqlanadi. Professor A.Omonturdiyev Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari chorvadorlari nutqiga asoslangan "Professional nutq evfemikasi" nomli monografiyasida chorva bilan bog'liq evfemalar to'g'risida keng ma'lumot beradi, *tug'moq* leksemasi o'rnida *to'l tushmoq, bolalamoq* evfemalarining qo'llanilishini ko'rsatib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, *to'l* leksemasi zamirida *uloq, qo'zi* tushunchalari mavjud.

Olim quyidagilarni qayd etadi: "*Qo'y ... tug'ibdi* gapi o'rnida *qo'y ... bolalabdi; Qo'y ... nechta tug'ibdi* so'rog'iga (*bitta, ikkita, uchta tug'ibdi* o'rnida)" *yasqi* (*yolg'iz* so'zidan), *egiz* (*ikki* so'zidan), *ucham* (*uch* so'zidan) evfemalari bilan javob beriladi. *Yuz qo'y bir yuzi yigirma qo'zi tug'di* gapi o'rnida *Yuz qo'ydan bir yuzi yigirma qo'zi oldik* evfemasi qo'llaniladi"<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутк эвфемикаси. Тошкент: Фан. – 2006. – 90-б.

<sup>2</sup> Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутк эвфемикаси. Тошкент: Фан. – 2006. – 91-б.

*Tug‘ilmoq* generonimi o‘rnida esa *dunyoga kelmoq, ko‘z ochib dunyoga kelmoq, tavallud topmoq, hayotga kelmoq* kabilarning qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin.

Masalan:

*Men tug‘ilib ko‘z ochgan dunyo,*

*Xarob edi – buzg‘un, benavo.*

(H.Olimjon, Vatan).

A.Omonturdiyev “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”da *tug‘moq* generonimining 30dan ortiq varianti berilganligini ko‘rsatadi va mazkur leksemaning *bola ko‘rmoq, bolali bo‘lmoq, bo‘shalmoq, bo‘shalib olmoq, dunyoga keltirmoq, ko‘zi yorimoq, ona bo‘lmoq, yangi mehmon ko‘rmoq, qutulib olmoq* kabi evfemik muqobillari bilan birga, shu leksema izohlari doirasida *tug‘ilmoq* so‘zining *vujudga kelmoq, dunyoga kelmoq* singari evfemik muqobillarini keltirib o‘tadi<sup>1</sup>.

Shuningdek, *tug‘moq* leksemasining variantlari sifatida izohlangan *oq yo‘l, chaqaloq ingasi eshitilmoq, chaqaloq ovozi eshitilmoq* ifodalari ham biroz munozarali. Ayni vaqtda, *o‘g‘il ko‘rmoq, o‘g‘illi bo‘lmoq, qizli bo‘lmoq* birikmalari ham jins nuqtai nazaridan farqlanishi, ma’lum vaziyatga tegishli holda ishlatilishini e’tiborga olish zarur.

*O‘lmoq* leksemasi o‘rnida qo‘llaniluvchi evfemizmlar: *olamdan ko‘z yummoq, qazo qilmoq, shaxid bo‘lmoq, olamni tark etmoq, halok bo‘lmoq, so‘nggi yo‘lga ketmoq, vafot etmoq, bandalik qilmoq, vaqti-soati yetmoq, omonatini topshirmoq, rixlatga ravona bo‘lmoq* kabilar. Masalan:

*Nimasini aytasiz, boshimizga judolik tushdi. Shoir rixlatga ravona bo‘ldilar* (S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim).

*Frontda halok bo‘lgan soldatning oilasiga shunaqa muomala qilishadimi* (S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim).

---

<sup>1</sup> Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. Тошкент: Фан. – 2006. – 4 бет.

Ayrim hollarda badiiy asarlarda *umri poyoniga yetmoq iborasi ham* uchraydi:

*O‘yga tolasiz, tahqirlangan, quvg‘inga uchragan, qamoq kameralarida xor-zor bo‘lib umrini poyoniga yetkazgan, olis yurtlar tuprog‘ida qolib ketgan jigarbandlaringizni eslaysiz* (S.Ahmad, Yo‘qotganlarim va topganlarim).

Generonimlar orasida *o‘lmoq* leksemasining evfemik varianti miqdor jihatidan juda ham ko‘p. Bu xususda A.Omonturdiyev alohida ta’kidlab, “*o‘lmoq*” tushunchasining 300dan ortiq evfemik vosita (sinonim variant)lari mavjudligini qayd etadi<sup>1</sup>. Olimning faqatgina *o‘lmoq* so‘zining muqobil variantlari, evfemalariga bag‘ishlangan “Bir so‘z lug‘ati”ning yaratilgan<sup>2</sup>ligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ba‘zan *kelmoq, ketmoq* leksemalarining o‘ziyoq *tug‘ilmoq* va *o‘lmoq* leksemalari o‘rnida qo‘llanilib, evfemistik maqsad uchun xizmat qiladi:

*Bu dunyo hyech kimga qolmas abadiy:*

*Ketdilar, ketamiz, kelishar, ketar.*

Xullas, generonimlarning muqobili bo‘lgan evfemizmlar xalq ruhiyati, urf-odatlari, diniy qarashlari, ayrim irim-sirimlar natijasida shakllangan.

### **3.2. Frazelogizmlar va generonimlar**

Dunyoda hikmat durdonalarini yaratmagan, ularni asrlar osha ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, sayqal berib, dilida, tilida saqlab, avlodlardan avlodlarga meros qilib qoldirmaydigan xalq bo‘lmasa kerak. O‘zbek xalqi ham bundan istisno emas. Xalqimiz kundalik so‘zlashuvda qo‘llaydigan ko‘pdan-ko‘p hikmatli so‘zlar, uning so‘z boyligi nihoyatda ulkanligidan, donishmandligidan, katta hayotiy tajribasidan dalolat beradi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. Тошкент: Фан. – 2006.

<sup>2</sup> Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. Тошкент: Фан. – 2006.

<sup>3</sup> Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 5-бет.

O‘zbek tilidagi generonimlar ham xalq madaniyati, milliy urf-odatlarimizning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi muhim birliklar sanaladi. Quyida xalq iboralari, maqollari va xalq topishmoqlari bilan generonimlar o‘rtasidagi munosabatni yoritishga harakat qilamiz.

“O‘zbek tili frazeologik tizimi ham o‘zbek xalqining tarixi, milliy-madaniy xususiyatlari va dunyoqarashini ko‘rsatuvchi muhim manbadir. Zotan, tilimizdagi *zuvalasi pishiq, zig‘ir yog‘day ko‘ngliga urmoq, kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, og‘ziga so‘k solmoq* kabi frazeologizmlarning yaratilishi ham shu millatning uzoq yillik turmush tajribasi va milliy ongining mahsulidir”<sup>1</sup>.

O‘zbek tilshunosligida barqaror birliklar tadqiqi borasida juda ko‘p izlanishlar olib borilgan bo‘lib, barqaror birliklarning talqini bu tadqiqotlarda turlicha beriladi. Barqaror birliklar sirasiga iboralar, maqollar, matallar kiritiladi. Ularning erkin birikmalardan farqi tilda tayyor holda mavjud bo‘lib, nutqiy birliklardan farqlanadi. Bu haqda Sh.Ganiyeva shunday qayd etadi:

“Turg‘un birikmalar “tayyorlik”, “barqarorlik” belgilariga ko‘ra umumiylikni hosil qilsa ham, o‘z ichida ma‘lum differensial belgilariga ko‘ra farqlanadi. Demak, ana shu belgilar asosida kichik guruhlarga bo‘linadi. Ko‘rinadiki, “turg‘unlik”, “barqarorlik” belgilari turg‘un birikmalarning birlashtiruvchi, integral belgisi bo‘lib xizmat qiladi”<sup>2</sup>.

Frazeologizmlar shu kunga qadar ko‘pgina tadqiqotlarning obyeksi bo‘lgan. Bu tadqiqotlarda ularning shakllanishi, funksional xususiyatlari, komponent tahlili, valentligi bo‘yicha yetarlicha tahlillar mavjud<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Одилов Ё.Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 155-бет.

<sup>2</sup> Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013. – 32-бет.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент. – 1993; Мамаатов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент. – 2000; Одилов Ё.Р. Ўзбек тилида энантиосемия: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2016; Ҳақимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги: Филол.фанлари номз.... дисс.автореф. Тошкент. – 1994; Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол.фанлари номз.... дисс.автореф. Тошкент. – 2008; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структур-семантик таҳлили: Филол.фанлари номз.... дисс.автореф. Тошкент. – 2009; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Филол. фанл. бўй. фалс. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил): Филол. фанл. бўй. фалс. докт. дисс.автореф. – Самарқанд, 2019 ва бошқалар.

“Doimiy qo‘llanish jarayonida frazeologik birliklar ilk ifodaliligining ahamiyatli hissasini yo‘qotadi, okkazional qo‘llash esa frazeologik birliklarga yangilanish va yorqinlik, nutqqa ifodalilik berish imkonini yaratuvchi stilistik usuldir”<sup>1</sup>.

Badiiy asarda ishtirok etayotgan frazemalar, albatta, ma’lum uslubiy vazifa bajaradi. Ko‘plab frazemalar ma’noni kuchaytirish, ta’kidlash uchun xizmat qilsa, boshqalari qo‘pol, noqulay so‘zlardan qochib, nutqni chiroyli qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, frazeologik birliklar tarkibidagi leksemalar barqaror birikma tarkibida o‘z ma’nosidan tamomila uzoqlashadi. Bu holat ilmiy manbalarda asimmetrik dualizm deb yuritiladi. Tadqiqotchi Sh.Ganiyevaning ko‘rsatishicha, “asimmetriklik lingvistik birliklarning faqat shakl va mazmun doirasi bilangina chegaralanib qolmaydi. Bu ayniqsa frazeologik birliklarda yorqin namoyon bo‘ladi. Frazeologik birliklarda frazeologizmning umumiy ma’nosi bilan uni tashkil etuvchi komponentlarning xususiy ma’nolari o‘rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga ega. Frazeologizmning umumiy ma’nosi bilan xususiy ma’nosi o‘rtasida oppozitiv munosabat bo‘ladi”<sup>2</sup>.

«Yaralish» semali leksemalar iboralar tarkibida qo‘llanganda, o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini namoyon qiladi. Masalan, *kuni tug‘di* iborasi tarkibida *kun* va *tug‘moq* leksemalari ishtirok etgan, biroq har ikki leksema ham ibora doirasida lug‘aviy ma’nosini yo‘qotgan. Xususan, *tug‘moq* leksemasi tarkibidagi “yaralish” semasi butkul saqlanmagan.

*Kuni tug‘di* (ishi yurishdi), *ikkita tug‘di* (xavotirlandi), *puli tug‘di* (foйда), *shubha tug‘ildi* (gumonsiradi), *biti bolaladi* (tashvish ko‘paydi), *xo‘rozi tuxum qilmoq* (omadi keldi). Bu iboralarning barchasini «ko‘paymoq», «oshmoq» semalari birlashtirib turadi. *Ikkita tug‘di* (xavotiri oshdi), *puli tug‘di* (ko‘paydi), *biti bolaladi* (tashvishi ko‘paydi), ammo *xo‘rozi tuxum qiladi*, *kuni tug‘di* iboralari omadi keldi ma’nosi bilan boshqalardan farqlanadi. Demak, iboralarda ishtirok

<sup>1</sup> Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик birlikларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил): Филол.фанл.бўй.фалс.докт.дисс.автореф. –Самарқанд, 2019. – 14-бет.

<sup>2</sup> Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013. – 66-бет.

etgan *tug‘moq*, *bolalamoq* leksemalari tarkibidagi mavjud “ko‘payish”, “ortish” semasi ko‘chma ma’no uchun asos bo‘lyapti. Masalan:

*Biroq, ko‘p o‘tmay bularning bittasiga shubha tug‘ildi-yu, hammasiga bo‘lgan muhabbatim shubha ostida qoldi* (Sh.Xolmirzayev, Qorbobo keladi).

Ko‘chma ma’noda iboralar tarkibida ishlatilganda, mazkur “tug‘ilish” semali leksemalar konnotativ ma’nosining ustunligi hamda ma’lum bir uslubga xoslanishi bilan paradigmatic qatordagi uyadoshlariga zidlanadi. Chunki iboralar, ko‘chma ma’noli so‘zlar ilmiy va rasmiy uslubda juda kam ishlatilishi bilan ham xarakterlanadi. Bunday leksemalar ko‘chma ma’noda ishlatilganda, ularning boshqa so‘zlar bilan birikish imkoniyati ham kengayadi.

Bunday iboralar tarkibiga “tug‘ilish” va “o‘lim” semali birliklar ham kiradi: *dunyoga kelmoq, dunyodan ketmoq, joni uzildi, jon bermoq, joni chiqdi, yer tishlamoq, yostig‘i quridi*. Bu qatordagi *dunyoga kelmoq* frazeologizmi “tug‘ilish” semali frazeologizm hisoblanadi.

Shuningdek, asar muallifi yuqoridagi frazemaning varianti bo‘lgan *dunyoni ko‘rmoq* iborasini ham qo‘llaydi:

*Men Surxondaryo viloyati, Denov tumani, Xo‘jasoat qishlog‘ida dunyoni ko‘rdim* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Gapda ibora badiiy-uslubiy vazifa bajarib, “tug‘ilish” semasi bilan voqyelanmoqda. Shuningdek, frazema semasidagi “sayr” semasi ham mavjud bo‘lib, *dunyoni aylanmoq, dunyoni tomosha qilmoq* ma’nosida ham ishlatilishi mumkin, ammo shu iboraning *dunyo yuzini ko‘rmoq* shaklidagi variantida bu sema mavjud emas.

Yuqoridagi frazemalarning varianti bo‘lgan *dunyoga keltirmoq* birligi “tug‘moq” semasiga ega. Shu semasiga ko‘ra *ko‘zi yorimoq, jon bermoq, oy-kuni yetmoq* frazeologizmi bilan bir paradigmada yotadi.

*Oy kuni bo‘lmasa-da, onamizni egatda dard tutadi* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

“Tug‘moq” semali yuqorida keltirilgan frazema ham boshqa shu guruhga kiruvchi iboralar singari badiiy nutqni silliqlab, bo‘yoqdorligini oshirib aks ettirib beryapti. Shu bilan birga, bu frazemada “vaqt” semasi ham namoyon bo‘lyapti, ya’ni bu gapda dunyoga keltirish paytiga ishora qilinadi.

Ayrim hollarda “yaralish” chegara sema bo‘lgan birikmalarda ham o‘ziga xos holatlar kuzatiladi. Masalan:

*Ota kasalxona yo‘lagida to‘lg‘oq tutgan ayoldek yuribdi* (Sh.Xolmirzayev, Bir guzar odamlari).

Berilgan gapdagi *to‘lg‘oq tutgan ayoldek* birikmasi tarkibida *to‘lg‘oq* leksemasi ishtirok etgan bo‘lib, leksema ma’nolari tarkibidagi “boshlanish”, “tug‘moq”, “dard”, “behalovatlik”, “kutish”, “sabrsizlik” singari semalar orasidan “behalovatlik”, “kutish”, “sabrsizlik” semasi ko‘chma ma’no uchun vosita bo‘lib kelyapti.

Sh.Ganiyeva “jismoniy holat” semali frazeologizmlar qatorida “Yosh belgisi bilan alohida farqlanuvchi frazeologizmlar qatoriga ona suti og‘zidan ketmagan, balog‘atga yetgan, suyagi qotmagan, bir oyog‘i yerda-bir oyog‘i go‘rda, esini tanigan, sharti ketib, parti kolgan, o‘n gulidan bir guli ochilmagan kabi frazeologimlarning mansub” ekanini ta’kidlaydi<sup>1</sup>.

*Dunyodan ketmoq, dunyodan o‘tmoq* frazemasida “o‘lim” semasiga ega bo‘lib, dunyoga kelmoq birligi bilan antonimlik hosil qiladi: *joni uzildi, jon bermoq, joni chiqdi*.

Frazemalarining semantik strukturasi ham “o‘lim” semasi mavjud. Badiiy matnlarda shu semaga ega bo‘lgan *odam bo‘lmadi* frazemasida uchraydi:

*Ayolimiz odam bo‘lmadi* gapida ham generonim (frazema) ishtirok etgan bo‘lib, “o‘lim” semasi bilan voqyealanadi. Bu iborada yana “bemor” semasi ham mavjud bo‘lib, “odam bo‘lmagan” shaxsning og‘ir kasal bo‘lganligini anglashimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013. – 89-90-бет.

Kuzatilgan manbalarda “o‘lim” semasiga ega bo‘lgan *jonini olmoq, urib ketmoq, yer bilan yakson etmoq* singari *o‘ldirmoq* leksemasiga sinonim bo‘luvchi birliklar ham uchradi. Bu birliklar “o‘lim” arxisemasidan tashqari matnda turli uslubiy semalarni ham bajaradi.

*Ziyodning onasi paxtazorga aytib-aytib yig‘laydi:*

*Voy bolam-ay paxta urib ketgan bolam-ay!* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Gapdagi *urib ketgan* frazemasida yuqorida ta’kidlanganidek uslubiy ma’noni kuchaytirib, farzand dog‘ida bo‘zlayotgan ona kayfiyatini to‘laroq ochib bermoqda.

*O‘ldirmoq* leksemasiga sinonim bo‘luvchi *yer bilan yakson qilmoq* frazemasida “o‘lim” semasi bilan bir qatorda “yengmoq” semasi ham namoyon bo‘lishi mumkin.

*Mana, Oqposhshoni yer bilan yakson etdik* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Shuningdek, badiiy asarlarda generonimlar ishtirok etgan frazemalar matnda o‘ziga xos uslubiy vazifalarni bajaradi.

Masalan:

*Kattalarga bir bo‘lak kun tug‘di* (T.Murod, Otamdan qolgan dalalar).

Tug‘ilish» semali leksemalar iboralar tarkibida qo‘llanganda, o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini namoyon qiladi. *Kuni tug‘moq, ikkita tug‘moq* (xavotirlanmoq), *puli tug‘moq*, (foйда ko‘rmoq), *biti bolalamoq* (tashvishi ko‘paymoq), *xavf tug‘ilmoq* (noxush voqeya yuzaga kelmoq) *xo‘rozi tuxum qilmoq* (omadi kelmoq).

*Ikkita tug‘di* (xavotiri oshdi), *puli tug‘di* (ko‘paydi), *biti bolaladi* (tashvishi ko‘paydi), ammo *xo‘rozi tuxum qilmoq, kuni tug‘moq* iboralari omadi keldi ma’nosi bilan boshqalardan farqlanadi. Chunki bu iboralarda so‘zlarning o‘zaro semantik aloqasi iborada ma’no shakllanishini, tushunchalar ifodalayotgan sema tashiyotgan g‘oyasi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqaradi.

*Xo‘rozi tuxum qilmoq* iborasida “so‘zning fizik, semantik, ruhiy-psixologik, mantiqiy, ijtimoiy, tarixiy, geografik xususiyatlari”<sup>1</sup> e‘tiborga olinsa, *imkoni yo‘q ishi ham amalga oshadi*, degan ma‘no reallashadi. *Kuni tug‘di* iborasida ham so‘zning yuqoridagi nolingvistik xususiyati asosida ijobiy ma‘no ifodalanadi. *Puli tug‘di* iborasi esa *ko‘paydi* semasini anglatadi.

*Besh yildan beri topgan pullarimni kassaga qo‘yardim. Pul ustiga pul tug‘ib yotibdi* (S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong).

*Kuni tug‘moq, xavf tug‘ilmoq* iborasida *tug‘moq* so‘zi denotativ sema anglatmaydi, balki konnotativ sema namoyon qiladi, ya‘ni ifoda, tasvir, qo‘shimcha ma‘no semalari yuzaga chiqadi. *Puli tug‘di* iborasida *tug‘moq* so‘zining denotativ ma‘nosi saqlangan holda (*tug‘ish* so‘zida *ko‘payish* ma‘nosi mavjud bo‘ladi), ana shu ma‘no *pul* (boylik) so‘zining semantik ta‘siri natijasida konnotativ ma‘no anglatadi.

*Kuni tug‘moq, xavf tug‘ilmoq* iborasida esa “*tug‘moq*”ni *ko‘payish* ma‘nosi xiralashib, “*paydo bo‘lish*”, “*yaralish*” semalari reallashadi. Shuning uchun so‘zlashuv nutqida *puli tug‘di* iborasining *puli bolaladi* varianti ham qo‘llanadi, ammo *kuni tug‘di* iborasi *kuni bolaladi*, *xavf tug‘ilmoq* iborasi esa *xavf bolaladi* shaklida ishlatilmaydi. *Kuni tug‘di* iborasida *tug‘moq* leksemasining *dunyoga kelish* ma‘nosi xiralashgani uchun u salbiy ma‘noda ham ishlatiladi. Bunda uni *ortiqcha ishlari ko‘paydi, yumushi ortdi, azobi ortdi* ma‘nolari ham yuzaga chiqadi.

*–Tovariuq Axmed, – dedi u ruscha bilishini namoyish qilayotgandek g‘urur bilan, – bilasanmi, men samurayman. Samuraylar dushmanga tirik asir tushmasligi kerak. Asir tushish xavfi tug‘ilgandayoq o‘zini xarakiri qilishi shart. Ya‘ni, o‘zini o‘zi chavaqlab o‘ldirishi kerak. Men xarakiri qilishga ulgurmaganman – Vatanimdan qon qarzdorman* (S.Ahmad, Kiprikda qolgan tong).

---

<sup>1</sup> Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тошкент: Маънавият. - 2004. - 11-бет

“*Tug‘moq*” so‘zining milliy, tarixiy, geografik xususiyatlari nuqtai nazaridan kelib chiqsak, sharq xalqlarida doimiy ravishda farzandning dunyoga kelishi uning bosh ma’nosi sifatida ijobiy sema ifodalab kelgan.

Badiiy matnda generonimlar qatnashgan iboralar bilan birga, mazkur iboralarga ma’no jihatdan teng keluvchi frazeologik birliklar ham o‘ziga xos uslubiy maqsad uchun xizmat qiladi. Masalan:

*Bir qorindan tushganlarning baxti ham o‘zga-o‘zga edi* (T.Malik, Shaytanat).

Bu yerda keltirilgan shaytanat olamining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi parchada *bir qorindan tushmoq* iborasi asliy tug‘ishganlik ma’nosini yo‘qotib, bir yerda “tarbiyalanish” belgisi bilan namoyon bo‘lgan.

*Otasi kinoxona yaqiniga uya qurgan zo‘ravonlarning tuxumini quritgan taqdirda ham, Tarzanning qalb yarasi baribir tuzalmas edi* (T.Malik, Shaytanat).

Parchada qo‘llanilgan *tuxumini quritmoq* iborasi “tugatmoq”, “yakson qilmoq” semalari bilan ko‘zga tashlanyapti. Shuni ham e’tiborga olish kerakki, bu parchada *tuxum* leksemasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan *uya* leksemasi ham majoziy ma’noda ishlatilgan.

*Shoir edim yoniq, otashin,*

*Yigirmaning ustida yoshim,*

*Sovib qoldi kosada oshim...*

*Nimaga qamaldim, bilmayman* (B.Iso, Usmon Nosir).

Keltirilgan satrlarda *kosada sovib qolgan osh* barqaror birligi “umrning poyoni”, “o‘lim” semalarini ifodalagan.

### **3.3. Xalq maqollari va generonimlar**

Istiqlol yillarida xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniy merosini tubdan o‘rganish, uni ilmiy asoslashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalq maqollari ham milliy-ma’naviy merosimiz, tilimizning yuksak boyligini ko‘rsatuvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Chunki maqol yordamida ifoda

etilayotgan fikr bir tomondan, xalq ruhiyati, urf-odatlari yorqin namoyon etilsa, ikkinchidan, maqollar ixcham, aniq, lo‘nda shaklda tinglovchiga maqsadni yetkazishga xizmat qiladi. “Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hyech bir vositasi almashtira olmaydi yoki maqol darajasida asoslab bera olmaydi”<sup>1</sup>.

H.Berdiyev va R.Rasulovlar maqolga ta’rif berib: “grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda, ham o‘z ma’nosida qo‘llaniladigan hikmatli xalq iboralari”<sup>2</sup> deb qayd etadilar.

Sh.Qalandarov o‘zining falsafa doktori dissertasiyasida ta’kidlashicha: “Maqolning evfemik qo‘llanishini ta’minlashda milliy va axloqiy omillar umumiy pragmatik tabiatga egaligi bilan xarakterlansa, muayyan kommunikasiya jarayoni xususiy pragmatik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, nutq sharoiti va vaziyati, shaxs omili, shuningdek, suhbatning turi(oddiy, bahsli, kinoyaviy) kabi omillar ham goh ustuvorlashib, goh susaygan holatda maqollar evfemikligini namoyon qilishga ta’sir ko‘rsatadi”<sup>3</sup>.

Odatda maqollar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ular orqali insondagi ijobiy fazilatlarni ulug‘lash, illatlardan forig‘ bo‘lish singari masalalar yoritiladi.

“Maqollar xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida millatni olamni idrok etishini o‘zida aks ettiradi. Til egasi bo‘lgan xalq o‘zaro zid bo‘lmagan narsa, belgixususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtirgan, zidlagan va buning natijasida maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilingan”<sup>4</sup>.

Masalan, “Ma’nolar maxzani” kitobida berilgan quyidagi maqol fikrimizning dalilidir:

---

<sup>1</sup> Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Самарқанд. – 2019. – 5-бет.

<sup>2</sup> Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи. – 1984. – 12-бет.

<sup>3</sup> Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Фарғона, 2019. - 15-бет.

<sup>4</sup> Ҳақимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019. – 20-б.

*Gul bo'lib tug'ilib, sassiq alaf bo'lib yashama/ Kaptar bo'lib tug'ilgansan, qarg'a bo'lib o'lma.*

Inson bolasi tug'ilganda, pok bo'lib tug'iladi. Ba'zilar o'z hayotlari davomida insoniylik sha'niga noloyiq ishlarni qilib, nopok bo'lib, odamlar o'rtasida yomon atalib, shu yomon nom bilan o'lib ketadilar. Na tiriklikda va na o'lgandan so'ng el-yurt orasida zig'ircha qimmatlari bo'lmaydi. Sen bunday qilma, insoniylik sha'niga dog' tushirma. Hamma qatori oq bo'lib tug'ilgansan, qora bo'lib o'lma, degan ma'noda nasihat qiladilar<sup>1</sup>.

Berilgan maqolda *tug'ilmoq* leksemasi qo'llanilgan bo'lib, leksemada yangi tug'ilgan go'dakka xos "beg'uborlik", "poklik", "noziklik" (gul, oq, kaptar) semalari berilyapti. Bu o'rinda *go'dak* leksemasidagi mazkur belgilar gul (noziklik), oq (poklik), kaptar (beozorlik) singari tushunchalar bilan qiyoslanmoqda.

"Ma'nolararo ziddiyat antonimiya bilan chegaralanib qolmaydi. Antisemiya, enantiosemiya kabi lisoniy munosabat va hodisalarda ham abstrakt ma'nolar ziddiyatini kuzatish mumkin. Antisemiyaning nutqiy ko'rinishlari ham maqol va matallarda ko'p uchraydi"<sup>2</sup>.

Berilgan maqolga e'tibor qaratilsa, har qaysi leksemalar ma'nolarida zidlik ifoda maqsadni kuchaytirishga alohida xizmat qilgan:

*gul – sassiq alaf*

*kaptar – qarg'a*

*oq – qora*

*pok – nopok kabi.*

Maqollar orqali insondagi vatanparvarlik, mehnatkashlik, rostgo'ylik, vafo-sadoqat, sabr-qanoat, qadr-qimmat kabi fazilatlar ardoqlanadi. Masalan:

*Daraxt bir joyda ko'karadi.*

---

<sup>1</sup> Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 71-бет.

<sup>2</sup> Ҳақимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019. – 29-б.

Yuqorida *ko'karmoq* leksemasining “unish”, “paydo bo'lish” singari semalari xususida to'xtalib o'tgan edik. Ushbu maqolda leksik birlikning “o'sish”, “yashnash”, “palak otish” kabi ma'nolari ifodalanyapti. Maqol orqali kishidagi vatanparvarlik, yurtni sevish, uni qadrlash, sabr-qanoat singari xislatlar ulug'lanib, *ko'karmoq* leksemasining konnotativ ma'nosi namoyon bo'lmoqda. “O'z yeringga qanoat qilsang, bora-bora kamolga yetasan, shundaylikcha qolib ketmaysan, biring ikki, yomonning yaxshi bo'ladi”<sup>1</sup>.

Quyidagi maqolda esa tug'ilgan yurtga sadoqat, vafodorlik hissi yanada qadrlangan:

*Er tuqqan yeriga, it to'ygan yeriga.*

“Bu maqolda insonning yurti, oilasiga nisbatan vafodorligi, sadoqatliligi aks etgan. Maqol bir joyda yashab, ishlab, rizq-nasibasini topib, boriga shukr qiladigan kishilarga nisbatan qo'llanadi”<sup>2</sup>.

*Tuqqan*(tug'ilgan) leksemasi ma'nolari tarkibida “dunyoga kelish”, “vujudga kelish”, “boshlanish”(hayotga nisbatan) semalari bo'lib, bu maqolda leksemaning aynan *yer* so'zi bilan birikib kelayotganligi tug'ilgan yurt, kindik qoni to'kilgan joy, vatanga talpinish (*tuqqan yeriga*) ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Vatanparvarlik, ona yurtni sevish tipidagi ushbu maqol yuqoridagi maqol bilan mazmunan hamohangdir.

Musulmon xalqlarining urf-odatlarida orasida qurbonlik qilish marosimi bor. “Qurbonlik – diniy marosim, har yili bir marotaba qurbon oyida bo'ladi. Bunda “xudo yo'liga” deb, qo'y, echki, qoramol, tuya so'yib, go'shtini xomligicha yoki pishirib xalqqa tarqatadilar”<sup>3</sup>.

*Itidan bo'lgan qurbonliqqa yaramas* maqolida *bo'lmoq* generonimi ishtirok etgan. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da *bo'lmoq* leksemasining yigirmadan ortiq ma'nolari izohlangan. Jumladan:

<sup>1</sup> Шوماқсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 76-бет.

<sup>2</sup> Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: . Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Самарканд. – 2019. – 28-бет.

<sup>3</sup> Шوماқсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. –144-бет.

(Chiqish kelishigidagi soʻz bilan). Dunyoga kelmoq, tugʻilmoq. *Choʻridan boʻlgan bola*<sup>1</sup>.

Mazkur maqolda leksemaning yuqoridagi maʼnoga xos “paydo boʻlmoq”, “tugʻilmoq”, “yaralmoq” semalari aks etgan.

“Yomon ota-onaning bolasi ham yomon boʻladi. Yomonlik shunday bir baloki, u nasldan naslga oʻtadi. Yomon odamning bolasi el ogʻasi boʻlishlikka yaramaydi, deb hisoblaganlar va bunday odamlardan xavotirlanganlar, shubha qilganlar<sup>2</sup>.”

Quyidagi maqolga eʼtibor bering:

*Hoʻkizga tuqqan kun buzoqqa ham tugʻadi.*

“Ota-onaning boshiga tushgan kun, yaʼni tirikchilik tashvishlari bir kun oʻgʻil-qizning ham boshiga tushadi” mazmuni ifodalangan.

Bu maqolda *tugʻmoq* leksemasining asosiy maʼnolari aks etmagan. Balki kishi hayoti davomida uning boshiga tushadigan kun nazarda tutilib, hayotning davomiyligi, umuman, ota-onalar (hoʻkiz)ning boshidagi tashvish farzandlar (buzoq) boshida ham borligi ifodalangan. Demak, maqolda leksemaning “boshiga tushmoq”, “davomiylilik”, “tashvishli” semalari namoyon boʻlgan.

*Sunbularning tuqqanini suv biladi* maqolida “sunbula oyi tugʻsa, yaʼni boshlansa ariqlardagi suv tinib tagida nimaiki boʻlsa, hammasi aniq-ravshan koʻrinadigan boʻladi. Bu kuz faslining boshlanayotganidan nishona”<sup>3</sup>. Maqolda ishtirok etgan *tugʻmoq* generonimining “boshlanish” semasi konnotativ maʼno uchun asos vazifasini bajargan.

*Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi* maqolida “yaralish” arxisemali leksemalar bilan tutashgan *sut* leksemasi qatnashgan. Bu oʻrinda leksemaning “hayotning boshlanish” semasi ifodalangan. Ushbu maqolning bir necha variantlari mavjud:

*Qon bilan kirgan jon bilan chiqadi.*

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 413-бет

<sup>2</sup> Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 144-бет.

<sup>3</sup> Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 325-бет.

*Sut bilan kirgan mijoz suyak bilan birga ketar.*

*Ona suti bilan kirmasa tana suti bilan kirmas.*

Bu yerda *sut*, *ona suti*, *qon* birliklari o‘zaro sinonimik variantlar sanaladi. Chunki *sut bilan kirgan*, *ona suti* birikmalari singari *qon bilan kirgan* birikmasida ham hayotning boshlanishiga ishora anglashiladi. Ularning umumiy integral semasi “hayotning boshlanishi”dir.

“Ma’nolar maxzani” kitobida qayd etilishicha, bu maqolning qadimiy shakli Yusuf Xos Hojib tomonidan quyidagicha qo‘llanilgan:

*O‘runga sut bila kirsa adgu qiliq,*

*O‘lum tutmog‘incha ovurmas yo‘riq.*

Mazmuni: Sof sut bilan kirgan yaxshi qiliq o‘lguncha ham aynamaydi<sup>1</sup>. Ko‘rinadiki, maqolning mazmuni bugungi kunda ham o‘z ahamiyati, tugal mohiyatini saqlagan.

Ma’lumki, oilada farzand tug‘ilganda ayrim hollarda turli kasallik yoki boshqa sabablar tufayli bolalarning yashab ketishi qiyin bo‘lgan kezlarda xalqimiz urf-odatlariga ko‘ra, ularga *Tursunboy*, *To‘xtasin*, *Turg‘un*, *O‘lmas*, *Tursuntosh* kabi ismlar qo‘yilgan. Bunday irim-sirimlar bolaning uzoq umr ko‘rishi, yashab ketishi, avlodni davom ettirishi umidiga qaratilgan. *Tuqqaniga suyunma*, *turganiga suyun* maqoli ham ana shu urf-odatning natijasidir. Ushbu maqolda *tug‘moq* leksemasining “boshlanish”, “paydo bo‘lish” semalari, *turmoq* leksemasining “davomiylik” semasi yuzaga chiqyapti.

*Tug‘ib qutulish – o‘lib tirilish* maqolida *tug‘moq* leksemasi tarkibida “yaralish”, “boshlanish”, “dunyoga keltirish”, “dard” semalari mavjud bo‘lib, bu leksema aynan *qutulmoq* leksemasi bilan birga qo‘llanilishi natijasida “darddan forig‘ bo‘lish” ma’nosi berilgan. Yuqorida *tug‘moq* leksemasining evfemik variantlari orasida *qutulmoq*, *qutulib olmoq* evfemizmlari borasida ham fikr yuritilgan edi. Bu o‘rinda qo‘llanilgan *tug‘ib qutulish* birikmasi tarkibidagi “darddan forig‘ bo‘lish” semasi bu birikmaning *o‘lib tirilish* birikmasiga

<sup>1</sup> Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 325-бет.

qiyoslanishi natijasida yanada kuchaygan.

*Buzoqning turqi tuqqaniga ma'lum.*

Ma'lumki, bunday maqollar yomon nomi chiqqan, badjahl, bemehr, oqibatsiz, johil kimsalarga nisbatan kinoya tarzida konnotativ ma'noda ishlatiladi. Bu maqolda qo'llanilgan *tuqqan* leksemasining dastlabki semasi "shaxs", "ona" semalari bo'lib, maqolda *buzoq*dagi kichiklik belgisi, *tuqqan* (ona)dagi kattalik belgisi nazarda tutilmoqda. Biroq *tuqqani* leksemasi yordamida nafaqat *tuqqan* (ona)gagina emas, boshqa oila a'zolari, umuman, yaqin kishilariga nisbatan ishlatilyapti.

Maqollarda ba'zan so'zlovchining salbiy munosabati ham ifodalanadi. Masalan:

*Echki egiz tug'ib, qo'ydan oshmas,*

*It egiz tug'ib, eldan oshmas.*

Berilgan maqolda halol mehnatni ulug'lash, haromdan hazar, halollik orqali keladigan qut-baraka to'g'risida fikr ifodalangan. Maqol orqali garchi echki egiz tug'sa ham, qo'yga yeta olmasligi (echkiligicha qolishi), itning ham ko'p tuqqani bilan baribir elga teng kela olmasligi (itligicha qolishi) nazarda tutiladi. Ko'rinib turibdiki, maqoldagi *egiz tug'moq* birikmasi ma'nolari orasida "yaralish" arxisemasi bilan birgalikda, "miqdor", "ko'plik", "juftlik" semalari yetakchilik qilmoqda. Bu o'rinda to'siqsizlikning mantiqiy mazmuni (echki egiz tug'sa ham) aks etgan.

Ta'kidlash lozimki, ayrim xalq maqollarida generonimlar bilan mazmunan mutanosib kelib qoluvchi leksemalar ham uchraydi. E'tibor beramiz:

*O'zimdanda chiqqan baloga,*

*Qayga boray davoga.*

Bu maqol ota-onalar tarafidan noqobil farzandlardan shikoyat qilib aytiladi. Bunday farzandlarning fe'l-atvorini, ota-onaning ularga nisbatan bo'lgan munosabatini ifodalovchi quyidagi maqollar ham bor:

*O'zakdan chiqqan o't yomon,*

*O‘zingdan chiqqan yot yomon*<sup>1</sup>.

Bizga ma’lumki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *chiqmoq* fe’lining ellikka yaqin ma’nolari berilgan. Biz tahlil qilayotgan matndagi *chiqmoq* fe’li lug‘atdagi “biror joydan, tabaqadan paydo bo‘lmoq, yuzaga kelmoq”<sup>2</sup> ma’nosiga mos keladi. Demak, maqolda o‘zing – oilangdan chiqqan – paydo bo‘lgan “yot” nazarda tutilgan. Bu yerda *chiqmoq* leksemasi “yaralish”, “paydo bo‘lish”, “davomiylik”, “yaqinlik” semalari bilan namoyon bo‘lgan.

### **3.4. Xalq topishmoqlari va generonimlar**

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligining turli sohalarini keng yoritishga bag‘ishlangan yuzlab tadqiqotlar yaratildi. Ammo barcha sohalarda yanada chuqur o‘rganilishi zarur bo‘lgan muammolar maydonga kelmoqda. Jumladan, xalq og‘zaki ijodi materiallari, turli janrdagi manbalarning til xususiyatlarini tadqiq etish ham ana shunday muammolar tarkibiga kiradi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiga tegishli janrlardagi manbalarning til xususiyatlarini o‘rganishda, bu janrdagi manbalar lingvistik jihatdan tahlil qilinganda, ulardagi turli-tumanlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuni inobatga olgan holda topishmoqlar tilini o‘rganish o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

Muayyan bir xalqning madaniy-ma’rifiy meroslaridan biri bo‘lgan topishmoqlar orqali xalq donishmandligi, zukkoligi aks etadi. “Topishmoqlar inson idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o‘stiruvchi aqlning quvnoq o‘yini, ma’naviy dam olish vositasigina bo‘lib qolmay, ajdodlarimizning ruhiy olami, tarixiy o‘tmishini bilishda kalit vazifasini ham o‘taydi”<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 397-бет.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 499-бет.

<sup>3</sup> Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

<sup>4</sup> Ўзбек топишмоқлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1991.- 3-бет.

Topishmoqlar ma'lum bir xalqning tafakkuri, zukkoligi, idrokini, ayni vaqtda, uning hozirjavobligini namoyon etuvchi vositalardan sanaladi. Shunga asosan xalq hayoti, dunyoqarashi, tasavvurini ifodalashi orqali topishmoqlar nutqimizni boyituvchi vosita vazifasini bajaradi. Filologiyaga doir tadqiqotlarda topishmoqlar ham tadqiqotchilar e'tiborini u yoki bu tarzda jalb etgan bo'lib, dastlab topishmoqlarga folklor, etnografiyaning o'rganish obyekti sifatida yondashildi. O'zbek tilshunosligida ham topishmoqlar yuzasidan ayrim izlanishlar olib borilgan. Xususan, J.Abdullayev, M.Saparniyazova, U.Qobulovalarning tadqiqotlarida topishmoqlar lingvistik asosda ma'lum darajada tahlil etilgan. Jumladan, J.Abdullayev va U.Qobulovanning ilmiy ishlari bevosita topishmoqlarning leksik-semantik xususiyatlariga aloqador bo'lsa, M.Saparniyazovanning nomzodlik dissertasiyasida topishmoqlarning semantik-sintaktik xususiyatlari monografik asosda tadqiq etilgan<sup>1</sup>.

“Topishmoqlar topilishi zarur bo'lgan narsa va hodisalarning muhim belgilarini ajratish asosiga tuziladi. Topilishi zarur bo'lgan narsa va hodisalarning nomi yashirilgani holda, uning muhim belgilari topishmoqning shakliy strukturasi o'z ifodasini topadi”<sup>2</sup>.

O'zbek tilidagi generonimlar ham bevosita ana shu nuqtai nazardan tahlil etilganda, ikki xil holat kuzatildi. Birinchidan, topishmoq orqali “yaralish” semali predmet, harakat, jarayon anglatuvchi birliklarni aniqlash. Ikkinchidan, tagmazmunni aniqlashda vosita bo'luvchi generonimlarning vazifasini ochish.

Masalan, birinchi holatda:

*Pishirsa osh bo'lur,*

*Pishirmasa qush bo'lur (Tuxum)*<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол.фанл.номз. ... дисс. автореф. Тошкент,1993; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол.фанл.номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2005; Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2007.

<sup>2</sup> Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол.фанл.номз. .... дисс.автореф. Тошкент, 2007. 3-бет.

<sup>3</sup> Ўзбек топишмоқлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1991. (Кейинги топишмоқлар ҳам шу манбадан олинди.)

Berilgan topishmoqda *tuxum* leksemasiga xos ikki xil vaziyat anglashilyapti, biri tuxumning qaynatish, qovurish orqali oziq-ovqatga aylantirish jarayoni, ikkinchisi esa tuxumni bostirish orqali jo‘ja, ya‘ni tuxumni ochib chiqib, qushning paydo bo‘lishi nazarda tutilgan. Bu yerda *pishirish* jarayoni orqali *oshga*, ovqatga aylanib, tugash hisobga olinsa, *pishirmasa*, ya‘ni bostirish orqali tuxumni yorib chiqib *qushga* aylanishi, hayotning boshlanishiga e‘tibor qaratiladi.

Yuqorida generonimlar o‘rtasidagi antisemik munosabat xususida fikr yuritgan edik. Bunday munosabat topishmoqlar matni orqali ham o‘z aksini topadi. Baliq nomini topishga qaratilgan quyidagi topishmoqda tug‘ilish va o‘lishga bog‘liq generonimlar qo‘llanilgan:

*Suvda tug‘di, yerda o‘ldi* (Baliq).

Mazkur topishmoqda baliqning yashash tarziga xos holat berilgan bo‘lib, uning ko‘payish (tug‘ilish) jarayoni suv bilan bog‘liq ekanligi, quruqlikda hayot kechira olmasligi nazarda tutilgan. Aytish zarurki, bu o‘rinda generonimlar denotativ ma‘nosini saqlagan.

Xuddi shuning kabi kapalak hasharoti haqidagi topishmoqda ham shu holat kuzatiladi:

*Qanoti bor, qoni yo‘q,*

*Tuxum qo‘yar soni yo‘q* (Kapalak).

Keltirilgan topishmoqda *kapalak* leksemasi ma‘nolari tarkibidagi eng muhim semalar, ya‘ni “qanotli”, “qoni yo‘qlik”, “tuxum qo‘yuvchi”, kapalak tuxumiga xos “miqdor” semalari topishmoq javobini aniqlashga xizmat qilgan. Bu yerda ham generonimi bo‘lgan *tuxum qo‘ymoq* birikmasi o‘z ma‘nosida kelgan.

O‘simliklar haqidagi topishmoqlarda ham topilishi zarur bo‘lgan tushunchani ifodalovchi leksemalar, ularga xos ma‘no xususiyatlari saqlanishi mumkin. Masalan:

*Yerdan ko‘karib chiqar,*

*Bag‘ridan oltin oqar* (Paxta).

Bu topishmoqda paxtaning ko‘karib chiqishi, hosili esa noyob, qimmatbaho ekanligiga ishora kuzatiladi. *Ko‘karmoq* leksik birligiga xos “yaralish”, “unish” semasi generativ belgiga ega. Shu bilan birga, mazkur topishmoqda *oltin oqar* ifodasi ham berilgan bo‘lib, paxta o‘simligining tasviriy ifodasi *oq oltin* birikmasiga tegishli belgi e‘tiborga olingan.

Ma‘lumki, xalq topishmoqlari odatda “ikki qatordagi mazmuniy tuzilishga ega bo‘ladi. Birinchi qatorda shakliy tuzilish birliklari ma‘nosidan kelib chiqadigan yuza mazmun, ikkinchi qatorda esa shakliy tuzilish birliklari ostida ifodalanayotgan va tinglovchining til ko‘nikmasi asosida anglashiladigan tagmazmun. Topishmoqlarda tagmazmunning mavjudligi uni metaforik matnga aylantiradi. Bu esa metaforik matnning mazmuniy tuzilishida topilayotgan narsa va hodisaning differensial belgilari markaziy o‘rinni egallashini ko‘rsatadi”<sup>1</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, tagmazmunni aniqlashda generonimlar muhim vosita vazifasini bajaradi. Generonimlarga bog‘liq topishmoqlarda bunday holat ko‘p ko‘zga tashlanadi. Masalan, aynan paxta o‘simligiga xos topishmoqqa e‘tibor qilamiz:

*Momiqqina onasi,*

*Yog‘liqqina bolasi (Paxta, chigit).*

Ushbu topishmoq vositasida *paxta* leksemasiga xos “yumshoqlik”, *chigit* leksemasiga xos bo‘lgan “yog‘li” semasi anglashilgan. Generonimlar bilan bog‘liq *ona* va *bola* leksemalari orqali *chigit(bola)*ning *paxta(ona)* ichida paydo bo‘lishiga ishora seziladi.

Shuningdek, *garmdori* haqidagi topishmoqda ham *ona*, *bola* singari generonimlar bilan aloqador so‘zlar ishtiroki ko‘rinadi:

*Qonga o‘xshash, qoni yo‘q,*

*Bolasining soni yo‘q (Garmdori).*

---

<sup>1</sup> Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фанл. номз. .... дисс.автореф. Тошкент, 2007. 3-бет.

Bu yerda garmdorining rangiga xos “qizillik”, urug‘iga xos “ko‘plik” semalari orqali topishmoqdan anglashilgan mazmun aniqlanadi. Urug‘ining joylashish o‘rni, kichiklik belgisi *bola* leksemasi bilan tutashtiradi.

Xuddi shunday jarayon tarvuz poliz ekiniga tegishli so‘z haqidagi topishmoqda ham kuzatiladi:

*Men ajab hayronman bir narsaga,  
Qoziqda boylovli turibdi-yu,  
Onasi bolasining qornida* (Tarvuz).

Bu yerda berilgan topishmoq mazmunan teskari ifoda bergandek, ya’ni tarvuzning urug‘i – *ona*, tarvuz – *bola*. Odatda *bola* onaning qornida paydo bo‘lishi, topishmoqda tarvuzga nisbatan aksincha *ona* bolaning qornida deyilib, tarvuzga xos muhim belgi ko‘rsatilyapti.

Aslida bunday teskari mazmundagi topishmoqlarni barcha urug‘li, danakli o‘simliklarga nisbatan ishlatish mumkin. Topishmoqlarda metaforik mazmun orqali xalq zukkoligi namoyon bo‘ladi. Ushbu topishmoqdan ham ko‘rinyaptiki, *ona*, ya’ni urug‘, *bola* – tarvuz, *bolasining qornida* ifodasi orqali tarvuzning ichidagi urug‘ga ishora qilinmoqda. Bu jarayonni shartli holda shunday ifodalash mumkin:

*ONA (URUG‘) – BOLA (TARVUZ) – ONA (URUG‘).*

Bu yerda berilgan mazmun ostida “yaralish” semasi bilan birga, “davomiylik” semasi ham ifodalangan, tagmazmunni ifodalashda generonimlarning o‘rni ko‘zga tashlanmoqda.

“O‘zbek topishmoqlari” kitobida uy-joy va unga tegishli jihozlar haqidagi topishmoqlar orasida uy-joy qurilishi bilan bog‘liq quyidagi topishmoq e’tiborimizni tortdi:

*Onasi qornida bolasi ko‘ndalang yotibdi* (To‘sin, vassa).

Ushbu topishmoqda to‘sin onaga, vassa bolaga o‘xshatilgan bo‘lib, umumiy asos “hajm”, to‘sinning kattaligi *ona* leksemasi orqali, vassaning unga nisbatan kichik ekani *bola* leksemasi yordamida berilgan.

Uy-joy jihozlari haqidagi topishmoqlar orasida koʻrpaga tegishli boʻlgan quyidagi topishmoqda esa generonimlar bevosita ishtirok etgan:

*Kechasi boʻgʻoz,*

*Kunduzi qisir (Koʻrpa).*

Koʻrinadiki, koʻrpaning kechasi xizmatda boʻlishi, yaʼni ichiga odam kirishi bilan bogʻliq holat *homilador* leksik birligining “qornida bolasi bor” semasi bilan mantiqan tutashadi.

Ishimizning dastlabki qismlarida generonimlar bilan assotsiativ munosabatga kirishuvchi qator leksemalar doirasida *bola, ona, ota, ona suti* singarilarga ham toʻxtalgan edik.

Masalan, *ona suti* birikmasi xalq topishmoqlarida shunday holda oʻz aksini topgan:

*Yerga koʻmilmaydi,*

*Kosaga quyilmaydi,*

*Dunyoda hamma odam*

*Ichmay qoʻymaydi (Ona suti).*

Ona sutiga xos boʻlgan “azizlik” (*yerga koʻmilmaydi*), “miqdor”, “kamlik” (*kosaga quyilmaydi*), “goʻdaklar uchun ozuqa” (*ichmay qoʻymaydi*) singari muhim semalar topishmoqning javobini topishga yoʻl ochmoqda.

Hayotning davomiyligini, tiriklik davriga xos ketma-ketlikni aniqlashga qaratilgan quyidagi topishmoqlarda ham yuqoridagi kabi assotsiativ munosabatga kirishgan *bolalik* leksemasining ayrim semalari maʼlum belgilari bilan namoyon boʻladi:

*Erta bilan toʻrt oyoqlab yuradi,*

*Tushda ikki oyoqlab yuradi,*

*Kechqurun uch oyoqlab yuradi.*

Yoki:

*Toʻrtida tariqday,*

*O'ttizda ayiqday,*

*To'qsonida tovuqday.*

(Odam – bolaligi, yigitligi, keksaligi).

Bu topishmoqlarda *bolalik* lug'aviy birligiga xos "boshlanish" semasi *erta bilan*, "kichiklik" semasi esa *tariqday* ifodasi bilan berilib, *hayot* leksemasiga xos "davomiylik" semasi *tushda* (o'rta yosh), *kechqurun* (keksalik); "o'sish" semasi esa keyingi qatorlarda aks etgan.

*Bir otadan besh o'g'il.*

Yoki:

*Ikki onaga beshtadan bola,*

*Har birining oti bor* (Qo'l, barmoqlar).

Berilgan topishmoqlarda *ota*, *ona*, *bola* leksemalari ishtirok etgan bo'lib, bu birliklar ham generonimlar bilan o'zaro assotsiativ bog'lanadi. Topishmoqlarda *ota*, *ona* leksemalarini "yaralish", "yaqinlik" semalari *bola* leksemasi bilan bog'laydi.

"Topishmoqlarda fikrlash faoliyatining natijasida noma'lum voqelikning ma'lum voqelikka aylanishi uchun ifodada yashirin semantik komponent ishtirok etadi, ya'ni topishmoqda so'zlovchi nazarda tutgan axborot oshkora bayon qilinmasdan, yashirin mazmun ko'rinishlaridan iborat bo'ladi"<sup>1</sup>.

Xususan, o'zbek xalq topishmoqlari ba'zan nazmda, ba'zan nasriy shaklda beriladi. Nasrda berilgan topishmoqlar ertakli topishmoqlar deb ham yuritiladi. Jumladan, ana shunday ertakli topishmoqlardan birida maqtanchoq bir podshoning ovga chiqishi, ovi yurishmagach, bir bolani uchratishi, ular o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat shunday beriladi:

*"Podsho so'raydi:*

– *Bizlarni nima so'yib mehmon qilasan?*

*Shunda bola:*

---

<sup>1</sup> Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол.фанл.номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2005. – 14-бет.

– *Topsak **birni**, topmasak **ikkini** so‘yamiz, – deb javob beribdi.*

*Podsho bolaning javobidan hayron qolibdi. Keyin vazirlariga:*

– *Bu bolaning gapida bir xosiyat bor, buni bir sinab ko‘ramiz, – debdi.*

*Podsho odamlari bilan bilan bolaning uyiga boribdi. Bola podshoni, uning odamlarini yaxshilab mehmon qilibdi. Podsho boladan:*

– *Bola, sen nechta qo‘y so‘yding? – deb so‘rabdi. Shunda bola:*

– ***Birni** topmadik, shuning uchun **ikkini** so‘ydik, – deb javob qaytaribdi.*

*Podsho yana taajjublanib:*

– ***Birni** topmasang, **ikkini** qayerdan topib so‘yasan? – debdi.*

– *Bizning bir **bo‘g‘oz sovlig‘imiz** bor edi, boshqa bir qo‘y topolmay, shu **bo‘g‘oz qo‘yni** so‘ydik. O‘zini so‘ygandan keyin **bolasi** ham o‘ldi. Ana, **ikkisini** so‘ydik deganning ma‘nisi shu, – debdi haligi bola”. (O‘zbek topishmoqlari, Bolaning javobi).*

Ko‘rinib turibdiki, mazkur ertakli topishmoqda *bir*, *ikki* singari leksemalar orqali qo‘yning jinsiga ishora qilinmoqda. Xususan, bo‘g‘oz sovliqni ifodalash uchun *ikki* so‘zidan o‘rinli foydalanilgan. Bu yerda homiladorlik belgisiga xos bo‘lgan “qornida bolasi borlik”, “miqdor” semalari orqali, qo‘yning qo‘chqor (*bir*) emas, balki bo‘g‘oz sovliq (*ikki*) ekanligi tagmazmun ostiga yashirilgan.

### **Bob bo‘yicha qisqa xulosa**

1. Har qaysi tildagi evfemik vositalar shu xalqning ruhiyati, milliy-madaniy psixologiyasi bilan aloqador tarzda yuzaga keladi. Evfemizmlar nutqiy muloqot jarayonidagi til va madaniyat uzviyligini ta‘minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

2. “Yaralish” semali leksemalar frazeologizmlar tarkibida qo‘llanilganda, leksemalar konnotativ ma‘nosining ustunligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ular ma'lum bir uslubga xoslanishi bilan paradigmatic qatordagi uyadoshlariga zidlanadi. Bunday leksemalar konnotativ ma'noda ishlatilganda, ularning boshqa so'zlar bilan birikish imkoniyati ham kengayadi.

3. Maqollar har bir xalqning milliy-ma'naviy merosi, tilining imkoniyatlarini ko'rsatuvchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Maqollar yordamida ifoda etilayotgan fikr bir tomondan, xalq ruhiyati, urf-odatlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ular ixcham, aniq, lo'nda shaklda tinglovchiga maqsadni yetkazishga xizmat qiladi.

4. "Yaralish" semali generonimlar ishtirok etgan maqollar orqali ham kishidagi vatanparvarlik, yurtni sevish, uni qadrlash, sabr-qanoat, rostgo'ylik, adolatparvarlik, mehnatni sevish, saxiylik, halollik singari xislatlar ulug'lanadi, unda leksemalarning differensial semalari yetakchilik qiladi.

5. Topishmoqlarda topilishi zarur bo'lgan narsa va hodisalarning muhim belgilari ajratiladi, generonimlar ham bevosita ana shu nuqtai nazardan tahlil etilganda, topishmoq orqali "yaralish" semali predmet, harakat, jarayon anglatuvchi birliklarni aniqlash hamda tagmazmunni yoritishda vosita bo'luvchi generonimlarning vazifasini ochish masalasi kuzatiladi.

## XULOSA

1. O'zbek tili lug'at tarkibidagi «yaralish» semasi asosida birlashgan generonimlarni muayyan sistema sifatida tadqiq qilish, guruh doirasiga kirgan lug'aviy birliklarning o'zaro zidlanish asoslarini ochib berishda ularning paradigmatic, sintagmatik munosabatlari va pragmatik xususiyatlarini o'rganish juda katta ahamiyatga ega.

2. Generonimlarning sintagmatik munosabati natijasida boshqa paradigma a'zolari bilan ketma-ketlik aloqalari ta'minlanadi va leksemalarning lisoniy xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu leksemalarning semantik valentligi va ana shu imkoniyatning nutq jarayonida yuzaga chiqishini aniqlash generonimlarning leksik sistemada tutgan o'rini belgilashda va nutqiy xususiyatlarini, mazkur birikuvlar orqali shakllangan klassemalarni aniqlashda munosib vosita bo'ladi.

3. Generonimlar semalari tarkibidagi ayrim semalar o'zaro differensial, ayni vaqtda, oppozitiv munosabatda bo'ladi. Ana shu semalar birliklar o'rtasidagi antisemik munosabatni ta'minlashga xizmat qiladi, bunday munosabat generonimlar bilan nekronimlarning assotsiativ aloqasini ta'minlaydi.

4. «Yaralish» semali leksemalar barcha lug'aviy birliklar kabi bir umumiy mazmuniy belgi asosida assotsiatsiyalashadi va bunday assotsiativ bog'lanish muayyan paradigmatic qatorni tashkil etadi. Generonimlar paradigmasiga mansub bo'lgan «yaralish» semali leksemalarning assotsiativ munosabatlari orqali bu birliklar bilan shaxs, belgi, narsa-hodisa anglatuvchi qator leksemalarning «zanjirli» aloqasi namoyon bo'ladi.

5. Generonimlar paradigmasida bir-biri bilan o'zaro oppozitiv munosabatda bo'lgan birliklarning o'ri juda muhim bo'lgani sababli, ularning antisemik munosabatlari ham mazkur birliklarning lingvistik xususiyatlarini yoritishda juda muhim o'rin tutadi.

6. She'riy nutqda generonimlar badiiylikni ta'minlovchi muhim poetik vosita funksiyasini bajaradi. Poetik nutqning ifoda imkoniyatlari keng bo'lganligi sababli, generonimlarning ma'no qirralari yaqqol namoyon bo'ladi.

7. O'zbek tili leksik sistemasida faol qatlamni tashkil etgan generonimlar muayyan urf-odatlar, an'analar ta'sirida yuzaga kelgan evfemik ifodalar orqali namoyon bo'lishi kuzatiladi. Generonimlarning muqobili bo'lgan evfemizmlar xalq ruhiyati, urf-odatlari, diniy qarashlari, ayrim irim-sirimlar natijasida shakllanadi.

8. Ma'lum maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi barqaror birikmalar ham generonimlarning nutqda voqyelanishini namoyon qilishda muhim rol o'ynaydi, bunda leksemaning differensial semalari katta ahamiyatga ega bo'ladi. «Yaralish» semali lug'aviy birliklar frazeologizmlar tarkibida asosan denotativ sema anglatmay, ifoda, tasvir, qo'shimcha ma'no semalarini yuzaga chiqarishda xizmat qiladi.

9. Xalq maqollari tarkibida qo'llanilgan generonimlar eng muhim denotativ ma'nosidan tashqari, ma'lum maqsadga qaratilgan konnotativ ma'noni namoyon qiladi. Maqoldagi generonimlarda qiyosiy, oppozitiv munosabat ustunlik qiladi.

10. Topishmoqlarda tagmazmunni aniqlashda generonimlar ham muhim vosita vazifasini bajaradi. Topishmoq matnining mazmuniy tuzilishida aniqlanayotgan narsa va hodisaning differensial semasi markaziy o'rinni egallaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Siyosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чоратadbirlari тўғрисида»ги Фармони / Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).

### Monografiya va qo‘llanmalar:

2. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 117 б.

3. Алпанова Ш. Ўзбек тилида рухий ҳолатнинг акс этиши. Тошкент: Akademnashr. – 2019. – 160 б.

4. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент: Фан, 1995. – 132 б.

5. Воҳидов Э. Сўз латофати. Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 216 б.

6. Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

7. Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Тошкент: Qaenus Media, 2019. – 136 б.

8. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан. 1998. – 52 б.

9. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – 152 б.

10. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Просвещение, 1976. – 288 б.

11. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Тошкент: MERIYUS, 2017. – 140 б.

12. Mavlonov O., Toshmanov N., Sanayeva L. Zoologiya. Toshkent: Voris-nashriyot, 2013. – 192 b.

13. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. Тошкент: Mumtoz so`z. – 2017. – 178 б.

14. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно таракқиётида зиддият: (Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати). – Тошкент: Akademnashr, 2014. – 288 бет.

15. Миртожиев М.М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. Тошкент: Университет, 2007. – 64 б.
16. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so`z, 2010. – 288 б.
17. Миртожиев М., Муҳамедова С. Ўзбек тилида сўз валентликлари. Тошкент, 2011. – 164 б.
18. Муҳамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. Тошкент: Фан, 2005. – 123 б.
19. Набиева Д.А. Ўзбек тилининг турли сатҳларида инвариант-вариантлик муносабатининг ифодаланиши. Тошкент: Шарқ, 2004. – 168 б.
20. Нейматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 127 б.
21. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – Москва: Высшая школа, 1982. – 272 с.
22. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари, Андижон, 2006. – 182 б.
23. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 416 б.
24. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 448 б.
25. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 376 б.
26. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 164 б.
27. Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантисемия. Тошкент: Tafakkur. – 2015. – 240 бет.
28. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. Тошкент: Фан. – 2006. – 232 б.
29. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Тошкент: Фан, 1989. – 144 б.
30. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. Тошкент. – 2005. – 145 б.
31. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.

32. Сафаров Ш. Семантика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 342 б.
33. Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. Тошкент: ВАҲОЗ, 2015. – 376 б.
34. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Ma`naviyat, 2004. – 160 б.
35. Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. – Тошкент, 1987. – 129 с.
36. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.
37. Худойберганова Д. Тил. Тафаккур. Маданият. Тошкент: Nodirabegim. – 2020. – 120 б.
38. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2001. – 448 б.
39. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 316 б.
40. Ўзбек топишмоқлари //Узбекские загадки. Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 255 б.
41. Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.
42. Ҳақимов М. Ўзбек прагматингвистикаси асослари. Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176 б.

#### **Dissertasiya va avtoreferatlar:**

43. Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида). Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 58 б.
44. Абдуллаев Ж. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 1993. – 23 б.
45. Абдуллаева Д.А. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. Тошкент, 2011. – 27 б.
46. Алиева М.А. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 52 б.
47. Алиқулов А.Ф. “Ел-ёғин” луғавий-маъновий гуруҳи (тизими, қўлланилиши ва лексикографик талқини): Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011. – 22 б.

48. Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол.фанлари номз.... дисс.автореф. Тошкент. – 2008. – 22 б.
49. Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.
50. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. Тошкент, 1997. – 51 б.
51. Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил): Филол. фанл. бўй. фалс. докт. дисс.автореф. – Самарқанд, 2019. – 48 б.
52. Бердиев Х.Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Самарқанд, 2017. – 47 б.
53. Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структур-семантик таҳлили: Филол.фанлари номз.... дисс.автореф. Тошкент. – 2009. – 26 б.
54. Воққосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. Фарғона, 2005. – 22 б.
55. Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Филол.фанл.бўй.фалс.докт.дисс.автореф. – Фарғона, 2017. – 49 б.
56. Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.
57. Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик хамда стилистик градуонимия: Филол. фанл. докт... дисс. автореф. Тошкент, 2016. – 81 б.
58. Джурабаева З.А. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – 49 б.
59. Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 346 с.
60. Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. докт.... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 75 б.
61. Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси (Жанубий Ўзбекистон материаллари асосида): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 24 б.

62. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори ... дисс.автореф. Самарқанд, 2019. – 73 б.
63. Икрамова С.А. Оламнинг лисоний манзарасида макон категорияси ва миллий ўзига хослик: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Фарғона, 2018. – 50 б.
64. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Самарқанд, 1993. – 27 б.
65. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт... дисс. автореферати. – Тошкент, 1999. – 61 б.
66. Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз... дисс. автореферати. – Тошкент, 2011. – 27 б.
67. Исматуллаев И. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. Ташкент, 1963. – 19 с.
68. Йигиталиев У.С. Ўзбек тилида “одам” ва “жинс” концептлари билан боғлиқ ассоциатив–вербал бирликлар: Филол. фанл. бўй. фалс. доктори.... дисс.автореф. Тошкент, 2020. – 53 б.
69. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент. – 1993. – 49 б.
70. Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишликли бирикмалар семантикаси: Филол.фанл.номз.... дисс.автореф. Тошкент, 1994. – 26 б.
71. Кахарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2009. – 23 б.
72. Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ): Автореф.дисс.... д-ра филол.наук. Ташкент, 1978. – 40 с.
73. Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 23 с.
74. Максумова С.С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. - Тошкент, 2012. – 27 б.
75. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фанлари докт.... дисс.автореф. Тошкент. – 2000. – 56 б.

76. Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 47 б.
77. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 1994. – 27 б.
78. Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 42 б.
79. Мусаев Т.Т. Глаголы ощущения в узбекском языке: Автореф.дисс.... канд. филол.наук. Ташкент,1992. – 17 с.
80. Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент. – 2019. – 51 б.
81. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2004. – 25 б.
82. Муҳамедова С. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фанл. номз... дисс. автореф. - Тошкент, 1999. – 48 б.
83. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 48 б.
84. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари доктори ... дисс.автореф. - Тошкент, 2000. – 47 б.
85. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – 46 б.
86. Насруллаева Г.С. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Фарғона, 2019. – 48 б.
87. Неъматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланилиши: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 21 б.
88. Нишонова Н.Р. Ўзбек тилида “ҳайвон” архисемали семемалар майдонининг мазмуний тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент. 2000. – 26 б.

89. Норбаева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – 45 б.
90. Одилов Ё.Р. Ўзбек тилида энантиосемия: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2016.
91. Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фанлари номзоди .... дисс.автореф. - Тошкент, 1997. – 25 б.
92. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. - Тошкент, 1996. – 26 б.
93. Пазлиддинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Фарғона, 2018. – 52 б.
94. Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 1994. – 128 б.
95. Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентности: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. — Ташкент. 1989. – 55 с.
96. Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фанл. бўй. фалс. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 54 б.
97. Рустамов Д.А. Лексемалар миллий-маданий хосланган семемасининг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фанл. бўй. фалс. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 45 б.
98. Рустамова Д.А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фанл. бўй. фалс. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 49 б.
99. Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2005. – 24 б.
100. Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Самарқанд, 2004. – 24 б.
101. Собиров А. Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 50 б.
102. Тошхужаева Ш.Ғ. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол.фанл.бўй.фалс.доктори.... дисс.автореф. – Фарғона, 2017. – 49 б.

103. Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.

104. Уракова З.С. Маскан отларининг луғавий-маъновий гуруҳи ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 27 б.

105. Хидиров Р. Янги луғавий бирликлар ва уларнинг тил парадигматик тизимига муносабати: Филол. фанлари номз.... дисс.– Тошкент, 1996. – 126 б.

106. Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Фарғона, 2018. – 46 б.

107. Худайберганаева Д.С. Ўзбек тилида бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: : Филол.фанл.д-ри.... дисс.автореф. Тошкент, 2015. – 101 б.

108. Худойбердиева Л.С. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Тошкент, 2003. – 23 б.

109. Шамсиддинов Х.Термины в художественной речи: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 18 с.

110. Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол.фанлари номз. ... дисс.автореф. Тошкент, 1996. – 19 б.

111. Элмурадова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони): Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011. – 26 б.

112. Эргашова М.В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2011. – 21 б.

113. Эрматов И.Р. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2019. – 52 б.

114. Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 46 б.

115. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.

116. Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий мухитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фанл. бўйича фалсафа доктори дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 41 б.

117. Қобулова У. С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2007. – 23 б.

118. Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. Тошкент, 2011. – 21 б.

119. Қурбонова Б.Қ. Локаллик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2007. – 24 б.

120. Қурбонова М.О. Мустақиллик даври дostonлари лингвопоэтикаси: Филол. фанл. бўй. фалс. доктори.... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 46 б.

121. Ғуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 2009. – 26 б.

122. Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари доктори ... дисс.автореф. Тошкент, 2001. – 49 б.

123. Ҳақимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги: Филол.фанлари номз.... дисс.автореф. Тошкент. – 1994. – 24 б.

124. Ҳақимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Фил.фанл.номз. ...дисс.автореферати Фарғона, 2004. – 23 б.

125. Ҳақимова М.К. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. Тошкент, 2019. – 69 б.

126. Ҳожиёва Х. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол.фан. номз... дисс. автореф. -Самарқанд, 2001. – 22б.

#### **Maqola va tezislar:**

127. Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998. – 4-сон. – Б.62-66.

128. Йигиталиев У. Стилистик воситаларда “жинс” концептининг ассоциатив-вербал ифодаланиши// Илм сарчашмалари.– Урганч, 2019.– №5. – Б.61-66.

129. Миртожиев М., Муҳамедова С. Ўзбек тилида валентлик кўринишлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001, 3-сон. – Б.42-46.
130. Нурмонов А. Лингвистик бирликларда умумийлик-хусусийлик, моҳият-ҳодиса диалектикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1995.- 1-сон. – Б.36-39.
131. Қаҳҳоров Ш. Онимлар тизимида некронимларнинг ўрни хусусида// Филологиянинг долзарб муаммолари. Фарғона, 2008. – Б.200-204.
132. Қаҳҳоров Ш. *Некроним* ва *некротопоним* атамаларининг фарқланишига доир // Филологиянинг долзарб муаммолари. Фарғона, 2008. – Б.204-207.
133. Кўчқортоев И. Сўз валентлиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. – 3-сон. – Б.37-40.

#### **Lug‘atlar:**

134. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966. – 608 с.
135. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи. – 1984.
136. Лингвистический энциклопедический словарь. М.: СЭ, 1990. – 596 с.
137. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. Тошкент: Фан. – 2006. – 136 б.
138. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
139. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент: Университет. – 2000. – 600 б.
140. Турғунов Қ. Психология терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.
141. Ўзбек тилининг изоҳли луғат. Беш жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б.
142. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.

143. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 688 б.
144. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.
145. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.
146. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.

**Internet manbalari:**

147. <https://docplayer.ru/27467248-Ruskiy-associativnyy-slovar.html>
148. <https://studopedie.org/4-65730/html>
149. <https://www.avtoram.com/evfemizm>

## MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
<b>BIRINCHI BOB. O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLAR PARADIGMASI</b>	
1.1. Onomasiologik tadqiqotlar va generonimlar .....	7
1.2. O‘zbek tilidagi generonimlarning invariant-variant munosabatlari.....	24
1.3. O‘zbek tilidagi generonimlarning semantik valentligi.....	31
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	46
<b>IKKINCHI BOB. O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLARNING ASSOTSIATIV VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI</b>	
2.1. O‘zbek tilidagi generonimlarning assotsiativligi .....	47
2.2. Generonimlar o‘rtasidagi antisemik munosabat .....	58
2.3. Generonimlarning badiiy nutqdagi o‘rni.....	65
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	76
<b>UCHINCHI BOB. O‘ZBEK TILIDAGI GENERONIMLARNING MILLIY-MADANIY TALQINI</b>	
3.1. Generonimlarning evfemik ifodalanishi.....	77
3.2. Frazelogizmlar va generonimlar.....	88
3.3. Xalq maqollari va generonimlar.....	95
3.3. Xalq topishmoqlari va generonimlar.....	102
Bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	109
<b>XULOSA.....</b>	<b>111</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>113</b>



ФДУ “Нусха кўпайтириш бўлими”да  
чоп этилди. 14.12.2021 й.  
Буюртма № 38. Адади 30 нусха.  
150100. Фарғона шаҳри  
Мураббийлар кўчаси, 19-уй.